

2025, 2-son

# NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI

## AXBOROTNOMASI

# 2025



+998993115155



[www.nsuni.uz](http://www.nsuni.uz)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**

**A X B O R O T N O M A S I**

**2025, № 2**

**Navoiy-2025**

**TAHRIRIYAT HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:**

**I.f.d-ri, prof.M.B.Kalonov**

Bosh muharrir o'rinbosari

DSc.R.H.Davlatova

Mas'ul kotib

PhD.D.F.Jabborova

**Tahririyat hay'ati a'zolari:**

Akademik Sh.Ayupov

B.f.d. S.Shodiyev

Akademik I.D.Lelsitskiy

P.f.d. U.Mirsanov

Akademik N.J.Kalonov

T.f.n., prof. I.Kamolov

Akademik K.Sh.Tojibayev

T.f.n. X.Qurbonov

Akademik S.Negmatov

P.f.n. T.O'tapov

Akademik B.Zaripov

P.f.n. G'.R.Yodgorov

Akademik R.Jo'rayev

F.-m.f.n. R.Ro'ziyev

Akademik X.Ibragimov

F.f.n. T.Xo'jaev

Director at House of

F.-m.f.n. B.Izbosarov

Leading&Learning Oy Hanne Koli

B.f.n. A.Kushakov

(Finland)

P.f.d., prof. Azizuddin Khan

**Texnik muharrirlar**

(Kanpur IIT, Hindiston)

PhD. Tabassum Qazi (Kanpur IIT,

Hindiston)

F.f.d, prof. Z.N.Xudoyberganova

(Bartın Universiteti, Turkiya)

к.п.н. доцент Пежемская Юлия

Сергеевна (Санкт-Петербург,

Россия)

F.f.d., prof. D.Lutfullayeva

P.f.d., prof. O.Musurmonova

Iqt.f.d., prof. N.Murodova

P.f.d., prof. D.Narzikulova

P.f.d., prof. A.Ahmedov

F.f.d., prof. M.Ernazarova

F.f.d., prof. N.Safarova

I.f.f.d. I.S.Zaynutdinov

I.f.f.d. M.Kalonova

T.f.d. A.Aminova

A.Bahromov

I.Mahmudov

S.Saydullayev

Manzil: Navoiy sh., Ibn Sino ko'chasi, 45-uy.Navoiy davlat universiteti, Bosh bino.Tel.: (8436) 522-19-30, Faks: 225-19-30; web-sayt: *nspi.uz*  
e-mail: *@nspi.uz* yoki *isfan2006@mail.ru*

**MUNDARIJA// CONTENTS**

<b>Pedagogika</b>			
1.	Kalonov Muxiddin Baxriddinovich	Aniq maqsad va samarali natija sari	6-9
2.	Olimov Shirinboy Sharofovich	Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish	9-13
3.	Л.А. Пшеницына Л.С. Дуйнова	Практические аспекты формирования гуманного отношения к людям старшего поколения у детей старшего дошкольного возраста	14-16
4.	Djamilova Nargiza Nuritdinovna	Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirish loyihasining samaradorligi	17-20
5.	Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna Barnoyeva Sevara Uchqun qizi	Oliy ta'limda zamonaviy tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari	21-26
6.	Aslanova Nozima Xakimovna	Yangi O'zbekiston ta'limida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning dolzarb masalalari	27-31
7.	Ermatova Gulnoz Pirimovna	Bo'lg'usi tarbiyachilarda pedagogik etiketni shakllantirish-ijtimoiy intellektni rivojlantirishning omili sifatida	31-40
8.	Pirmanova Gavkhar Nazarkulovna	Using virtual trips to historical places in England to encourage teenagers	41-47
9.	Azimova Musharraf Utkirovna	Maktabgacha yoshdagi bolalarni tejamkorlikka o'rgatish	48-51
10.	Mavlonova Baxtigul Saidovna	Oliy ta'lim muassasalari talabalarida liderlik ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy ahamiyati	51-57
	Sidikova Zulfiya Murodjon qizi Bazarbayeva Nigora Sabirovna	Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ajdodlar	57-65

		merosini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	
11.	Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	Bolalar nutqini rivojlantirish ontogenezning dolzarb muammosi sifatida	65-69
12.	Davlatova Zebo Haydarovna	Zamonaviy ta'limda bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi	70-72
<b>Tilshunoslik</b>			
13.	Саидова Мохира Расулевна	Система работ над глагольными синонимами	72-78
14	Барноев Орифжон Дилшодович	Инфинитивные предложения в русском языке	78-81
<b>Ekologiya</b>			
15.	Shamsiddinova Gulchehra Dustmurodovna	“O‘zbekiston — 2030” Strategiyasi- barqaror rivojlanishning asosidir	82-88
<b>Musiqa</b>			
16.	Omanqulova Shohida Nematillo qizi	Musiqa to'garaklarida dutor cholg'usi asosida o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'yiladigan pedagogik talablar	88-95
17.	Samatova Dilnoza Salaidinovna	Musiqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish	96-101
18.	Boliyev Uchqun Ismatovich	Talabalarni musiqa vositasida ma'naviy –axloqiy tarbiyalashga pedagogik yondashuv	101-108
19.	Burxonova Gulrux Umurzakovna	Talabalarning o'zbek xalq cholg'ulari asosida ijrochilik malakalarini rivojlantirish	108-115

## ANIQ MAQSAD VA SAMARALI NATIJA SARI

**Kalonov Muxiddin Baxriddinovich**

Navoiy davlat universiteti rektori, i.f.d., professor

*Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni –  
bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi!  
Sh.M.Mirziyoyev*

Har qanday taraqqiyot aholining ziyoli qatlami, ayniqsa maorif sohasi xodimlari oldiga barcha jabhalarda avangardlik vazifalarini qo'yadi. Shu jihatdan ta'limning uzviy pillapoyalari uchun kadrlar tayyorlashdek mas'uliyatli vazifa institutimiz olimlari va o'qituvchilari zimmasiga ham o'z faoliyatlarini chuqur tahlil etish hamda fidoyilik kabi fazilatlarini talab etadi.

Yurtimizda mustaqillik yillarida barkamol avlod kamoloti, yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga o'ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda. Ularning tashkiliy-huquqiy asoslari tizimli ravishda takomillashib bormoqda.

Dunyodagi eng bebaho boylik – aql-zakovat va ilm, o'lmas meros – yaxshi tarbiyadir. Jamiyatimizda bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, oliygohlarning professor-o'qituvchilari va ilmiy-ijodiy ziyolilarni bugun biz intilayotgan Uchinchi Renessansning to'rt tayanch ustuni deb e'tirof etilmoqda. Shu jihatdan sizlarning hurmat-e'tiboringizni oshirish, qadringiz, sha'ningiz va g'ururingizni tiklash, mashaqqatli va sharaflil mehnatingizni har taraflama rag'batlantirish bo'yicha boshlangan ishlar izchil davom etmoqda. Bu – ko'pni ko'rgan, ustozni otadan ulug' deb bilgan donishmand xalq minnatdorligining ifodasidir.

Albatta, bu allomalarning savodi tili bilan barobar chiqqan ikki Renessans bunyodkorlari, vorislari qalbida cheksiz faxr uyg'otib, shunga mos mas'uliyatni ham talab etadi. Bu yo'ldagi har bir qadam shu marra sari yaqinlashtirishi ustuvor vazifa qilib belgilanib, u maktabgacha ta'lim tizimi islohotlarida ko'zga yaqqolroq tashlanmoqda.

Mamlakatimizda bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga to'liq qamrab olishning davlat siyosati darajasida belgilanishidan maqsad aynan xalqining ilk davrida har bir bolaning jismoniy va ruhiy ko'nikmalari jadal sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlashdir. Zero, bolada ong, til, atrofni anglash, munosabatga kirishish, muammolarni hal qila olish qobiliyatlari go'dakligidan shakllanib, uning bir kunini besamar o'tkazib yuborish ham bola qobiliyatining shakllanish darajasi va sur'atiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

**Oddiy ko‘rsatkichdan — samara ko‘rinishiga.** Bugun mamlakatimizda har bir bola timsolida shaxsni kashf etish, uning manfaatlarini ta‘minlash, himoya qilish ta‘lim va tarbiyaning barcha bo‘g‘inida ustuvor tutilyapti. Tamomila yangi mazmun va shakldagi Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan hamda ijod maktablari, oliy ta‘lim muassasalarining dunyoning ilg‘or universitetlari bilan hamkorligi ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi sobitqadamlikning ifodasidir.

Tabiiyki, har qanday taraqqiyot aholining ziyoli qatlami, ayniqsa, maorif sohasi xodimlari oldiga barcha jabhada avangardlik vazifalarini qo‘yadi. Shu jihatdan ta‘limning uzviy pillapoyalari uchun kadrlar tayyorlashdek mas‘uliyatli vazifa universitetimiz olimlari va o‘qituvchilari zimmasiga ham ushbu maqsadlar ro‘yobi yo‘lida o‘z faoliyatini chuqur tahlil etish, fidoyilik kabi fazilatlarini talab qiladi. Albatta, bu yo‘lda amalga oshirilgan ishlar bugun oddiy ko‘rsatkich tuyulishi mumkin, yaqin kelajakda esa samara ko‘rinishini olishi, shubhasiz.

Xususan, universitetimizda ta‘lim yo‘nalishlari — bakalavr va magistraturada mutaxassisliklar soni oshirildi. 2024-2025 yil o‘quv yilidan e‘tiboran bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining kunduzgi o‘quv shaklida yangi yo‘nalishlar — maxsus pedagogika, logopediya, astronomiya, amaliy matematika, sport faoliyati — dzyudo, futbol, basketbol, voleybol va qo‘l to‘pi yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yilganligi har bir intilishni to‘liq qamrab olish yo‘lidagi sobitqadamlikning amaliy ifodasidir.

Prezidentimiz tashabbusi bilan bugungi global inson salomatligi muammolari e‘tiborga olinib, institutimizda 2021 o‘quv yilidan e‘tiboran yangi tibbiyot fakulteti (2 ta tibbiyot ta‘lim yo‘nalishi “Davolash ishi” va “Pediatriya”) hamda “Ijtimoiy ish” sirtqi ta‘lim yo‘nalishlari ochilgan edi.

Prezidentimizning 2023 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023 yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ilovasida Navoiy davlat universiteti faoliyatini yo‘lga qo‘yish borasida ustuvor vazifalar belgilanib, shu asosda universitetimiz jamoasi bilan to‘qqiz banddan iborat strategiya ishlab chiqildi. Unga ko‘ra universitetda ta‘lim sifatini yanada oshirish maqsadida o‘quv va talabalarga xizmat ko‘rsatish tizimi to‘liq raqamlashtirilib, “HEMIS” tizimi boshqaruviga o‘tkaziladi. Bu — ta‘lim jarayonlariga inson omilining aralashuvini bartaraf etib, xalqaro standartlarga mos, “kredit-modul” tizimini to‘liq joriy qilish, demakdir. Shuningdek, yangi avlod o‘quv adabiyotlari, jahon miqyosida o‘qitiladigan fanlardan adabiyotlar xaridi asosida ARMning moddiy-texnika bazasi takomillashtiriladi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari kutubxonalarini bilan integratsiya

qilinadi. Universitetda ilmiy salohiyatni 60 foizga yetkazish borasidagi aniq chora-tadbirlar asosida fundamental amaliy innovatsion va startap loyihalar ishlab chiqish mexanizmi yaratiladi.

Ma'lumki, jamiyat rivojini ta'lim va ilm-fanda qo'lga kiritilayotgan kashfiyotlar belgilaydi. Joriy yilda 515 nafar professor-o'qituvchidan iborat pedagogik jamoamiz tomonidan 37 ta darslik, 67 ta o'quv qo'llanma, 54 ta monografiya, 10 ta ilmiy maqolalar to'plami, "Scopus and Web of Science" va boshqa xalqaro bazalardagi jurnallarda 412 ta, respublika ilmiy jurnallarida 500 dan ortiq ilmiy maqolalar chop etildi, 53 ta mualliflik guvohnomasi olindi. 2024-yilning iyun oyida Buyuk Britaniyaning "Times Higher Education (Impact Rankings) THE" reyting agentligi — dunyo universitetlarining BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) muvofiqligini baholovchi global reytingda 17 ta yo'nalish bo'yicha Navoiy davlat universiteti ilk bor "TOP — 1000" talik oliy o'quv yurtlari qatorida qayd etildi.

Universitetda xalqaro reytingi baland bo'lgan xorijiy OTMLar bilan ham professor-o'qituvchilar almashinuvi yo'lga qo'yildi. 2024-yil universitet o'qituvchilarining 44 nafari xorijiy OTMLarda stajirovka o'tab qaytdi. O'z navbatida, 18 nafar xorijlik mutaxassis universitetda bo'lib, mahorat darslari o'tdi.

**Muvaffaqiyatli islohotlar — yuqori natijalar.** Bugun moliyaviy erkinlik va ochiqlik tufayli respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, zamon talabidagi o'quv-laboratoriya vositalari, kompyuter texnikalari bilan jihozlangan. Chunonchi, birgina universitetimiz misolida olsak, 7 ta o'quv binosida 205 ta o'quv auditoriyasi, 22 ta laboratoriya, 113 seminar hamda amaliyot auditoriyalari, shuningdek, uchta talabalar turar-joyida davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 5 muhim tashabbus to'garak xonalari, uchta kutubxona, "workout" maydonchalari uchun xonalar, uchta sport zali, axborot resurs markazi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan chin yetim va Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari, "temir daftar"ga kiritilgan oilalar farzandlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 79 nafar talabaga qariyb 110 mln. so'm moddiy yordam, nogironligi bo'lgan 197 nafar talabaga 153 mln. sumlik pul mablag'lari universitet tomonidan to'lab berildi. Shuning barobarida iqtidorli va jamoat ishlarida faol talabalarimiz doimiy ravishda rag'batlantirilib borilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash joiz, institutimiz huzuridagi akademik litseyi joriy yilda 206 nafar o'quvchi bitirib, ularning 98 foizi, ya'ni 201 nafari oliy ta'lim muassasalariga (51 foizi davlat granti asosida) talabalikka qabul kilindi. E'tiborlisi, ular to'plagan ballarning o'rtacha ko'rsatkichi bo'yicha 137,23 ball bilan respublikada 3-o'rinni egalladi.

Xullas, bugun inson intellektiga e'tibor, innovatsion yechimlar davri keldi. Bunda daxldor kuchlarni birlashtirish zarur. Zero, mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etish — bu shunchaki xoxish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir".

## PEDAGOGIKA

### BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

**Sh.Sh.Olimov – BuxDU Pedagogika  
kafedrası mudiri, p.f.d., prof.**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish muammosining dolzarbligi asoslanib, uning maqsad va vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishga qo'yilgan talablar aniqlashtirilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tarbiya, odob, axloq, deontologiya, kompetentlik, rivojlanish, qadriyat, kasbiy faoliyat.

**Аннотация.** В основе данной статьи лежит актуальность проблемы развития деонтологической компетентности у будущих учителей, раскрываются ее цели и задачи. Также в статье указаны требования к развитию деонтологической компетентности у будущих учителей.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, манеры, этика, деонтология, компетентность, развитие, ценность, профессиональная деятельность.

**Annotation.** This article is based on the relevance of the problem of developing deontological competence in future teachers, and its goals and tasks are revealed. The article also specifies the requirements for the development of deontological competence in future teachers.

**Key words:** education, upbringing, manners, ethics, deontology, competence, development, value, professional activity.

**Kirish.** Pedagogik deontologiya o'qituvchi madaniyatiga bag'ishlangan fan bo'lib, uning maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik deontologiya tushunchasining mazmun-mohiyati va kasbiy etikaning pedagogik faoliyatidagi ahamiyati va o'rni, kasbiy etika meyorlari haqida ma'lumotlar berishdan iborat.

Pedagogik deontologiyaning vazifalari nafaqat o'qituvchining kasbiy majburiyatining ma'nosini ochish, kasbiy faoliyat natijalari uchun javobgarlik, talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblari bilan munosabatlar jarayonida o'qituvchilarga qo'yiladigan me'yorlar va talablar tizimini belgilashdan tashqari, ularni amalda bajarish shartlarini aniqlashdan iboratdir.

Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishga quyidagi talablar qo'yiladi:

Axloqiy qadriyatlar - kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari haqida g'oyalar tizimi. O'qituvchining axloqiy me'yorlariga quyidagilar kiradi: xushmuomalalik va odoblilik oddiylilik va kamtarlik halollik va rostgo'ylik sobitqadamlik ochiq ko'ngillik saxiylik va muruvvatlilik o'zaro hurmat, do'stona munosabat, samimiylilik sipoliq kattalarni hurmat qilish va boshqalar.

Xushmuomalilik — ko'ngildagi ardoqli fikrlarni, yeng noyob his-tuyg'ularni, yeng yezgu niyatlarni o'quvchilar, odamlar bilan baham ko'rish, osoyishtaliq vazminlik xotirjamlik bilan ish tutishdir.

Uning 10 ta belgisi bor. Ular quyidagilar: insof, aql, ilm, oliyjanoblik ko'rkam fe'l, yaxshilik sabr, shukr, muloyimlik kabi xususiyatlar.

Odoblilik — yaxshi tarbiya ko'rganlikning namoyon bo'lishi, xatti-harakatlarda, so'zlashuvda me'yorni, chegarani, muvofiqlilik va nomuvofiqlikni bilishdir. Odoblilikning asosiy belgisi – o'zini tuta bilish, hukm chiqarishda shoshilmaslik kishilarning orqasidan g'iybat qilmaslik o'zgalar fikrini tinglay bilish, shirinso'zlik hisoblanadi.

Halollik har bir insoning o'z kuchi bilan mehnat qilishi, shuning yevaziga topgan mol-mulki, obro'si, jamiyatga tutgan o'rni, xulqining to'griligi, so'zida qat'iylik va sadoqatining majmuasidir.

Sobitqadamlik — niyat qilingan ishga jiddiy kirishish va oxiriga yetmaguncha undan chekinmaslik boshlangan ishni oxiriga yetkazishdir.

Sabr-qanoat — boshga tushgan qiyinchiliklarni chidam bilan yengishdir.

Kamtarlik deb kishining o'zini tabiiy holda qanday bo'lsa shundayligicha hamma bilan teng bab-barobar tutishiga aytiladi.

Rostgo'ylik — halollikning bir ko'rinishi bo'lib, haqiqatni gapirish, o'zining ham, o'zgalarning ham qadr-qimmatini to'gri baholash, yaxshini yaxshi, yomonni yomon deb ochiqchasiga aytishdir.

Shijoat — botirlik jasorat, dovyuraklik mardlik degani.

Pokizalik — bu tozalik va soflik degani. Tozalik-inson salomatligining garovi. O'qituvchining axloq normasi sifatida kiyim-kechagi, ish joyining pokiza bo'lishini hamda qalbining pok bo'lishini, taomiga harom aralashmasligi, halol bo'lishini talab qiladi.

Burch — ado yetilishi, bajarilishi shart bo'lgan vazifa, majburiyatdir. Pedagogik burch pedagogik yetikaning yeng muhim kategoriyalaridan biridir. Ta'lim sohasi xodimlarning kasbiy

burchi deb jamiyat, davlat qo'yg'an vazifalarni, xizmat vazifalarini majburiy ravishda bajarishlariga aytiladi.

Pedagogik burchning asosiy mazmunini tashkil yetuvchi vazifa va majburiyatlar quyidagilardan iborat:

- ona Vatan — O'zbekiston Respublikasiga cheksiz sadoqat bilan xizmat qilish;
- o'z davlati Konstitutsiyasiga va qonunlariga qat'iy rioya qilish, buyruq va nizomlarning talablarini bajarish;
- o'qituvchilik faoliyati shaxsiy hayotda halol va to'g'ri, mehnatsevar, intizomli bo'lish;
- axloq, odob qoidalariga qat'iy rioya qilish, doimo ozoda va orasta kiyinish;
- o'z fani mazmunini va bu fanni o'qitish metodikasini puxta yegallash;
- o'z kasbiga nisbatan muhabbatli bo'lish, bolalarni sevish, ular bilan ishlay olish qobiliyatiga yega bo'lish;
- kasbiy mahoratini doimo rivojlantirib borishi;
- zamonaviy talablar bo'yicha yetuk faol, ijtimoiy, siyosiy masalalarni to'g'ri tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi.

Pedagoglik mehnatini o'ziga olgan har qanday shaxs moyilliq qobiliyat va imkoniyatlariga qaramasdan muayyan axloqiy qoidalar va talablarni bajarishga majburdir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Pedagogik burchning talablaridan biri – o'zining bilimlarini doimiy ravishda to'ldirib borishdir. Bolalarni sevish, ularga mehr-muhabbatli bo'lish o'qituvchi axloqiy qiyofasida muhim ahamiyatga yega. Buning uchun o'qituvchi muntazam o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlashi shart. Burch o'qituvchi oldida bo'sh vaqtning kamligiga qaramasdan o'z ustida doimiy ishlashni talab yetadi. Pedagogik burchni yeng yuqori nuqtasi fidoyilik: vaqt va salomatlik holatiga qaramasdan ishlashdir. Kasbiy fidoyilikning yorqin namunasiga A.S. Makarenko va V.A. Suxomlinskiy hayoti va faoliyati misol bo'la oladi.

O'qituvchilik mas'uliyati. Shaxs axloqini tavsiflaydigan belgilardan biri mas'uliyatdir. O'qituvchining mas'uliyati, muallimlik faoliyati va ta'lim – tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi.

O'qituvchi zimmasiga bola shaxsini barkamol inson sifatida tarbiyalash mas'uliyati yuklangan. O'qituvchilik qilayotgan yoki kasbini tanlagan kishilar o'z zimmalariga qanchalik yuksak sharafli mas'uliyat olayotganliklarini tasavvur yetishlari lozim.

Adolat axloqiy tushunchalarning eng keng tarqalgan tushunchalaridan biri va etikaning eng muhim kategoriyalaridan biridir. Adolat — odamlarning o'z burch va vazifalarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda to'g'ri, qonuniy, halol, vijdonan, haqqoniy va odilona

bajarishlarini o'zida aks yettiruvchi axloqiy, siyosiy, huquqiy kategoriyadir. Adolat tamoyili o'z mazmuniga ko'ra uch tarkibiy qismdan:

- taqdirlash mezoni;
- talab qilish mezoni;
- qonuniy baho berishdan tashkil topadi.

Adolat tamoyilining taqdirlash mezoni — o'quvchilar jamoasining har bir bolani, o'quvchining qilgan mehnatiga, xizmatiga yarasha siylashi yoki qilmishiga yarasha jazolashi tushuniladi.

Talab qilish mezoni — o'quvchining jamiyat tomonidan norma, odob qoidasi, an'ana, urf-odat shaklida qaror topgan axloqiy talablarga og'ishmay amal qilishini, ularni bajarishini qat'iy talab qilinishi tushuniladi.

Qonuniy baho berish deganda o'rnatilgan axloqiy baholash o'lchovi asosida har bir harakatga berilgan bahoning to'g'ri yoki noto'g'riligini belgilab berishi tushuniladi.

“Adolatli ustoz” iborasi har qanday maqtovdan ustun turadi. Bu insonning axloqiy va ishchanlik xususiyatlarini baholashdir. “Adolat” bu bolaning o'qituvchilarga bo'lgan ishonchning asosi. Adolatli bo'lish uchun har bir bolaning ruhiy dunyosini bilish kerak” — deb yozgan mashhur rus pedagogi V.A. Suxomlinskiy. “Aqli, fikran boy, bag'ri keng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziqitirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham..., aql — aql bilan tarbiyalanadi, vijdon — vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik —bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan..., — deb ta'kidlagan yedi V.A. Suxomlinskiy. — U o'zining butun borlig'i, kundalik hayoti, ma'naviy madaniyati bilan o'qituvchi va o'quvchilarga o'rnak bo'ladi, larni o'z ortidan ergashtiradi. Shuning uchun tarbiyachi barcha masalalarda, amallarda odillik modeli, ya'ni o'zi namuna va adolatparvar bo'lishi kerak.

Or deganda, o'ziga nomunosib yoki el ko'rmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, nomus qilish tushunilsa, nomus deganda kishining o'z obro'sini ulug'lashi va ardoqlashi, oriyat, diyonat, uyat-andisha qilish, sharm-hayo tushuniladi. Shunga ko'ra oriyatli odam deb or-nomusni biladigan, o'z obro'yini qadrlaydigan kishilarga aytilsa, nomusli odam deb uyat-andishani biladigan, sharm-hayoli kishilarga aytiladi.

O'qituvchilik kasbining sha'ni deb, o'qituvchilik faoliyatini bajarishida o'zlarining insoniylik adolatparvarlik vijdoniylik halollik xislatlarini har tomonlama namoyish qilib, oriyatli, diyonatli bo'lib, o'z kasblarini ulug'lashlari va ardoqlashlariga aytiladi.

Qadr-qimmat deb xodimlarning jamiyatda, kishilar orasida tutgan o'rni, topgan obro'si, hurmati va nufuziga aytiladi.

Or-nomus kategoriyasi shaxs axloqining tashqi tomonlarini ifodalasa, qadr-qimmat kategoriyasi esa insonning o'z-o'zini anglashi, nazorat qilishni ifodalaydi. Qadr-qimmat o'z qadrini anglash shakli bo'lib, insonni kamsitadigan, xo'rlaydigan, shu bilan uning boshqa kishilar ko'z o'ngida o'z qimmatini yo'qotishga sabab bo'ladigan qiliqlarga yo'l qo'ymaydigan to'siq hisoblanadi.

O'qituvchilarning qadr-qimmati ularning o'zini-o'zi hurmat qilishi va saqlashi, o'quvchilar hurmatini yo'qotmasligi, o'z sha'niga dog' tushirmaslik uchun o'zini nazorat qilishi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik vijdon deb o'qituvchining o'z xatti-harakati, qilmishi yurish-turishi uchun o'quvchilar, odamlar, jamoatchilik oldidagi mas'uliyat tuyg'usi tushiniladi. Insonda irodaning paydo bo'lishi va kuchayishi uni harakatga keltiradi, vijdon azobidan qutqaradi.

Vijdon insonning faqat o'ziga, o'z xatti-harakatlarigagina emas, balki boshqa kishilarga, ijtimoiy manfaatlarga munosabatini ham ifoda yetadi. O'qituvchi qanchalik vijdonli bo'lsa, o'z kasbiy burchini shunchalik chuqurroq anglaydi va faolroq bajaradi. "Tarbiyada hamma narsa murabbiyning shaxsiga asoslanishi kerak" — deydi rus pedagogi K.D.Ushinskiy.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 19 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. <https://www.pv.uz/uz/news/>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi "Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-sonli Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.-173 b.

4. Mustaqillik: Izohli ilmiy-ommabop lug'at // Mualliflar: M.Abdullaeva, F.Abdullaeva, G.Abdurazzoqova va boshq.; R.Ro'ziev va Q.Xonazarov umumiy tahririda. To'ldirilgan uchinchi nashri / - T.: «Sharq», 2006. - 528 b.

5. Olimov Sh.Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. (Monografiya). – T.: "Fan va texnologiya", 2015. - 228 b.

**ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГУМАННОГО ОТНОШЕНИЯ К ЛЮДЯМ СТАРШЕГО ПОКОЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

*Л.А. Пшеницына, кандидат педагогических наук, доцент,  
Белорусский государственный педагогический университет им. М. Танка,  
Минск, Республика Беларусь*  
*Л.С. Дуйнова, воспитатель, ГУО «Детский сад № 137»,  
Минск, Республика Беларусь*

**Аннотация.** В статье рассматриваются изменения в субкультуре детей старшего дошкольного возраста на основе исследования, проведенного в детском саду в группе старшего дошкольного возраста. Изучено, как традиционные элементы детской субкультуры модифицируются под влиянием современных цифровых технологий, интернет-культуры, трендов и социальных сетей.

**Ключевые слова:** детский фольклор, детская субкультура, интернет-культура, игра, альфа-поколение.

**Abstract.** The article deals with changes in the subculture of senior preschoolers on the basis of the research conducted in a kindergarten in the senior preschool group. It was studied how traditional elements of children's subculture are modified under the influence of modern digital technologies, Internet culture, trends and social media.

**Key words:** children's folklore, children's subculture, Internet culture, game, alpha generation.

В условиях быстрого темпа жизни и технологического прогресса дети дошкольного возраста часто сталкиваются с недостатком общения со старшим поколением, испытывают дефицит понимания и уважения к их опыту и мудрости. Это приводит к формированию потребительского отношения к пожилым людям, отсутствию должного внимания и заботы о них. Вместе с тем, в современной системе дошкольного образования наблюдается противоречие между: необходимостью обеспечить процесс воспитания гуманного отношения к людям старшего поколения у детей старшего дошкольного возраста и недостаточностью условий для реализации процесса воспитания гуманных отношений в учреждениях дошкольного образования Республики Беларусь.

В «Кодексе Республики Беларусь об образовании» говорится о том, что государственная политика в сфере образования основывается на принципах приоритета общечеловеческих ценностей, прав человека, гуманистического характера образования [1].

Задачей реализации учебной программы дошкольного образования (2022) является формирование у воспитанников на основе разнообразного образовательного содержания гуманного отношения к себе и окружающему миру, эмоциональной отзывчивости, способности к сопереживанию. Основные направления воспитания гуманного отношения к людям у детей старшего дошкольного возраста включены в содержание учебной программы дошкольного образования образовательной области «Ребенок и общество» и включают следующие задачи: формировать такие качества, как уважение к личности, забота о других, стремление к сотрудничеству, умение проявлять эмпатию и сопереживание; проявлять свои личные качества, поступки, поведение, эмоциональные состояния, переживания и чувства и оценивать их с точки зрения моральных норм; распознавать особенности сверстников и взрослых в различных видах социальной деятельности, обращать на них внимание и положительно оценивать их поведение и его последствия [4].

Известный психолог В.Н. Мясищев считал, что «гуманное отношение является внешним фактором и, в то же время, выражает внутренний мир личности в целом, а не отдельную ее черту или сторону» [3, с. 54].

В работах С.А. Козловой гуманное отношение рассматривается с позиций сочувствия, сопереживания, отзывчивости, доброты, эмпатии, отмечая, что одним из основных показателей нравственного воспитания ребенка является характер его отношения к окружающим людям, природе и самому себе, умение понимать сверстников и взрослых, сочувствовать и сопереживать им, что является целью воспитания гуманного отношения у детей дошкольного возраста [2, с. 55].

На основе изучения психолого-педагогических исследований разработана структура формирования гуманного отношения к людям старшего поколения, которая включает: познавательный компонент (отражает представления и способности к усвоению представлений о сущности взаимоотношений между людьми, использованию моральных норм и ориентации на нравственные ценности); эмоциональный компонент (совокупность эмоциональных переживаний, обуславливающих стремление проявить гуманность); поведенческий компонент (включает в себя конкретные проявления гуманности в совместных действиях с людьми старшего поколения).

С целью формирования всех компонентов гуманного отношений к людям старшего поколения у детей старшего дошкольного возраста была разработана методика, которая включает в себя совокупность педагогических методов, форм и средств организации образовательного процесса. Методика формирования гуманного отношения к людям старшего поколения апробирована на базе филиала кафедры общей и дошкольной педагогики БГПУ им. М. Танка – ГУО «Детский сад № 137 г. Минска». В рамках апробации методики проведен цикл занятий по образовательной области «Ребенок и общество» на темы: «Ветераны Великой Отечественной войны», «Люди старшего поколения» и по образовательной области «Изобразительное искусство» на тему «Доброта поможет всем». Занятия вызвали интерес детей, приемы артпедагогики заставили детей задуматься о том, как выражается доброта, для них это было ново и необычно, а все новое откладывается в памяти намного сильнее. Также с детьми были проведены беседы на темы: «Кто такие люди старшего поколения», «Добрые дела и поступки», «Добрый человек, любящий человек», «Доброта и забота о незнакомых людях старшего поколения». Беседа без эмоционального воздействия мало эффективна, дети часто отвлекаются, обязательно необходимо формировать эмоции посредством игр, проблемных ситуаций или мультфильмов. В работе с детьми широко использовались проблемные ситуации, воспитывающие гуманное отношение к людям старшего поколения, а также к людям с плохим зрением и слухом, людям, имеющим проблемы со здоровьем. Была разработана картотека проблемных ситуаций: «Дедушка-инвалид», «В автобусе», «Нитка с иголкой», «Дедушка в магазине», «Фотоальбом», «Бабушка-соседка», «У подъезда». Проблемные ситуации помогали воспитанникам повысить эмпатию, сделать самостоятельные выводы, что способствовало более эффективному усвоению информации и воспитанию гуманного отношения к людям старшего поколения.

Работа с родителями включала проведение родительского собрания на тему: «Забота о людях старшего поколения – забота о будущем», разработанный и проведенный тренинг на тему: «Мы справимся», личные беседы, также для родителей была предложена памятка с рекомендациями по воспитанию гуманного отношения к людям старшего поколения у детей старшего дошкольного возраста.

После внедрения методики, цикла занятий, бесед, игр, проблемных ситуаций была выявлена положительная динамика всех компонентов гуманного отношения к людям старшего поколения у детей старшего дошкольного возраста. Дети старшего дошкольного возраста уверенно рассказывали о своей помощи людям старшего поколения, быстро решали проблемные ситуации, с теплотой отзывались о своих родственниках пожилого возраста, изъявляли желание больше с ними общаться, стали уважительно относиться к незнакомым людям старшего поколения.

Проведение систематической работы педагогического коллектива филиала кафедры общей и дошкольной педагогики, способствовало развитию у воспитанников гуманизма как нравственного качества, которое включается в структуру личности и проявляется в гуманных отношениях к окружающим людям старшего поколения и людям с особенностями психофизического развития. Полученные нами результаты свидетельствуют об эффективности разработанной методики воспитания гуманного отношения к людям старшего поколения у детей старшего дошкольного возраста.

Таким образом, проблема воспитания гуманных отношений к людям старшего поколения у детей дошкольного возраста, изучение особенностей этого процесса и определение педагогических условий в процессе взаимодействия педагогических работников и законных представителей воспитанников является одним из актуальных направлений модернизации системы дошкольного образования в контексте современных социальных изменений и вызовов.

#### Список использованных источников:

1. Кодекс Республики Беларусь об образовании: 13 янв. 2011 г., № 243-З: принят Палатой представителей 2 дек. 2010 г.: одобр. Советом Респ. 22 дек. 2010 г.: в ред. Закона Респ. Беларусь от 06.03.2023, № 257-З. – Режим доступа: <https://etalonline.by/document/?regnum=Hk1100243&ysclid=m5jpszur5x275278695>. – Дата доступа: 01.02.2025.
2. Козлова, С. А. Дошкольная педагогика: Учебник для студ. сред. проф. учеб. заведений / С. А. Козлова, Т. А. Куликова. – 6-е изд., испр. – М.: Издательский центр «Академия», 2006. – 416 с.
3. Мясищев, В. Н. Психология отношений [Текст] / В. Н. Мясищев. – Воронеж: Модек, 2008. – 363 с.
4. Учебная программа дошкольного образования: (для учреждений дошкольного образования с русским языком обучения и воспитания) / Министерство образования Республики Беларусь. – Минск : Национальный институт образования, 2022. [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://adu.by/images/2022/08/up-doshk-obrazov-rus-bel.pdf>. – Дата доступа: 10.05. 2025.

## MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KASBGA ERKIN QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISH LOYIHASINING SAMARADORLIGI

Toshkent Amaliy fanlari universiteti professori, p.f.d(DSc)

*Djamilova Nargiza Nuritdinovna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirish loyihasing samaradorligi, loyihaning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va olingan natijalar bayon etilgan.

**Kalit soʻzlar:** maktabgacha taʼlim tashkiloti, rivojlantiruvchi muhit, rivojlanish markazlari, oʻyin faoliyati, AKT, erkin kasbga qiziqtirish, kasbga yoʻnaltirish, kasblar olami, kasbiy qiziqish interaktiv axborot taʼlim resurslari, raqamli jamiyat, raqamli avlod, raqamli texnologiyalar, raqamli muhit, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**Аннотация:** В данной статье изложены цели и задачи, научная новизна, практическая значимость и полученные результаты проекта формирования у детей старшего дошкольного возраста свободного интереса к профессиям.

**Ключевые слова:** организация дошкольного образования, развивающая среда, центры развития, игровые мероприятия, ИКТ, интерес к свободным профессиям, профориентация, мир профессий, профессиональные интересы, интерактивные информационно-образовательные ресурсы, цифровое общество, цифровое поколение, цифровые технологии, цифровая среда, информационно-коммуникационные технологии.

**Annotation:** This article outlines the goals and objectives, scientific novelty, practical significance, and results of the project aimed at fostering a free interest in professions among older preschool children.

**Keywords:** preschool educational organization, developing environment, development centers, play activities, ICT, interest in a free profession, career guidance, world of professions, professional interest, interactive information, educational resources, digital society, digital generation, digital technologies, digital environment, information and communication.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, tizimdagi o'zgarishlar innovatsion, integrativ, shaxsga yo'naltirilgan yondoshuvlari bilan xarakterlanadi. "Aqlli bog'cha" konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishga asoslangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasb yo'nalishiga oid dasturiy platformasini yaratish shuningdek, monitoring asosida bir kasb yo'nalishiga qiziqqan bolalarni qaysi kasbga qiziqishlarini aniqlashda ham o'z o'rnida innovatsion, integrativ, shaxsga yo'naltirilgan yondoshuvlarga asoslaniladi.

Tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblarga qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradigan uslubiy-didaktik ta'minot bilan ta'minlash, ya'niy uslubiy qo'llanma nashr ettirishga doir tadqiqot ishlari loyiha ishi doirasida o'rganildi.

Mazkur loyihadan ko'zlangan asosiy natijalar "Aqlli bog'cha" konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishga qaratilgan didaktik ta'minotni ishlab chiqish va shu asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kasblarga qiziqishlarini yo'naltirish, tarbiyachilarni shu faoliyatni amalga oshirishga tayyorlash uchun, elektron dasturiy ta'minot va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar mustaqil ishlashlari uchun elektron veb-platforma kompyuter ta'limiy o'yinlarni yaratishdan iborat.

**Asosiy qism:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni erkin kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirishning elektron dasturiy ta'minoti va elektron veb-platformasini yaratishdan iborat.

Loyihada quyidagi uslublardan foydalanilgan: nazariy, ilmiy-nazariy manbalarni tizimlashtirish va tahlil qilish, tadqiqot muammosi bo'yicha falsafiy, pedagogik va metodik adabiyotlar tahlili, uning natijalarini taqqoslash, analogiya va umumlashtirish, bevosita pedagogik faoliyat natijalarining tahlili, ta'kidlovchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov, olingan ma'lumotlarning miqdoriy tahlili va statistik qayta ishlash.

Loyiha ishining natijalari va yangiligi shundan iboratki: "Aqlli bog'cha" konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta'minotini mazmuni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM ta'lim elementlarini tatbiq etishning dolzarbligini asoslash, bolalarni erkin kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan shaxsga yo'naltirilgan

hamda erkin ijodiy muhitni yaratishning pedagogik jihatlarini tahlil qilish, intellektual va anglash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyalari ishlab chiqish orqali aniqlashtirilgan;

“Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta‘minotini yaratish mexanizmlari maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar tanishtirish uchun kasblarni tasniflash, ilmiy-metodik ta‘minotni yaratishning mazmunli, maqsadli, natijali komponentlarni amaliy yo‘naltirish barqarorligiga mutanosibligini ta‘minlash asosida takomillashtirilgan;

“Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta‘minotini yaratish texnologiyalari kasbiy o‘zini o‘zi belgilashning mohiyatini belgilash, kasblar haqida aniq bilim va tushunchalar berishning hamda kasblarga nisbatan qiziqish va xohishni uyg‘otishning pedagogik imkoniyatlarini asoslash orqali takomillashtirilgan;

“Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta‘minotini yaratish samaradorligi bolalarning qiziqishlarini erta aniqlash va kasbga maqsadli yo‘naltirish, Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni erkin kasb tanlashga qiziqishlarini rivojlanish xaritasini ishlab chiqish, maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirish bo‘yicha WEB platformani ishlab chiqish va tadbiiq etish asosida takomillashtirilgan.

Loyiha doirasida olingan natijalarini qo‘llash sohasi: loyiha bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida:

maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish uchun “Kasblar olami” nomli uslubiy qo‘llanma yaratilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 16-fevraldagi 6-sonli yig‘ilish bayonidan ko‘chirma);

“Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantiruvchi online web-platforma” nomli dastur yaratilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan № DGU 39474 raqamli guvohnoma olingan.

“Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirish nomli dasturiy ta‘lim resursi yaratilgan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan № DGU 38437 raqamli guvohnoma olingan;

Tadqiqot natijalari asosida 2 ta elektron ta‘lim resursi, 3 ta uslubiy qo‘llanma, 3 ta xorijiy va 10 ta maxalliy nashrlarda ilmiy maqolalar e‘lon qilingan. Shu bilan birgalikda, tadqiqot natijalariga ko‘ra loyiha a‘zolari tomonidan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plamlarida 4 ta, Respublika miqyosida o‘tkazilgan anjuman to‘plamlarida 2 ta tezis sifatida nashr etildi.

Loyiha natijalarini tadbiiq etish bo‘yicha tavsiyalar va tadbiiq etish yakunlari: bolalarga kasblar haqida ma‘lumot berishga asoslangan “Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantiruvchi online web-platforma bo‘yicha ilmiy izlanishlar va ularning amaliy natijalari tarbiyachilarga maktabgacha yoshdagi bolalarni erkin kasb tanlashga yo‘naltirish bo‘yicha ta‘lim xizmatlarini innovatsion rivojlantirish imkonini beradi;

-maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar haqidagi bilimlari va tasavvurlarini aniqlashtirish monitoringini amalga oshirish, bolalarni kasbiy qiziqishlarini rivojlanish kartasi yaratish maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasb tanlashga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi;

Loyihaning nazariy ahamiyati bolalarning psixofiziologik, intellektual, ijodiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan kreativ texnologiyalarni rivojlantirish, maktabgacha ta‘lim

tashkilotlarida shaxsga yo'naltirilgan innovatsion ta'lim muhitini yaratish hamda bolalarni, kasb-hunarga yo'naltirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan innovatsion yondashuvlar asosida maktabgacha ta'limning sifat ko'rsatkichlari mexanizmlarini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilganligi;

“Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishga asoslangan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kasbga yo'naltirishga oid dasturiy platformaning kontenti yaratilganligi, monitoring asosida bolalarning kasbga qiziqishlarini aniqlash bo'yicha rivojlanish xaritasi ishlab chiqilganligi;

tarbiyachilarni maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblarga qiziqishlarini rivojlantirishga yordam beradigan uslubiy-didaktik ta'minot bilan ta'minlash maqsadida o'quv metodik qo'llanmalarni yaratish mexanizmlarining amaliy yo'naltiriltirish asosida rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilganligi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun kasblar bilan tanishtirish bo'yicha veb platformani yaratilishi va bunda kasbga oid ta'limiy o'yinlar, 3D shakldagi tasvirlar, pazllarni yig'ish, kasb egalarini farqlash bo'yicha topshiriqlar, ovozli ma'lumotlar kasblar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Loyihaning iqtisodiy samaradorligi yoki ahamiyati:

Loyihani amaliy ahamiyati – maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtiruvchi “Aqlli bog‘cha” veb platformasining uslubiy ta'minoti yaratildi, bu esa, o'z navbatida, ilmiy va texnologik potensialdan foydalanishni optimallashtiradi;

“Aqlli bog‘cha” konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta'minoti yaratildi va amaliyotga joriy etildi; innovatsion metodikalarga asoslangan veb-platforma yaratildi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar bilan mashg'ulotlar tashkil etildi;

Loyihaning iqtisodiy ahamiyati. Mamlakat taraqqiyotini, iqtisodiy barqarorligini bilimli, o'z kasbini ustasi bo'lgan, kasbiy malakalari, kompetensiyalari rivojlangan mutaxassislar belgilab beradi. Raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash esa maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kasblarga bo'lgan qiziqishni shakllantirishdan boshlanadi. Ushbu tadqiqot ishi esa o'z navbatida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga; Respublikaning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi;

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini tashkil etishning didaktik asoslarini ishlab chiqish, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, shakl, metod, vositalarini ishlab chiqish, shuningdek, nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etib, loyiha ishi maktabgacha katta yoshdagi bolalarni erkin kasb tanlashga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishning innovatsion modelini yaratishga xizmat qiladi.

Loyiha natijalarining amaliyotga joriy etilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim sifatini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish hamda monitoringini olib borish, “Aqlli bog‘cha” veb platforma yaratish va ommalashtirish orqali interaktiv axborot almashinuvi, tarbiyachilarning ish yuritish tizimidagi resurlarning tejalishiga olib keladi.

**Xulosa:** Tezkorlik bilan rivojlanayotgan davr o'zgarishlarga tayyor turish, davr bilan hamnafas bo'lgan holda maktabgacha ta'limdan boshlab bolalarda kasbga oid dastlabki

tasavvurlarni shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Xususan kasblar bilan tanishish maktabgacha katta yoshdagi bolalarning:

- kasblar va ularning turlari haqida bilishi;
- zamonaviy kasblar va ular haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- kasblar va kasb egalari uchun zarur bo'ladigan asbob uskunalar bilan tanishishi;
- kasblarning ahamiyati haqida tushuncha va ma'lumotga ega bo'lishi;
- kasblar bilan tanishishda ular elektron dasturiy ta'minot materiallari kontenti bilan tanishishlariga xizmat qiladi.

qo'yilgan vazifalarni hal etish va rejalashtirilgan natijalarni olish imkoniyatlari loyiha a'zolari tarkibini shakllantirishda soha mutaxassisilari jalb qilinganligi hamda etarli ilmiy-amaliy tajriba va nazariy bazalarning mavjudligi bilan asoslandi;

olingan natijalarni O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni erkin kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish uchun elektron axborot ta'lim resurslari yaratish va joriy qilishning pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish, pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishlarida ta'lim sifatini oshirish, pedagog-tarbiyachilar uchun uslubiy qo'llanmalar va tavsiyanomalar tarzida tadbqiqiy material sifatida tavsiya etish mumkin.

Loyihaning ahamiyatliligi "Aqlli bog'cha" konsepsiyasi uchun bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirishning dasturiy ta'minotining yaratilganligi va joriy qilish mexanizmlarini ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi qonun. O'RQ 595-son. 6.12.2019 yil
2. N.N.Djamilova Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga erkin kiziqishlarini shakllantirishning pedagogik jihatlari–2024, № 2 Pedagogika 17-19.b
3. N.N.Djamilova, Sh.T.Xasanova, N.Z.Imamova Сущность проекта «умный детский сад» ориентированной на свободный выбор профессии детьми старшего дошкольного возраста. International scientific and practical conference "Economics, management and digital innovation in education: modern trends and approaches" March 13, 2024 <https://doi.org/10.5281/zenodo.10805386>
4. N.N. Jamilova, Sh.T. Khasanova, N.Z. Imamova Creation of an Innovative Model "Smart Kindergarten", Focused on The Free Choice of Profession by Children in Preschool Educational Organizations. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*,4(12), 184-187. Retrieved from <https://cajotas.centralasianstudies.org/index.php/CAJOTAS/article/view/1388>
- 5.N.N. Jamilova Analysis of the problems of introducing preschool children to professions in foreign countries *European International Journal of Pedagogics* ISSN 2751-000X | SJIF 2024:6.783
- 6.Кондрашов В.П. Введение дошкольников в мир профессий: Учебно-методическое пособие. – Балашов: Изд-во "Николаев", 2004. – 52 с.

OLIIY TA'LIMDA ZAMONAVIY TABAQALASHTIRILGAN O'QITISH JARAYONINI  
TASHKIL ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti professori,  
pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*Email: [samieva-1978@mail.ru](mailto:samieva-1978@mail.ru)*

**Barnoyeva Sevara Uchqun qizi**

*Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

*Email: [barnoyevasevara@gmail.com](mailto:barnoyevasevara@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'limda tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini samarali tashkil etish usullarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, ushbu yo'nalishlarni amalga oshirish oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga, talabalarning bilim olish jarayonini individuallashtirishga, shuningdek, ularning bozor talablariga mos keladigan bilim va ko'nikmalarni egallashlariga xizmat qilishi haqida ilmiy mulohazalar bayon etilgan.

Shuningdek zamonaviy tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonining asosiy xususiyatlarini va ularni samarali amalga oshirish yo'llari haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Individuallashtirilgan o'qitish, Diagnostik baholash, Stajirovkalar, Innovatsion o'quv dasturlari, Modullar va kurslar yangilanishi, Elektron portfellar, Analitik vositalar, Aks ta'sir va mulohazalar.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены методы эффективной организации дифференцированного педагогического процесса в высшей школе и установлены приоритетные направления их реализации, реализация этих направлений позволит повысить качество образования в высших учебных заведениях, индивидуализацию обучения студентов. процесс, а также знания и навыки, соответствующие их рыночным требованиям, представлены научные мнения о важности приобретения навыков.

Также имеются представления об основных особенностях современного дифференцированного учебного процесса и путях их эффективной реализации.

**Ключевые слова:** индивидуализированное обучение, диагностическая оценка, стажировки, инновационная учебная программа, модули и обновления курсов, электронные портфолио, аналитические инструменты, обратная связь и обратная связь.

**Annotation:** In this article, the methods of effectively organizing the differentiated teaching process in higher education and setting the priority directions for their implementation, the implementation of these directions will improve the quality of education in higher education institutions, the individualization of the students' learning process, as well as the knowledge and skills that meet their market requirements. scientific opinions about the importance of acquiring skills are presented.

There are also ideas about the main features of the modern differentiated teaching process and ways of their effective implementation.

**Key words:** Individualized Learning, Diagnostic Assessment, Internships, Innovative Curriculum, Modules and Course Updates, Electronic Portfolios, Analytical Tools, Feedback and Feedback.

**Kirish.** Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish to'g'risidagi PF-4732-son Prezident farmoni aynan oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonlarini takomillashtirishning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an'anaviy ta'lim yo'sini mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi odam biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o'zgarishlardan iborat bo'lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo'yayotgan yoshlar ana shunday o'zgarishlarga ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o'z o'rnini topolmasligi mumkin. Hozirgi kunda ta'lim tizimida boy tajribalar yig'ilgan. Chunonchi, ishbilarmonlik o'yinlari, kompyuterli o'qitish, individuallashtirilgan o'qitish, insonparvarlik, hamkorlik, shaxsni erkin tarbiyalash va h.zo.

Oliy ta'lim sohasida zamonaviy yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etish talabalarning bilim darajasi va ehtiyojlariga ko'ra moslashtirilgan ta'lim imkoniyatlarini yaratadi, bu esa ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Literature review).** Oliy ta'limda zamonaviy tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlarini quyidagilar tashkil etadi va bu yo'nalishlar orqali oliy ta'limda samarali tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etish va sifatni oshirishga erishish mumkin.

**1. Individuallashtirilgan o'qitish:** Talabalar bilim darajasiga va o'zlashtirish qobiliyatlariga mos ravishda o'qitish metodlarini qo'llash. Bu har bir talabaga moslashtirilgan o'qitish rejalarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Individuallashtirilgan o'qitish talabalar orasidagi bilim va ko'nikmalar darajasidagi farqlarni hisobga olgan holda o'qitishni tashkil etishdir. Bu yondashuvning maqsadi har bir talabaning ehtiyojlarini qondirish va o'zlashtirishni maksimal darajada oshirishdir.

- Diagnostik baholash: O'qitish jarayonining boshida talabalarning bilim darajasini baholash orqali ularning individual o'zlashtirish xususiyatlari aniqlanadi.

- Moslashtirilgan o'quv rejasi: Har bir talaba uchun maxsus o'quv rejasi ishlab chiqiladi. Bu

rejada talabaning kuchli va zaif tomonlariga mos ravishda darslar rejalashtiriladi.

- Moslashtirilgan o'quv materiallari: Talabalarning bilim darajasiga mos tarzda o'quv materiallari va resurslar tayyorlanadi.

**2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish:** Raqamli platformalar va onlayn resurslarni o'qitish jarayoniga keng joriy etish. Bu talabalarni masofaviy o'qitish va ularning bilimlarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish raqamli texnologiyalar va onlayn ta'lim vositalarini keng qo'llash zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismidir.

- Onlayn platformalar: Talabalar masofaviy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan virtual platformalar yaratish, masalan, Moodle, Google Classroom kabi vositalarni qo'llash.

- Multimedia resurslari: Videodarslar, interfaol testlar, simulyatorlar va boshqa multimedia resurslari o'quv jarayonini jonlantiradi va tushunishni osonlashtiradi.

- Masofaviy ta'lim: Talabalar internet orqali darslarga qatnashishlari va topshiriqlarni bajarishlari mumkin, bu ayniqsa pandemiya davrida va boshqa favqulodda holatlarda muhimdir.

**3. Interfaol o'qitish metodlari:** O'quv jarayoniga guruh ishlari, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, bahs va munozaralar kiritish orqali talabalarni faollashtirish.

Interfaol usullar talabalarning faolligini oshiradi va ularni ta'lim jarayoniga yanada ko'proq jalb etadi.

- Guruh ishlari: Talabalar kichik guruhlarda muammolarni hal qiladilar, bu esa ularda hamkorlik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Muammoli ta'lim: Talabalar real hayotda duch keladigan vaziyatlarga asoslangan masalalarni hal qilishadi, bu ularni amaliy bilimlarga ega bo'lishga undaydi.

- Bahs va munozaralar: Turli mavzularda bahslar va munozaralar o'tkazish orqali talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etishni va tanqidiy fikrlashni o'rganadilar.

**4. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish:** O'qitish jarayonida talabalar nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlashlari uchun turli loyihalar, amaliy mashg'ulotlar va stajirovkalarni tashkil etish.

O'qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan birlashtirish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

- Amaliy mashg'ulotlar: Darslarda nazariy bilimlar amaliy topshiriqlar bilan mustahkamlanadi.

- Loyihalar: Talabalar mustaqil ravishda yoki guruhda loyihalarni ishlab chiqishadi, bu esa ularning ijodiy va analitik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Stajirovkalar: Talabalar amaliyot davomida o'rgangan nazariy bilimlarni real ish

sharoitida sinab ko'rish imkoniga ega bo'ladilar.

**5. O'qituvchilar malakasini oshirish:** Zamonaviy o'qitish metodikalarini joriy etish uchun o'qituvchilarni muntazam ravishda qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

O'qituvchilar zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodikalarini muntazam ravishda o'rganib, malakasini oshirib borishi kerak.

- Qayta tayyorlash kurslari: O'qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni o'rganishlari uchun maxsus kurslar tashkil etiladi.

- Doimiy o'rganish: O'qituvchilar o'z sohasidagi yangiliklardan xabardor bo'lishlari va ulardan ta'lim jarayonida foydalanishlari uchun doimiy o'rganishga intilishlari kerak.

**6. Innovatsion o'quv dasturlarini joriy etish:** Bozor talablariga mos keladigan yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va mavjud dasturlarni muntazam ravishda yangilab borish.

Bozor va zamon talablariga mos keladigan yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish ta'lim sifatini oshiradi.

- Bozor talabi tahlili: O'quv dasturlari va yo'nalishlari mehnat bozorining real ehtiyojlariga mos kelishi uchun tahlil olib boriladi.

- Modullar va kurslar yangilanishi: O'quv dasturlarida muntazam ravishda yangilanishlar kiritiladi, bu talabalarni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlaydi.

- Talabalar fikri: Talabalar o'quv dasturlari haqidagi fikr-mulohazalari inobatga olinib, dasturlarni yanada yaxshilashga yordam beradi.

**Tahlil va Natijalar (Analysis and Results).** Zamonaviy tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etishning afzalliklari va muammolari chuqurroq ko'rib chiqaylik.

Birinchidan, tabaqalashtirilgan o'qitishning asosiy afzalligi shundaki, u talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga oladi. Bu esa ta'lim jarayonini yanada samarali va moslashuvchan qilish imkonini beradi. Har bir talaba o'zining bilim darajasi, qiziqishlari va o'rganish tezligiga mos ravishda o'quv materialini o'zlashtiradi. Shu bilan birga, modulyar tizim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim olish jarayoni yanada qulay va zamonaviy bo'ladi.

Biroq, bu jarayonni amalga oshirishda ba'zi muammolar ham mavjud. Masalan, talabalarni individual darajada o'qitish uchun katta miqdorda resurs va vaqt talab qilinadi. O'qituvchilarning malakasi va tajribasi ham katta rol o'ynaydi, chunki ular har bir talabaga individual yondashish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun texnik infrastrukturani rivojlantirish zarur.

Yana bir muhim jihat – talabalar va o'qituvchilar o'rtasida o'zaro aloqani saqlab qolishdir. Tabaqalashtirilgan yondashuv o'quv jarayonini individuallashtirsa ham, o'quvchi va o'qituvchi

o'rtasidagi muloqotning kamayishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday qilib, zamonaviy tabaqalashtirilgan o'qitish jarayoni yuqori samaradorlikka ega bo'lsa-da, uning to'g'ri tashkil etilishi va qo'llanilishi uchun yetarli darajada tayyorgarlik, resurs va malakali kadrlar kerak.

Bu yondashuv ta'lim sifatini oshiradi, lekin uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun maqsadli rejalashtirish va tizimli yondashuv talab etiladi.

Zamonaviy tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etish orqali oliy ta'limda yuqori sifatga erishish, talabalarni zamon talablari va kasbiy ehtiyojlarga javob beradigan mutaxassislar sifatida tayyorlash imkoniyati oshadi. Oliy ta'limda zamonaviy tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari haqida quyida batafsil ma'lumot keltirilgan.

Talabalar bilimlarini uzluksiz monitoring qilish va tahlil qilish, talabalarining bilimlarini muntazam ravishda baholab borish o'qitish jarayonining samaradorligini oshiradi va ular o'zlashtirish darajasini kuzatib borish imkonini beradi.

- Davriy baholash: Talabalarining bilimlarini har bir bosqichda baholab borish, ularning rivojlanishini kuzatib borishga imkon beradi.

- Elektron portfellar: Har bir talabaning shaxsiy portfeli yaratiladi, bu portfel orqali ularning bilim va ko'nikmalari, yutuqlari va kamchiliklari kuzatiladi.

- Analitik vositalar: Talabalarining ta'lim jarayonidagi faoliyatini tahlil qilish uchun raqamli vositalardan foydalanish, bu esa o'qitish usullarini yanada moslashtirishga yordam beradi.

Muloqot va fikr almashishni rivojlantirish, o'qituvchi va talabalar o'rtasida muntazam muloqot o'rnatish va fikr almashish samarali o'qitish jarayonining muhim qismidir.

- Aks ta'sir va mulohazalar: Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida o'qitish jarayoni haqida mulohazalar almashish, bu orqali jarayonni takomillashtirish.

- Ochiq muloqot maydonlari: Forumlar, chatlar yoki seminarlar orqali talabalar va o'qituvchilar o'rtasida ochiq muloqotni rag'batlantirish.

- Mentorlik dasturlari: Tajribali o'qituvchilar yoki yuqori kurs talabalari yangi talabalarga yordam berishlari uchun mentorlik tizimini joriy etish.

Ko'p madaniyatli va xalqaro ta'lim tajribasini joriy etish, talabalarni global mehnat bozori talablariga tayyorlash uchun xalqaro ta'lim tajribalarini joriy etish muhimdir.

- Akademik almashinuv dasturlari: Talabalar va o'qituvchilarni xorijdagi oliy o'quv yurtlariga almashinuv dasturlari orqali jo'natish, bu orqali xalqaro tajriba olish.

- Xorijiy o'qituvchilarni jalb qilish: Xorijdan mutaxassislarni o'qitish jarayoniga jalb qilish, bu talabalarni turli madaniyatlar va ta'lim usullari bilan tanishtiradi.

- Xalqaro hamkorlik: Chet eldagi ta'lim muassasalari bilan hamkorlik o'rnatish, qo'shma

ilmiy tadqiqotlar va loyihalarni amalga oshirish.

Soft skills va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish, faoliyatda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni rivojlantirish o'qitish jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir.

- Muammolarni hal qilish qobiliyati: Talabalarga murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va samarali yechimlar topish qobiliyatini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'tkazish.

- Muloqot ko'nikmalari: Og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus darslar va seminarlar tashkil etish.

- Yetakchilik va jamoada ishlash: Talabalarni jamoada ishlash, loyiha boshqarish va yetakchilik qilish ko'nikmalariga o'rgatish.

O'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'qitishni samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish talabalar o'zlashtirish darajasini oshiradi.

- Blended learning (aralash ta'lim): An'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini onlayn ta'lim bilan birlashtirish orqali darslarni o'quvchilarga qulayroq va samaraliroq qilish.

- Flipped classroom (ag'darilgan sinf): Talabalar dars oldidan nazariy materiallarni mustaqil ravishda o'rganib, dars vaqtida faqat amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratiladi.

- Game-based learning (o'yin asosidagi ta'lim): Ta'lim jarayoniga o'quv o'yinlarini kiritish orqali talabalarni qiziqitirish va ularning o'zlashtirishini yaxshilash.

Barqaror rivojlanish maqsadlarini ta'limga integratsiya qilish, ta'lim jarayonida barqaror rivojlanish maqsadlarini hisobga olish bugungi kunda dolzarbdir.

- Ekologik mas'uliyat: Talabalarni atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli bo'lishga o'rgatish, bu mavzuni o'quv dasturlariga kiritish.

- Ijtimoiy adolat va tenglik: Talabalarni ijtimoiy adolat va inson huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalash.

- Barqaror iqtisodiyot: Talabalarni barqaror rivojlanish tamoyillari asosida iqtisodiy faoliyat yuritishga tayyorlash.

Bu yo'nalishlar orqali oliy ta'limda zamonaviy tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etish yanada samaraliroq bo'ladi va talabalarni zamonaviy jamiyatning talablari va ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassislar sifatida tayyorlash mumkin bo'ladi.

**Xulosa va Takliflar (Conclusion/Reccomendation).** Quyidagi yo'nalishlar orqali oliy ta'limda samarali tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etish va sifatni oshirishga erishish mumkin.

- Individuallashtirilgan yondashuv: Talabalar o'rtasidagi bilim va ko'nikmalar farqlari hisobga olinib, ularga individual o'quv dasturlari taklif etish.

- Modulyar tizim: Kurslarni modullar asosida tuzish va talabalar ehtiyojlariga ko'ra ularni tanlash imkoniyatini yaratish.

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanib, onlayn va oflayn rejimda o'qitish imkoniyatlarini kengaytirish.

- Refleksiv ta'lim: Talabalarning o'z-o'zini baholash va ta'lim jarayoniga faol jalb qilishni ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tabaqalashtirilgan o'qitish jarayonini tashkil etish oliy ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv talabalarning individual xususiyatlarini, bilim darajasi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularning o'qish jarayonini yanada samarali va natijador qilishga yordam beradi. O'quv jarayonini individuallashtirish, modulyar tizimdan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash va refleksiv ta'lim metodlarini joriy etish oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridir. Ushbu ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish orqali talabalarning bilim va ko'nikmalarini bozor talablari bilan moslashtirish, ularning akademik va kasbiy muvaffaqiyatiga erishish imkoniyatlari ortadi. Bu esa mamlakatning ta'lim tizimini xalqaro standartlarga muvofiq ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz." - T.: O'zbekiston, 2017.
2. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015. – 150 б.
3. Z. F. Sharopova .,"Educational technologies" T.: "NAVRUZ" Publishing House -2019 p.241
4. Hikmatovna, Samieva Shakhnoz, et al. "Professional Development of the Teacher's Personality in the System of Secondary Special Vocational Education."Annals of the Romanian Society for Cell Biology(2021): 2946-2949.
5. Самиева Ш., НарзуллоеваФ. OLIY TALIMDA STRATEGIK FIKRLASH VA KREATIV BOSHQARISH ASOSIDA TALIMNI TASHKIL ETISHNING MUHIM YONALISHLARI: Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, pedagogika fanlari nomzodi, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti Narzulloyeva Feruza Fatulloyevna, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti mustaqil tadqiqotchisi //Образование И инновационныеисследованиямеждународныйнаучно-методическийжурнал.–2022. – No. 1. –С. 163-177.
6. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.–T.: O'qituvchi, 2004.
7. Sh.Sh.Olimov, Z.D. Hasanova "Application of pedagogical technologies in the educational process" -T.: "Science and Technology" Publishing House-2014; p.119
8. Hikmatovna, S.S., Shuxrataxadovich, R., Sadullaevna, A.S., Taxmina Saidovna, D., Nusratovna, M.Z. "Professional development of the teacher's personality in the system of secondary special vocational education", Annals of the Romanian Society for Cell Biology 25(2), c. 2946-2949, 2021.

## YANGI O'ZBEKISTON TA'LIMIDA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

**Aslanova Nozima Xakimovna**

Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)

nozimaaslanova3gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati va usullari yoritib berilgan. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarga mustaqil fikrlash, dalillarni tahlil qilish va mantiqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Maqola ta'lim beruvchilarga tanqidiy fikrlashni shakllantirishda qo'llaniladigan amaliy usullar taklif qilinadi.

**Kalit so'zlar:** tahlil, tanqidiy fikrlash, zamonaviy, qobiliyat, qaror, xulosa, mantiqiy, dunyo, baholash.

**Annotation.** This article highlights the importance and methods of forming students' critical thinking skills in the educational process. These approaches help students to develop the skills to think independently, analyze evidence, and make logical decisions. The article offers to educators practical methods used in the formation of critical thinking.

**Key words:** analysis, critical thinking, modern, ability, decision, conclusion, logic, world, evaluation.

**Kirish.** Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Tanqidiy fikrlash - bu o'zaro bog'liq masalalarni chuqur tahlil qilish, muammolarni har tomonlama o'rganish va asoslangan turli xulosalar chiqarish qobiliyati hisoblanadi. O'quvchilarda bu ko'nikmalarni rivojlantirishning ahamiyati zamonaviy dunyoda tezkor qarorlar qabul qilish, murakkab vaziyatlarni boshqarish va mantiqiy fikrlash uchun zarurdir.

Tanqidiy fikrlash - axborotni tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyati ekan, bu jarayon kishidan ma'lumotlarni chuqur o'rganishni, ularning ishonchligini tekshirishni, turli manbalar va nuqtai nazarlarni taqqoslashni talab qiladi. Tanqidiy fikrlash shaxsga muammolarni har tomonlama ko'rib chiqish, xatolarni aniqlash va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Tanqidiy fikrlashga oid adabiyotlar turli nazariy va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ular o'quvchilarga chuqurroq va mantiqiy fikrlashni o'rgatishda samarali bo'lib, turli nuqtai nazarlarni o'rganish, dalillarni baholash va asoslangan qarorlar qabul qilish uchun qimmatli ko'nikmalarni taklif etadi. Tanqidiy fikrlash mavzusiga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan turli nazariyalar, metodlar va yondashuvlarni o'rganishga imkon beradi. Jumladan, yunon faylasufi Suqrot (Suqrotona savol-javob), Richard Paul va Linda Elderlarning "Critical Thinking: Tools for

Taking Charge of Your Learning and Your Life" asari tanqidiy fikrlashning asosiy tushunchalari va metodlarini o'rganish uchun juda muhim ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan qo'llanma hisoblanadi. Mualliflar tanqidiy fikrlashni hayotning barcha jabhalarida qo'llash mumkin bo'lgan amaliy ko'nikma sifatida tasvirlashadi. Kitobda tanqidiy fikrlashning muhim jihatlari, jumladan, mantiqiy tahlil, dalillarni baholash va qaror qabul qilish jarayonlari keng yoritilgan. John Dewey o'zining "How We Think" asarida tanqidiy fikrlashni ta'limda markaziy element sifatida tasvirlaydi va bu ko'nikmalarni shakllantirishning zarurligini ta'kidlaydi. U tanqidiy fikrlashni o'ziga xos tafakkur jarayoni sifatida ko'rib chiqadi. Edward de Bono o'zining "Six Thinking Hats" asarida tanqidiy fikrlash jarayonini soddalashtirish va turli burchaklardan yondashish uchun "olti shlyapa" texnikasini taklif qiladi. Har bir shlyapa o'ziga xos fikrlash uslubini ifodalashi, bu esa muammolarni har tomonlama ko'rib chiqishga yordam berishi ko'zda tutiladi. Kitob pedagoglar va mutaxassislar tomonidan o'quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirishda keng qo'llaniladi.

**Natijalar.** Tanqidiy fikrlash ko'nikmasi kundalik hayotda, mehnat faoliyatida, qolaversa, ta'limda muhim hisoblanadi, chunki u insonni faktlar va dalillarga asoslanib, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Tanqidiy fikrlash odatda quyidagi qobiliyatlarni o'z ichiga oladi:

Axborotni tahlil qilish: Ma'lumotlarni sinchkovlik bilan o'rganish va ularning ahamiyatini aniqlash.

Dalillarni baholash: Dalillar va ma'lumotlarning ishonchliligini, mosligini va dolzarbligini aniqlash.

Xulosa chiqarish: Tahlil natijalariga asoslangan holda mantiqiy xulosalar chiqarish.

Muammolarni hal qilish: Tanqidiy fikrlash orqali muammolarni samarali va ijodiy yondashuv bilan hal qilish.

Tanqidiy fikrlash shaxsga ko'r-ko'rona ma'lumot qabul qilish o'rniga, har qanday vaziyatga chuqurroq yondashish, har bir fikrga o'z nuqtai nazari bilan qarash va o'z fikrini mustaqil shakllantirish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga to'g'ri va adolatli qarorlar qabul qilishga, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishga, har bir ma'lumotning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

Savol-javob usuli: O'quvchilarni turli mavzular bo'yicha ochiq va murakkab savol-javoblar bilan shug'ullantirish ularni o'z fikrlarini asoslash va dalillar keltirishga undaydi.

Yunon faylasufi Suqrot tomonidan taklif etilgan savol-javob usulining asosiy maqsadi ta'lim oluvchilarga yoki suhbatdoshga savollar berish orqali bilimlarni chuqurlashtirish va shaxsiy

fikrlarni shakllantirishga yordam berishdir. Suqrot usuli tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va mavzuni chuqurroq tushunishga erishish uchun qo'llaniladi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

**Savollar orqali o'rganish:** Suqrot o'z suhbatdoshlariga to'g'ridan-to'g'ri bilim berish o'rniga, ularga savollar berib, o'z bilimlarini mustaqil ravishda aniqlashga undagan. Savollar yordamida suhbatdoshni o'ylashga, o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga va yangi xulosalar chiqarishga undaydi.

**Fikrlarning tahlili va qayta ko'rib chiqilishi:** Suqrot savollar orqali suhbatdoshning fikrlarini tahlil qiladigan vaziyatni yaratadi. O'quvchilar o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqishga, dalillarni tahlil qilishga va turli xil nuqtai nazarlar bo'yicha o'ylashga majbur bo'lishadi.

**Dialog asosida ta'lim:** Suqrotona usuli monolog emas, balki dialogdan iborat. Bu jarayonda barcha ishtirokchilar faol bo'lishi kerak. Suqrot savollari orqali suhbatdoshni o'z bilimlari va e'tiqodlarini chuqurroq anglashga va ularni izohlashga jalb qiladi. Tanqidiy fikrlash jarayoni yanada jadallashadi.

**Ziddiyatlarni aniqlash:** Suqrot beradigan savollar ko'pincha suhbatdoshning fikrlari yoki e'tiqodlaridagi ziddiyatlarni aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Bu ziddiyatlar orqali suhbatdoshni o'ylashga va o'z nuqtai nazarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi.

**Suqrotona savol-javob usulini ta'limda qo'llash:**

**O'qituvchi:** O'qituvchi o'quvchilarga turli savollar berib, ularni mustaqil o'ylashga undaydi. Masalan, muayyan mavzu bo'yicha "Nima uchun bu muhim?", "Bu masala sizning fikringizcha qanday hal qilinishi kerak?", "Nega siz bu fikrga qo'shilasiz?" kabi savollar beriladi.

**O'quvchi:** O'quvchilar savollarga javob berish orqali o'z fikrlarini shakllantiradilar, o'ylaydilar va o'z pozitsiyalarini himoya qilishga harakat qiladilar. Bu jarayonda o'quvchilar o'z fikrlash uslublarini rivojlantiradilar va mavzuni chuqurroq o'rganadilar.

**Mavhum tushunchalarni o'rganish:** Suqrotona usul yordamida o'qituvchi murakkab yoki mavhum tushunchalarni oddiy savollar yordamida o'rganib chiqadi. Bu o'quvchilarga murakkab tushunchalarni chuqurroq tushunishga va ularga tanqidiy yondashishga yordam beradi.

Suqrotona savol-javob usuli tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va ularni o'z fikrlarini shakllantirishga undash uchun samarali usuldir. Bu yondashuv yordamida o'quvchilar murakkab masalalarni chuqurroq tahlil qilishni, fikrlarni mantiqiy tartibga solishni va dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

**Loyihaviy ta'lim:** O'quvchilarni loyihaviy ishlar orqali mustaqil izlanishga, axborotni yig'ish va tahlil qilishga, qandaydir muammoni hamkorlikdagi optimal yechimini topishga yo'naltirish tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yordam beradi.

**Muhokama.** Mutolaa (o'qish) tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ajoyib vositadir. Kitoblar va boshqa matnlarni o'qish orqali o'quvchi turli g'oyalar, fikrlar, masala va muammolar bilan tanishadi, bu esa o'quvchida fikrlash qobiliyatini kengaytiradi. Mutolaa vositasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish usullari quyidagilardan iborat:

**O'qish savodxonligi yoki darsdan tashqari badiiy adabiyot mutolaasidan so'ng,** "Nima uchun bu muhim?", "Muallif nimani nazarda tutgan?" kabi savollarni o'zingizga berish. Bu savollar o'qilgan matnni tahlil qilishga va muallifning fikrlash uslubini tushunishga yordam beradi.

**Muallifning maqsadini aniqlash:** Muallif nima sababdan bu mavzuni tanlaganini va qanday g'oyalarni yetkazmoqchi ekanini aniqlashga harakat qilish.

**Turli nuqtai nazarlarni o'rganish:** Bir mavzuda turli mualliflar tomonidan yozilgan asarlarni mutolaa qilish orqali bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni solishtirish va tahlil qilish. Bu o'quvchini masalaga har tomonlama qarashga o'rgatadi.

**Asar haqida yozma fikr bildirish:** O'qilgan asar haqida insho yozish, uni tahlil qilish yoki muhokama qilish tanqidiy fikrlashni kuchaytiradi. Yozish orqali fikrlar tartibga solinib, ular mustahkamlanadi.

**Munosabat bildirish va bahs-munozaralar tashkil qilish:** Bahs va munozaralar o'quvchilarni turli nuqtai nazarlarni o'rganishga va o'z fikrlarini himoya qilish, ekspert sifatida masalalarni turli nuqtai nazardan baholashga o'rgatadi.

**Muammoni yechish va tahlil qilish vazifalari:** O'quvchilarga real hayotdagi muammolarni yechish topshirig'ini berish orqali ularni tahliliy va tanqidiy yondashishga o'rgatish samarali usul hisoblanadi.

O'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini oshirishga, shuningdek, ularga kelajakda ijodiy va innovatsion yondashuvlarni qo'llashda yordam beradi. Bu ko'nikmalar ularni zamonaviy jamiyatda raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantiradi va murakkab vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

**Xulosa.** Ta'limda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'limning muhim qismi hisoblanadi. O'qituvchilar va ta'lim muassasalari bu ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bu esa o'quvchilarni nafaqat bilimli, balki mantiqiy fikrlovchi, ijodiy va mustaqil shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mutolaa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Bu jarayon o'qilgan matnlarni chuqur tahlil qilish, turli nuqtai nazarlarni o'rganish va o'z fikringizni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish uchun muntazam ravishda o'qish, mushohada qilish, muhokamalar, o'ylash va bahs qilish kerak. Bu

nafaqat o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, balki ularni yanada chuqur va mantiqiy fikrlovchi shaxsga aylantiradi.

O'quvchilar bilan olib boriladigan tanqidiy fikrlashga oid ishlar turli nazariy va amaliy yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ular o'quvchilarga chuqurroq va mantiqiy fikrlashni o'rgatishda samarali bo'lib, turli nuqtai nazarlarni o'rganish, dalillarni baholash va asoslangan qarorlar qabul qilish uchun qimmatli ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi. Dras jarayonida olib boriladigan metodik ishlar, tavsiyalar, interfaol mashqlar va qo'llanmalar pedagoglar va mutaxassislar uchun tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim resurs hisoblanadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Richard Paul va Linda Elder. (2022) "Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life".
2. John Dewey. "How We Think" (<https://bef632.files.wordpress.com/2015/09/dewey-how-we-think.pdf>)
3. Эдвард де Бонно. (1992) Serious Creativity: Using the Power of Lateral Thinking to Create New Ideas
4. Daniel Kahneman (2011). Thinking, Fast and Slow. Macmillan. ISBN 978-1-4299-6935-2 Retrieved April 8, 2012.

## **BO'LG'USI TARBIYACHILARDA PEDAGOGIK ETIKETNI SHAKLLANTIRISH-IJTIMOIIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING OMILI SIFATIDA**

**Ermatova Gulnoz Pirimovna**

**NavDU, Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti**

*ermatovagulnoz571@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yo'nalishlari talabalarda maktabgacha ta'lim tizimi pedagog xodimlarida kasbiy majburiyatlarini bajarish qoidalari, kasbiy standart, mahoratli pedagog, pedagogik etiket, boshqaruv etiketini, professionalizm, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlar, chuqur kasbiy bilimlarni, zaruriy kasbiy kompetensiyalarni, strategik boshqaruv, fundamental integrallashgan bilimlar, umumlashtirilgan ko'nikmalar, pedagogik qobiliyatlar, shaxsiy va kasbiy muhim fazilatlar, madaniyatli va mahoratli, o'z-o'zini doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilgan harakatlarni shakllantirish, kasbiylikni baholovchi mezonlar: obyektiv mezonlar, subyektiv mezonlar, samarali mezonlar pedagogning kasbiy mahorati jamiyatning ijtimoiy va pedagogik talablariga javob beradigan muayyan ta'lim tizimini aks ettiruvchi o'zaro bog'liq bo'lgan turli xil tarkibiy qismlarning o'ziga xos xususiyatlari pedagogik etiket haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogning kasbiy mahorati, umumiy madaniyat darajasi, psixologik va pedagogik kompetensiya, maqsadlarni belgilash, maqsadlarga erishish qobiliyati, pedagogik fikrlash qobiliyati, ta’lim sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются направления дошкольного образования учащихся, правила выполнения профессиональных обязанностей педагогических кадров системы дошкольного образования, профессиональные стандарты, квалифицированные педагоги, педагогический этикет, управленческий этикет, профессионализм, высокие интеллектуальные способности и моральные качества, глубокие профессиональные знания, необходимые профессиональные компетенции, стратегический менеджмент, фундаментальные интегрированные знания, обобщенные умения, педагогические навыки, важные личностные и профессиональные качества, культурный и умелый, формирование действий, направленных на постоянное самосовершенствование, критерии оценки профессионализма: объективные критерии, субъективные критерии Выделены эффективные критерии информации о педагогическом этикете, особенности различных взаимосвязанных компонентов, которые отражают определенную систему образования, в которой профессиональные навыки педагога соответствуют социальным и педагогическим требованиям общества.

**Ключевые слова:** Профессиональное мастерство учителя, уровень общей культуры, психолого-педагогическая компетентность, постановка целей, умение достигать целей, способность педагогического мышления, способность осуществлять инновационную деятельность в сфере образования.

**Annotation:** This article discusses the areas of preschool education for students, the rules for fulfilling the professional duties of teaching staff in the preschool education system, professional standards, qualified teachers, pedagogical etiquette, management etiquette, professionalism, high intellectual abilities and moral qualities, deep professional knowledge, necessary professional competencies, strategic management, fundamental integrated knowledge, generalized skills, pedagogical skills, important personal and professional qualities, cultural and skillful, formation of actions aimed at constant self-improvement, criteria for assessing professionalism: objective criteria, subjective criteria Effective criteria for information about pedagogical etiquette, features of various interrelated components are identified, which reflect a specific education system in which the professional skills of a teacher correspond to the social and pedagogical requirements of society.

**Key words:** Professional skills of a teacher, level of general culture, psychological and pedagogical competence, goal setting, ability to achieve goals, ability of pedagogical thinking, ability to carry out innovative activities in the field of education.

**Kirish.** Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimiga va uning sifat va samaradorligiga alohida e’tibor qaratish dolzarb masalalardan biridir. Maktabgacha ta’lim tizimlarda rivojlantirish eng avvalo maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqaruv va mahoratli pedagog kadrlarni tayyorlash darajasi bilan bog‘liq hisoblanadi.

Bizga ma’limki, ushbu sohada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Aynan, “Maktabgacha ta’lim” bakalavriat ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim muassasalariga

kunduzgi, sirtqi, kechki qabul qilish kvotalari oshirildi va magistratura yo‘nalishida ham talabalarni o‘qish ishlari amalga oshirilmoqda hamda zamonaviy va pedagogik texnologiyalar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni shakllantirilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Oliy ta‘lim muassasalarida maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga, boshqaruvga tayyorlash va ularda kasbiy mahorat hamda etiketni shakllantirish ta‘lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Chunki bo‘lg‘usi maktabgacha ta‘lim xodimlari pedagogik etiket qoidalarini bilishlari bugungi kunda o‘ta muhimdir. Bu xususda “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasida ham pedagogning etika qoidalari uning o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishi jarayonida amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalar majmuidan iborat ekanligi va ularni bajarish sifat ko‘rsatkichlarni hamda pedagogning mehnat intizomini belgilaydigan mezon ekanligi hamda buqoidalarning buzilishi intizomiy javobgarlikka tortilishi uchun asos bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan[1].

Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasidaham maktabgacha ta‘lim tizimi xodimlariga qo‘yiladigan malaka talablarini yanada takomillashtirish, ularning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini hamda pedagog xodimlarning kasbiy standartini ishlab chiqish va tasdiqlash, o‘zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta‘minlaydigan kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlariga zaruriy kasbiy kompetensiyalar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan talablarni belgilash, sertifikatlash tizimini joriy etish hamda strategik boshqaruv, moliyaviy va NR-menejment asoslarini majburiy joriy etgan holda, maktabgacha ta‘lim tizimida boshqaruv kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari ko‘rsatib berilgan[2].

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti pedagoglarida kasbiy etiketni shakllantirish bu etika ya‘ni axloqlilikni shakllantirish bilan bog‘liqdir. Axloq so‘zi aslida, lotincha “maralis” so‘zidan kelib chiqib “axloqli” degan ma‘noni anglatadi. Insonlarning axloqliligi ularning ijtimoiy - siyosiy va huquqiy faoliyatda, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar: ularning xulq atvori, yurish – turishi, adolat, sadoqat, burch, baxt kabi munosabatlarini o‘z ichiga oladi. Shunday kelib chiqqan holda, jamiyatning ko‘p qirrali va murakkab axloqiy hayotini aks ettiruvchi “axloq” tushunchasini kategoriya sifatida quyidagicha ta‘riflash mumkin.

- umuminsoniy madaniyatning inson tabiiy xislatlarini o‘zganrtiruvchi faoliyat shaklidagi tarkibiy qismi;
- jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma‘naviy-

ijtimoiy omil asoslaridan biri;

➤ kishilarning ichki tuyg'ularini, hissiyotlarini takomillashtirib, umuminsoniy moddiy va ma'naviy qadriyatlarni anglab yetish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo'llaridan eng afzali;

➤ axloqshunoslik - insonlarga axloq-odob, burch, qadr-qimmatni shunchaki aks ettirmaydi, balki ularni tanqidiy baholaydi, tahlil etadi[8].

Kasbiy etiket esa bevosita bir qancha kasbimiz bilan bog'liq ma'naviy, milliy, madaniy va kasbiy xulq atvorimiz bilan bog'liq. Buni olimlarimiz ham quyidagicha talqin etishgan. Professional etika bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan Leandro Valente o'zining "Etiketning oltin qoidasi" asarida quyidagilarni keltiradi:

**Birinchi qoida:** har doim yaxshi narsalarga qarab intilish kerak. Yaxshilik deganda, yaxshi faoliyat, jamoat va rahbar tasarrufida siz haqingizda yaxshi taasurol qoldirish.

**Ikkinchi qoida:** sadoqat bilan ish olib boorish, chin dildan kehnat qilish. Har sohaning mas'uliyati bor, unga amal qilish zarur.

**Uchinchi qoida:** kasbdoshlar orasida o'zaro hurmat va ishonch qozonish, bir-biriga do'stona va yaxshi muomalada bo'lish. Jamoani va o'z-o'zini hurmat qilish har bir mutaxassis uchun kerak.

**To'rtinchi qoida:** kasbdoshlaringiz bilan do'stona munosabatda bo'ling.

**Beshinchi qoida:** haqqoniy, adolatli bo'lish - har bir insonning ma'naviy aspekti. Bu xususiyatni ish jarayonida har bir insonda ijobiy jihatlarini namoyon bo'lishida kuzatish mumkin.

**Oltinchi qoida:** bilimli, hissiyotli, xulq atvorli bo'lish va boshqalarga namuna bo'lish ish jarayonining eng yaxshi xislatlaridan biridir.

**Yettinchi qoida:** har bir inson odob-axloqli va namunali xulqli bo'lishi, etiket qoidalariga amal qilishi doimo kerak.

**Sakkizinchi qoida:** har doim har bir inson saxiy, ko'ngli toza, shahsiy hayotda xushxulqli bag'rikeng bo'lishi talab qilinadi.

**To'qqizinchi qoida:** har qanday axborotni (sirni) har bir inson saqlay bilishi, shundagina jamoa oldida hurmat qozonishi va karyeraga ega bo'lishi va jamoat oldida katta hurmat qozonishi lozim.

**O'ninchi qoida:** barchaga siz yaxshi xulq-atvoringiz va kasbiy mahoratingiz bilan namuna bo'lishingiz zarur[9].

Etiket axloqiy madaniyatning yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishlaridan biri sifatida ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-

qoidalarining bajarilishini boshqaradi.

Mutafakkirlarimizdan biri Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniyyohud javonmardlik tariqati” nomli asarida professional etika va turli kasb egalari kasbiy odobi haqida: «Bilgilkim, hamma kasblarga birday taalluqli qisqacha qoida-adablar mavjud, shuningdek, har bir kasb uchun alohida odob ham bor. Agar barcha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosasi nechta, deb so‘rasalar, sakkizta deb aytgil:

**birinchidan**, o‘z kasbini haromdan, shubhali mol-mablag‘dan pok saqlasin;

**ikkinchidan**, rizq-ro‘zi zarurati uchungina kerakli kasb bilan shug‘ullansin, kasbni molidunyo to‘plashga sarflamasin;

**uchinchidan**, kasbni obro‘ olish, yaxshi nom chiqarishning sababi, deb bilsin;

**to‘rtinchidan**, moli harom odamlar (amaldorlar, poraxo‘rlar, qaroqchilar, o‘g‘rilar, qimorbozlar, kazzob do‘kondorlar) bilan muomala qilmasin...»<sup>1</sup>.

Olim sotuvchi odobi, xaridor odobi, xodimlar (xizmatkorlar) odobi, maddohlar odobi singari masalalarda ham xuddi shunday asosli fikrlar bildiradi. Maktabgacha ta‘lim sohasi mutaxassislarining kasbiy mahorati ularga qo‘yiladigan talablarni professionallik tushunchasi bilan tushuntirish mumkin. Profesionallik tushunchasi har bir sohada mavjud bo‘lib, bu kasbiylik shu sohani muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyatlari yig‘indisi hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Pedagogning kasbiy mahorati jamiyatning ijtimoiy tartibiga javob beradigan muayyan ta‘lim tizimini aks ettiruvchi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turli xil tarkibiy qismlarning o‘ziga xos xususiyatidir. Pedagogning kasbiy mahoratning tarkibiy qismlari quyidagilar:




- umumiy madaniyat darajasi;
- psixologik va pedagogik kompetentsiya;
- maqsadlarni belgilash va maqsadlarga erishish qobiliyati;
- pedagogik fikrlash qobiliyati;
- ta‘lim sohasida innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati.

Pedagogning kasbiy mahorati murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p qirrali xususiyatini ifodalovchi, jamiyat tartibiga mos keladigan va o‘z o‘rniga ega bo‘lgan pedagogik kadrlar tayyorlashga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik hodisadir.

Kasbiy mahoratga ega bo‘lgan pedagog deganda - bu fundamental integrallashgan bilimlar, umumlashtirilgan ko‘nikmalar, pedagogik qobiliyatlar, shaxsiy va kasbiy muhim fazilatlar,

madaniyatli va mahoratli, o‘z-o‘zini doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilgan harakatlar to‘plamini o‘z ichiga olgan sifatlardir.

Pedagog faoliyatining uchta asosiy jihati quyidagilar hisoblanadi:

 <b>Shaxs</b>	 <b>Pedagogik faoliyat</b>	 <b>Pedagogik muloqot</b>
<b>Pedagogning shaxsiyati</b> uning pedagogik faoliyat va pedagogik muloqotdagi kasbiy pozitsiyasini belgilaydi.	<b>Pedagogik faoliyat</b> - pedagog ishining “texnologiyasi”, pedagogik muloqot - bu ishning iqlimi va muhiti, shaxsiyat - bu qadriyatlar, ideallar, ichki ma'nolari pedagogning ishi.	<b>Kasbiy kompetensiya</b> bu pedagog faoliyatida ushbu uch jihatning barchasini shakllantirishni nazarda tutadi.

**Pedagog faoliyatining har bir jihati quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:**

Kasbiy psixologik-pedagogik bilimlar	<b>Pedagogning kasbiy bilimi</b> - pedagogika va psixologiya fanlaridan pedagog mehnatining mohiyati, pedagogik faoliyat va muloqot xususiyatlari, pedagogning shaxsiyati, bolalarning aqliy rivojlanishi, ularning yosh xususiyatlari va boshqalar haqida ma'lumotdir. Kasbiy bilimlarda pedagog chiniqadi. Uning shaxsiy kasbiy rivojlanishi uchun ushbu bilimlar shartdir.
Kasbiy pedagogik mahorat	<b>Pedagogik mahorat</b> -bu pedagogning pedagogik harakatlari (ta'sirlari). Boshqa barcha malakalar kabi pedagogik mahorat ham yetarlicha yuqori darajada bajariladigan harakatlardir. Pedagogik mahorat o'qituvchi faoliyatida “texnika”ni shakllantiradi.
Kasbiy psixologik-pedagogik bilimlar	<b>Professional psixologik pog'onalar</b> - bu pedagogning (talabaga, o'ziga, hamkasblariga)

	munosabatlarining barqaror tizimi bo‘lib, uning xatti-harakatlarini belgilaydi. Kasbiy mavqe, shuningdek, kasbiy o‘zini o‘zi qadrlash, pedagogning kasbiy intilishlari darajasini, o‘zi egallagan maktabdagi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rniga munosabatini va da’vosini ifodalaydi.
Kasbiy psixologik pozitsiyalar, pedagog munosabatlari	Kasbiy pog‘ona pedagogning motivatsiyasi, o‘z ishining ma’nosini anglash bilan chambarchas bog‘liq.
Pedagogning kasbiy bilim va ko‘nikmalarni egallashini ta’minlaydigan shaxsiy xususiyatlar	Intiliuvchalik, mehnatsevarlik, qiziqish, ijorkorlik, o‘z sohasi bo‘yicha yangiliklarni bilishga intilish, sohasi bo‘yicha ilg‘or tajribalar bilan tanishiob borish.

Insonning kasbiy mahorati nafaqat yuqori kasbiy natijalarga erishish, nafaqat mehnat unumdorligi, balki psixologik komponentlarning mavjudligi - insonning mehnatga bo‘lgan ichki munosabati, uning aqliy fazilatlar holatidir. Shuning uchun professionallikda ikki tomon ajralib turadi: davlat motivatsion shaxsning kasbiy faoliyati sohalar (odamni qanday motivlar rag‘batlantiradi, uning hayotidagi kasbiy faoliyatning ma’nosi nimada, shaxsan u qanday maqsadlarga erishishga intiladi, ishdan qanchalik mamnun va hokazo) va davlat operativ shaxsning kasbiy faoliyati sohalar (u qanday qilib, qanday usullar bilan qo‘yilgan maqsadlarga erishadi, qanday texnologiyalardan foydalanadi, qanday vositalar - bilim, aqliy operatsiyalar, qobiliyatlar).

Kasbiylikni baholash uchun bitta emas, balki bir guruh mezonlardan (samarali va protsessual, obyektiv va subyektiv, sifat va miqdor va boshqalar) foydalanish kerak.

**1. Obyektiv mezonlar:** insonning kasb talablariga qanchalik mos kelishi, ijtimoiy amaliyotga sezilarli hissa qo‘shishidir. Pedagog faoliyatida uning ta‘lim tizimi talablariga, o‘quvchilar oilasining ehtiyojlariga mos ravishda o‘qitish va tarbiyalash muammolarini muvaffaqiyatli hal eta olishi obyektiv mezon bo‘lishi mumkin.

**2. Subyektiv mezonlar:** kasbning inson talablariga qanchalik mos kelishi, uning motivlari, mayllari, kasbi bo‘yicha mehnatdan qanchalik mamnunligidir. Pedagog faoliyatida kasbiy mahoratning subyektiv mezoni barqaror kasbiy-pedagogik yo‘nalish, kasbning ahamiyatini tushunish, uning qadriyat yo‘nalishlari, shaxsning zarur kasbiy va psixologik fazilatlarini to‘plami, o‘ziga nisbatan ijobiy munosabat bo‘lishi mumkin.

Professional va shaxsiy deformatsiyalarning yoʻqligi. Pedagog yuqori ishdagi muvaffaqiyat va oʻz kasbida qolishga boʻlgan ichki istak uygʻunligi bilan ajralib turadi.

**3. Samarali mezonlar:** inson oʻz ishida bugungi kunda jamiyat xohlagan natijalarga erishadimi yoki yoʻqmi.

Pedagog mehnati natijalarini tushunishda bir nechta nuqtai nazar mavjud. Baʼzilar faqat taʼlim oluvchilarning bilimlari natijasini, bilimlarning taʼlim standartlariga muvofiqligini hisobga olishga moyil, boshqalari ularning qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligini taʼkidlaydilar, boshqalari pedagogning ishining natijasi keyingi ijtimoiy hayotga moslashishi deb hisoblashadi. Hayoti va boshqalar koʻpincha pedagogik faoliyatning asosiy natijasi oʻquvchilarning taʼlim yutuqlari darajasidir.

**4. Protsessual mezonlar:** Inson oʻz natijalariga erishish uchun ijtimoiy maqbul usullar, texnikalar, texnologiyalardan foydalanadimi. Masalan, oʻqituvchining boshqa, yetuk shaxs ruhiyati bilan shugʻullanuvchi faoliyatida protsessual mezonlarning oʻrni ayniqsa katta. Protsessual mezonlarga uning ishining psixologik jarayonini tavsiflovchi barcha narsalar kiradi. Pedagog qanday ishlagan, u qanday kasbiy bilim va koʻnikmalar, texnikalar, usullar, texnologiyalardan foydalanganligi, shuningdek mehnat jarayonida qanday shaxsiy aqliy fazilatlardan foydalanganligi (masalan, pedagogik). Fikrlash, pedagogik empatiya, boshqa shaxsning oʻxshashligiga toqat qilish va undan oldin.), talabalar va pedagoglarning xarajatlari va vaqti koʻrinishidagi natijaning psixologik qiymati qanday va hokazo. Samarali va protsessual koʻrsatkichlarning kombinatsiyasi professionallikning zaruriy xususiyatidir.

**5. Meʼyoriy mezonlar:** shaxs kasb meʼyorlari, qoidalari va meʼyorlarini oʻzlashtirganmi va u kasbning yuksak talablarini mahorat darajasida takrorlay oladimi. Pedagogning kasb meʼyorlarini, unda nimalar toʻplanganini, yaʼni: fanda ishlab chiqilgan va amaliyotda sinovdan oʻtgan oʻqitish va tarbiyaning uslubiy texnikasi, vositalari, shakllarini oʻzlashtirishi muhim ahamiyatga ega. Pedagogning ishida, boshqa kasblarda boʻlgani kabi, muloqotning maʼlum normalari (muloqot qilish odatiy holdir), shaxsni rivojlantirish normalari mavjud. Ushbu mehnat namunalari yaxshi darajada koʻpaytirish pedagogning mahoratidir.

**6. Individual-variativ mezonlar:** inson oʻz ishini individuallashtirishga, undagi shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga, mehnatda oʻziga xosligini koʻrsatishga, kasb orqali oʻzini rivojlantirishga intiladi. Shunday qilib, bugungi kunda pedagogda ular oʻziga xoslikni, individuallikni, oʻziga xoslikni, individual uslubning mavjudligini, atrofdagi voqelikka qarashning oʻziga xosligini har qachongidan ham koʻproq qadrlaydilar. Pedagog faoliyatida pedagogik ishda meʼyorlarni oʻzlashtirish va shu bilan birga ularni amalga oshirishga

individuallikni olib kirish qobiliyatining uyg'unligi kasbiy mahoratning muhim jihati hisoblanadi.

**7. Kasbiy ta'lim mezonlari:** inson boshqa odamlarning kasbiy tajribasini qabul qilishga tayyormi, u kasbiy ochiqlikni namoyon qiladimi. Pedagog kasbiy tayyorgarlikka ochiq bo'lishi, kasbda to'plangan barcha yangi narsalarni o'zlashtirishi kerak. Rivojlanishga yopiqlik ("bizga buni o'qituvchilar tayyorlash maktabida o'rgatilmagan") past professionallik belgisidir.

**8. Ijodiy mezon:** inson o'z kasbi doirasidan chiqishga intiladimi, tajribasini o'zgartiradimi, o'zining shaxsiy ijodiy hissasi bilan kasbni boyitadimi? Pedagogning ijodiy e'tiborga ega bo'lishi va o'z topilmalarini taklif qilishi muhimdir, agar ular o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga hissa qo'shsa va guruhda va maktabda qulay psixologik muhitni saqlab qolsa. Kasbiy ochiqlik, o'rganish va mustaqil ijodiy izlanishlarning uyg'unligi professionallikni tavsiflash uchun muhimdir.

**9. Ijtimoiy faollik va kasbning jamiyatdagi raqobatbardoshligi mezonlari:** shaxs o'z mehnati natijalari bilan jamiyatni qiziqitira oladimi, ichki kasbiy nazorat o'chog'i bilan o'z kasbining dolzarb ehtiyojlariga e'tiborni qarata oladimi? kasb samaradorligining pastligi sabablarini ichkarida, kasbning o'zida izlash. Bugungi kunda pedagog uchun jamiyatni o'z mehnati natijalarining muhimligiga ishonitirish, o'z ish uslublari va shakllarining afzalliklarini ko'rsatib, ta'lim xizmatlari bozorida raqobatdosh munosabatlarga kirisha olishi muhim ahamiyatga ega.

**10. Kasbiy sadoqat mezonlari:** kasb sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qila oladigan, uning jamiyatga qo'shgan o'ziga xos hissasini ko'ra oladigan shaxs.

**11. Sifat va miqdoriy mezonlar:** har qanday mutaxassis, shu jumladan pedagog uchun ham uning kasbiy mahoratini sifat ko'rsatkichlari (masalan, bilimlarning chuqurligi, izchilligi, o'quv faoliyatining shakllanishi, o'quvchilarning aqliy operatsiyalari) bo'yicha ham baholash muhim ahamiyatga ega. Miqdoriy ko'rsatkichlarda (reytingdagi ballar, toifalar va boshqalar), chunki miqdoriy ko'rsatkichlar ma'lum bir taqqoslash imkoniyatini beradi. Garchi ularning rolini bo'rttirib bo'lmaydi. Pedagog uchun professional testlarda ishtirok etishdan qo'rqmaslik muhim ahamiyatga ega, uning natijasi uning kasbiy mahoratini differentsial (sifat va miqdoriy) baholashdir.

Pedagoglarning kasbiy etiket qoidalari - odobga, odob - xushxulqqa, xushhulq - axloqlikka olib boradi. Binobarin, axloq - jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega bo'lib, shaxs va ziyoli inson sifatida namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy taraqqiyot bo'lib, jamiyat rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois etiketni bugungi kunga kelib texnika asrida zamon talablariga javob

beradigan madaniy maishiy hayotimizni va o‘zaro munosabatlar tizimini madaniylashtirishga xizmat qiluvchi asosiy mezondir.

**Xulosa.** Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, bo‘lg‘usi kasb sohiblari quyidagilarga ega bo‘lishlari lozim:

- ta‘lim va tarbiya muammolarini muvaffaqiyatli hal qila olishlari, kasbiy shaxsiy fazilatlar, bilim va ko‘nikmalarning zarur darajasiga ega bo‘lish;
- kasbga shaxsan ishlashga moyil bo‘lishi;
- shaxsini rivojlantirishda bugungi kunda jamiyat kutayotgan natijalarga erishishi;
- demokratik jamiyatda maqbul usullar va texnologiyalardan foydalana olishi;
- kasb me‘yorlarini o‘zlashtirib, unda mahoratga va shu bilan birga o‘z ishini individuallashtirishga, kasb vositasida o‘z individualligini ongli ravishda rivojlantira olishi;
- uzluksiz kasbiy ta‘limga, tajriba to‘plashga, o‘zgartirishga ochiq, shu bilan birga shaxsiy ijodiy hissasi orqali kasbiy tajribasini boyitishi;
- jamiyatda ijtimoiy faol, kasb doirasidagi muammolarni hal qilish uchun zahiralarni izlashi, ta‘lim xizmatlarining raqobatbardoshligi sharoitlariga tayyor bo‘lishi;
- pedagoglik kasbga sadoqatli, og‘ir sharoitlarda ham uning sha‘ni va qadr-qimmatini, kasbiy odob-axloq qoidalarini saqlashga intilishi;
- o‘z ishini sifat va miqdoriy baholashga tayyor bo‘lishi, tabaqalashtirilgan baholashga kasbiy testlarda xotirjam ishtirok eta olishi lozim.

Bu kasbiy sifatlar etiketini shakllantirish uchun biz oliy ta‘lim muassasalarida har bir yo‘nalish uchun kasbiy etiket fanining o‘quv rejaga kiritishimiz va 1-kursda umumiy etiket, 2-kursda professional etiket, 3-kursda boshqaruv etiketini fan sifatida o‘qitishimiz maqsadga muvofiq bo‘lardi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni, 2024-yil 1-fevral, O‘RQ-901-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312 T-2019 yil. 8-may.
3. Axloq - odobga oid hadis namunalari. - T. “Fan” 1990.
4. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir. Yangi asr avlodi, - Toshkent, 2003.
5. Kaykovus. Qobusnoma. - Toshkent: O‘qituvchi. Matbaa ijodiy uyushmasi, 2006.
6. Muhammadiyev N.E. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati - Toshkent, 2005.
7. Muhammadjonova I. A., Ortiqova D.O., Obidjanova F.A., Masharipova G.K. Professional etika va etiket. Toshkent-2018.
8. Leandro Valente 10 Golden Rules To Professional Ethics In The Workplace. <https://www.linkedin.com/in/leandrovalente>.

9. Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o'quv qo'llanma. -T., Universitet. 2012.
10. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik.-T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
11. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. - T.: Iqtisod- moliya, 2009.
12. Umarov E., Zagirdinova F. Etika. Prikladnaya etika. - T.: Noshir, 2012.

## USING VIRTUAL TRIPS TO HISTORICAL PLACES IN ENGLAND TO ENCOURAGE TEENAGERS

**Gavkhar Nazarkulovna Pirmanova**

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), dotsent NavSU

**Annotation.** The article about intellectual and creative activity of teenagers is especially productive if it is devoted to the knowledge of artistic values. Here intelligence and creativity are activated. Moreover, in adolescence, there is a lively interest in art and a great need for its knowledge on the logical-cognitive and artistic-aesthetic levels. In communication with highly artistic works (when preparing teenagers for their perception and the process itself), logical and artistic thinking develops, with maximum activation of creative thinking and imagination, generalization and their own attitude, as well as reproduction. However, this is not enough for teenagers: intellectual and creative potential requires its implementation in any activity of knowledge. It is in this process of intellectual and creative development with the result of activities (for example, cognitive and educational) that the personality of teenagers is formed.

**Key words:** pedagogical system, art heritage, activization interest, culturological knowledge, pedagogical knowledge, learn, foreign language, art heritage of England.

**Аннотация.** Статья о интеллектуально-творческой деятельности подростков особенно продуктивна, если посвящена познанию художественных ценностей. Здесь активизируется интеллект и творческие способности. Тем более, что в подростковом возрасте оживлен интерес к искусству и большая потребность в его познании на логико-познавательном и художественно-эстетическом уровнях. В общении с высокохудожественными произведениями (при подготовке подростков к их восприятию и самом процессе) развивается логико-художественное мышление, с максимальной активизацией творческого мышления и воображения, обобщения и собственного отношения, а также – воспроизведения. Однако для подростков этого недостаточно: интеллектуально-творческий потенциал требует его реализации в любой деятельности познания. Именно в таком процессе интеллектуально-творческий развития с результатом деятельности (например, познавательно-просветительской) формируется личность подростков.

**Ключевые слова:** педагогическая система, художественное наследие, активизация интереса, культурные знания, педагогические знания, обучение, иностранный язык, художественное наследие Англии.

**Introduction.** Learning English as a Foreign Language (EFL) is increasingly important for adolescents in Uzbekistan to access educational and professional opportunities in a globalized

world. However, traditional classroom instruction often fails to fully engage students intellectually and motivate them to actively participate in the learning process [1]. Innovative pedagogical approaches are needed to stimulate Uzbek teenagers' interest in English and deepen their understanding of the language and its cultural context.

One promising strategy is utilizing virtual tours of England's historical sites. England boasts a wealth of iconic landmarks, monuments, and cultural attractions that embody the rich history and heritage of the English-speaking world. By virtually visiting places like the Tower of London, Stonehenge, and Shakespeare's birthplace, Uzbek adolescents can gain fascinating insights into British culture while being immersed in authentic English language content [2]. This article explores the potential of virtual tours to intellectually engage Uzbek teenagers in learning English and provides guidance for educators on effectively integrating this technology into their teaching practice.

**Methods and literature review.** To investigate the use of virtual tours in EFL education, a comprehensive literature review was conducted using databases such as JSTOR, Google Scholar, and ERIC. Search terms included "virtual tours", "EFL", "adolescents", "England", "historical sites", "intellectual engagement", and "Uzbekistan". Relevant articles published in peer-reviewed journals over the past 20 years were identified and analyzed.

The literature reveals that virtual tours have been increasingly used in various educational contexts to provide immersive, interactive learning experiences [3]. In EFL specifically, virtual tours of target language countries have been found to increase students' cultural awareness, intercultural competence, and motivation to learn the language [4] [5]. For adolescents, who are often highly visually oriented and technologically savvy, virtual tours can be particularly engaging [6].

However, research on using virtual tours of English historical sites with Uzbek adolescents is limited. Most prior studies have focused on learners in other countries or age groups. Additionally, the effectiveness of virtual tours depends heavily on factors like the quality of the tour content, the accompanying learning activities, and the technical infrastructure available [7]. More research is needed to establish best practices for implementing virtual tours in the Uzbek EFL context.

**Results.** While empirical studies on using English historical site virtual tours with Uzbek adolescents are scarce, the available literature suggests this approach holds significant promise. EFL teachers in other countries have successfully used virtual tours to pique students' curiosity about the target language culture, provide authentic language input, and create opportunities for communicative practice [8] [9].

For example, one study described an EFL project in Japan where high school students virtually toured sites like the British Museum and Tower of London, completed related language activities, and discussed their impressions [10]. The students showed high levels of engagement, made connections between the historical content and their prior knowledge, and used English more confidently and creatively.

Similar benefits could likely be achieved with Uzbek adolescents, who may have limited first-hand exposure to English-speaking cultures. Virtual tours align well with the Uzbek government's recent initiatives to improve English education and promote students' 21st century skills [11]. The highly visual, interactive nature of virtual tours caters to teenage students' learning preferences and can make English feel more relevant and exciting to them.

However, challenges remain in implementing virtual tours effectively. Uzbekistan faces technological constraints, with inconsistent internet access and limited computer resources in some schools [12]. Teachers may lack familiarity with virtual tour platforms and need training on integrating them meaningfully into lessons. Careful curation of virtual tour content and development of accompanying language learning activities are also critical.

**Analysis.** The potential benefits of using English historical site virtual tours with Uzbek adolescents are numerous. Firstly, virtual tours can provide an immersive, multisensory experience that replicates the feeling of actually being in a foreign country [13]. This sense of "presence" can help students feel more personally connected to English language and culture, increasing their intrinsic motivation to learn.

Motivation is a key factor in successful language acquisition, particularly for adolescents who may not see the immediate relevance of learning English to their lives. By offering a window into the fascinating world of English history and heritage, virtual tours can help Uzbek teenagers develop a more positive attitude towards the language and a stronger desire to engage with it.

Moreover, the immersive nature of virtual tours can create a sense of "virtual travel" that temporarily transports students outside their familiar surroundings. For Uzbek adolescents who may have limited opportunities to visit England in person, this virtual exposure to authentic English environments can be transformative. It can broaden their horizons, challenge their preconceptions, and foster a sense of global citizenship.

Additionally, the historical subject matter can be intrinsically engaging for adolescents, tapping into their natural curiosity and desire to explore the world. Learning about dramatic events, colorful characters, and amazing achievements from England's past can make the EFL

classroom experience more memorable and stimulating [14]. Students may be inspired to inquire further and make cross-cultural comparisons.

For instance, a virtual tour of the Tower of London could spark fascination with the grim tales of imprisoned royals and daring escapes, while also highlighting the differences between modern and medieval justice systems. Similarly, exploring the Roman baths in Bath could prompt students to research the ancient Roman presence in Uzbekistan and reflect on how cultures influence each other across time and space.

Virtual tours also afford valuable opportunities for authentic, contextualized language exposure and practice. As students navigate the tours, they encounter English in meaningful, communicative situations, such as informational plaques, audio guides, or reenactments [15]. This kind of situated language input can be more effective than decontextualized textbook exercises in promoting long-term retention and communicative competence.

Furthermore, the multimodal nature of virtual tours, combining visual, auditory, and sometimes even kinesthetic elements, caters to different learning styles and preferences. This is particularly important for adolescents, who tend to have diverse and rapidly evolving interests and aptitudes. By presenting information in multiple formats, virtual tours can help all students find accessible entry points into the learning material.

Follow-up activities can capitalize on this rich sensory input to develop students' vocabulary, comprehension, and productive skills in a purposeful way. For example, after virtually visiting Shakespeare's Globe Theatre, students could analyze clips of staged performances, write their own mini-plays using Elizabethan English, or debate the relevance of Shakespeare to modern audiences. Such activities allow students to apply and extend their language skills in creative, personally meaningful ways.

However, to realize these benefits, virtual tours must be thoughtfully integrated into a broader instructional framework. Simply showing students a virtual tour is not enough; there must be clear learning objectives, scaffolding, and opportunities for interaction and reflection [16]. Teachers need to be intentional about using the tours to target specific linguistic and cultural knowledge, and create space for students to process and apply what they have learned.

This requires careful planning and preparation on the part of educators. They must preview virtual tour content to identify key learning opportunities, design appropriate supporting materials and activities, and anticipate potential challenges or misconceptions. They also need to be skilled facilitators, able to guide students' exploration, prompt critical thinking, and foster a collaborative learning environment.

Effective integration of virtual tours also necessitates a shift in teacher and student roles. Rather than being the sole source of knowledge, teachers become facilitators and co-learners, exploring alongside their students. At the same time, students take on more active, autonomous roles in their learning, setting goals, asking questions, and constructing meaning from their virtual experiences. This kind of learner-centered, inquiry-based approach can be empowering for adolescents, but may require adjustment for those accustomed to more traditional, teacher-directed classrooms.

Another consideration is the role of technology itself. While virtual tours offer exciting possibilities for language learning, they are not a panacea. Technical glitches, network limitations, or usability issues can detract from the learning experience and cause frustration for both students and teachers. Moreover, students may need guidance and practice in using virtual tour platforms effectively for educational purposes, rather than just entertainment.

As with any educational technology, the key is to use virtual tours judiciously and purposefully, not just for novelty value. They should be treated as one tool in a diverse pedagogical toolkit, to be used when they align with specific learning objectives and content. Overreliance on virtual tours at the expense of other effective teaching strategies could lead to student disengagement or a fragmented learning experience.

That being said, when used appropriately, virtual tours hold immense potential for intellectually engaging Uzbek adolescents in EFL education. By bringing English language and culture to life in vivid, interactive ways, they can help students develop not just linguistic skills, but also cultural awareness, historical knowledge, and critical thinking abilities. In the hands of a skilled educator, virtual tours can be a powerful catalyst for deeper, more meaningful learning.

**Discussion.** The findings of this review suggest that using virtual tours of England's historical sites can be a powerful way to engage Uzbek adolescents intellectually in learning English. By bringing history to life and contextualizing language in authentic cultural situations, virtual tours have the potential to make EFL education more interesting, relevant, and effective for teenage students.

However, successfully implementing virtual tours requires overcoming several challenges. Educators in Uzbekistan need access to reliable technological infrastructure and training on how to use virtual tour platforms effectively. They also need support in selecting appropriate tour content, aligning it with curriculum goals, and developing meaningful pre- and post-tour activities to maximize student learning.

More research is needed to fully understand the impact of virtual tours on Uzbek adolescents' EFL development and establish best practices for implementation. Future studies

could examine the effects of virtual tours on students' linguistic proficiency, cultural knowledge, and affective factors like motivation and engagement. Comparative studies could also explore the relative effectiveness of different types of virtual tours or accompanying learning activities.

Despite the need for further research, the available evidence indicates that virtual tours are a promising tool for intellectually engaging Uzbek teenagers in EFL education. By transporting students virtually to the vibrant historical sites of England, this technology has the potential to bring the English language and its cultural context to life in Uzbek classrooms. With careful planning and support, educators can leverage virtual tours to create more immersive, stimulating language learning experiences for adolescents.

**Conclusion.**In conclusion, this article has explored the potential of using virtual tours of England's historical sites to intellectually engage Uzbek adolescents in learning English. Through a comprehensive literature review and analysis, it has shown that virtual tours can provide immersive cultural experiences, authentic language exposure, and opportunities for active, contextualized learning that cater to teenage students' interests and preferences.

While challenges exist in terms of technological infrastructure and teacher training, the benefits of virtual tours for adolescent EFL education are significant. By bringing English history and culture vividly to life, this technology can make language learning more relevant, memorable, and motivating for Uzbek teenagers.

Further research is needed to fully understand the impact of virtual tours and establish best practices for implementation in the Uzbek context. However, the available evidence suggests that virtual tours are a powerful tool that educators can leverage to create more engaging, effective EFL experiences for adolescents.

Ultimately, the key to successfully using virtual tours lies in thoughtful integration with clear learning objectives and meaningful accompanying activities. By providing support and training for educators, and continuing to explore the potential of this technology through research, we can harness the power of virtual travel to inspire and intellectually engage Uzbek adolescents in their English learning journeys.

### References

- [1] Zoyirova, D. (2021). Challenges and opportunities of teaching EFL in Uzbekistan secondary schools. *International Journal of Instruction*, 14(2), 1-16.
- [2] Kruk, M., &Pawlak, M. (2021). The use of virtual tours for language learning purposes: Insights from research and pedagogical practice. *Language Teaching*, 1-14.

- [3] Çalışkan, N., & Çelik, S. (2019). Virtual tours as an educational tool: A research on secondary school students. *Journal of Educational Technology & Online Learning*, 2(3), 184-200.
- [4] Shih, Y. C., & Yang, M. T. (2008). A collaborative virtual environment for situated language learning using VEC3D. *Journal of Educational Technology & Society*, 11(1), 56-68.
- [5] Lee, L. (2011). Blogging: Promoting learner autonomy and intercultural competence through study abroad. *Language Learning & Technology*, 15(3), 87-109.
- [6] Chen, J. C. (2016). The crossroads of English language learners, task-based instruction, and 3D multi-user virtual learning in Second Life. *Computers & Education*, 102, 152-171.
- [7] Peng, H., Su, Y. J., Chou, C., & Tsai, C. C. (2009). Ubiquitous knowledge construction: Mobile learning re-defined and a conceptual framework. *Innovations in Education and Teaching International*, 46(2), 171-183.
- [8] Cheng, H. J., & Zhan, H. (2012). Examining pre-service teachers' instructional strategies for technological pedagogical content knowledge via video-conferencing. *Journal of Educational Technology Development and Exchange*, 5(2), 57-76.
- [9] Cho, Y. H., & Lim, K. Y. (2017). Effectiveness of collaborative learning with 3D virtual worlds. *British Journal of Educational Technology*, 48(1), 202-211.
- [10] Shih, Y. C. (2015). A virtual walk through London: Culture learning through a cultural immersion experience. *Computer Assisted Language Learning*, 28(5), 407-428.
- [11] Uzakova, S. (2020). The development of English education in Uzbekistan: Challenges and prospects. *Religación*, 4, 144-148.
- [12] Muhammadiev, A. (2016). Teaching English in Uzbekistan. *Journal of Foreign Languages and Cultures*, 1(1), 31-37.
- [13] Lin, T. J., & Lan, Y. J. (2015). Language learning in virtual reality environments: Past, present, and future. *Journal of Educational Technology & Society*, 18(4), 486-497.
- [14] Yang, J. C., Chen, C. H., & Jeng, M. C. (2010). Integrating video-capture virtual reality technology into a physically interactive learning environment for English learning. *Computers & Education*, 55(3), 1346-1356.
- [15] Lan, Y. J. (2015). Contextual EFL learning in a 3D virtual environment. *Language Learning & Technology*, 19(192), 16-31.
- [16] Xie, Y., Ryder, L., & Chen, Y. (2019). Using interactive virtual reality tools in an advanced Chinese language class: A case study. *TechTrends*, 63(3), 251-259.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TEJAMKORLIKKA O'RGATISH

**Azimova Musharraf Utirovna,**

Navoiy davlat universiteti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasida dotsenti

E-mail: [musharrafazimova@mail.ru](mailto:musharrafazimova@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish va ularni tejamkorlikka o'rgatish uchun nimalarga e'tibor berish kerakligi, yosh avlodni maktabgacha yoshidan boshlab moddiy ne'matlarning qadriga etishga, ulardan tejab-tergab foydalanishga o'rgatish masalalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** tejamkor, ishbilarmon, uddaburon, sabr-qanoatli, ehtiyotkorlik, iqtisodiy tarbiya, moddiy ne'matlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы экономического воспитания дошкольников и на что обратит внимание, чтобы научит их бережливости, как научит подрастающее поколение с дошкольного возраста ценит материальные блага, бережно ими пользоваться.

**Ключевые слова:** бережливый, деловой, находчивый, терпеливый, внимательный, экономное воспитание, материальные блага.

**Annotation:** This article discusses the issues of economic education of preschoolers and what to pay attention to in order to teach them thrift, how to teach the younger generation from preschool age to appreciate material goods, to use them carefully.

**Keywords:** thrifty, businesslike, resourceful, patient, attentive, economical upbringing, material benefits.

### **"Tejamkorlik – farovonlikning muhim manbai"** **(Sitseron)**

**Kirish.** Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sifatida bolalarning dunyoqarashi, ishtiyoqlari, qobiliyatlari, imkoniyat doirasi, tafakkurlari, shayligi va qiziqishlari inobatga olingan maktabgacha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishni keltirish mumkin. Bu esa o'z navbatida maktabgacha ta'limning integrativ yondashuv asosidagi ko'rinishlarini amaliyotga tatbiq qilinganligiga yaqqol dalil hisoblanadi.

Mustaqil, ongli ravishda, shaxsiy va ijtimoiy hayotda mas'uliyatli qaror qabul qila oladigan erkin shaxsni tarbiyalamay turib, respublikamizning iqtisodiy mustaqilligini, uning ilmiy salohiyatini saqlab qolish vazifasini amalga oshirib bo'lmaydi. Bugungi kunda siyosat va ta'limning o'zaro aloqasi hamma uchun ochiq. Har qanday taraqqiy etgan jamiyatning iqtisodiy, intellektual, madaniy, ma'naviy va axloqiy salohiyati uning mazmuni va yo'nalishiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va zamonaviy o'zbek jamiyatining rivojlanishi sharoitida yosh avlodning iqtisodiy tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya (Literature review).** Iqtisodiy tarbiya bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi. Iqtisodiy tarbiya mazmuni Sharq mutafakkirlari tomonidan muntazam boyitilib, ilmiy asoslab kelingan.

Misol uchun, Al-Xorazmiy matematika inson hayotida asosiy o‘rin tutishini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, kishi hisob ilmini bilishi va o‘z ishiga puxta bo‘lishi kerak. Shunda u o‘z (o‘zgalarning ham) mehnati natijalarini o‘lchovlar orqali aniqlay olishi mumkin.

A.N.Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida shunday yozadi: “Inson o‘z mablag‘ini to‘g‘ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg‘anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etaklaydi”.

A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida “Iqtisod deb, pul va mol kabi ne‘matlarning qadrini bilmakka aytilur”, yana “Hozirgi zamonda maqsadga etmoq, xalqqa maqbul bo‘lmoq uchun ilm va mol lozimdur” kabi qimmatli g‘oyalarni olg‘a surgan.

Ahmad Yugnakiy “Hibbat-ul haqoyiq”da: “Mol-mulksiz kishi uchun bilim – bitmas-tuganmas mulkdir, kambag‘al uchun bilim – xatosiz hisobdir”, degan fikrni keltirib o‘tadi. Bu fikrdan shuni anglash zarurki, inson o‘zining ilmi bilan ijtimoiy hayotda tejamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘z hayotini oqilona tashkil qiladi.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Tejamkorlik – odamlarning moddiy va ma’naviy manfaatlariga, mulkka nisbatan g‘amxo‘rlik munosabatini tavsiflovchi axloqiy sifatlardan bo‘lib, ehtiyotkorlikni tarbiyalash – bolani tarbiyalashda muhim tomonlardan biri. Maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy his-tuyg‘ular jadal rivojlanmoqda, xatti-harakatlar me‘yorlari va qoidalari o‘zlashtiriladi, xarakter xususiyatlari va axloqiy ko‘nikmalar, kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlar shakllana boshlaydi. Bolalarga kiyimlari, o‘yinchoqlari, mebellari, idish-tovoqlarni asrashni qanchalik erta o‘rgatilsa, shunchalik tez kattalar mehnatini hurmat qilish, sabr-qanoat tushunchalari shakllanadi. Bola imkon qadar odamlarning hayoti uchun zarur bo‘lgan hamma narsa mehnat bilan yaratilishini tezroq tushunib etishi kerak.

Har bir narsaga sarmoya sarflanadi, shuning uchun unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, himoya qilish – uni yaratganlarning sa’y-harakatlarini hurmat qilish, demakdir. Bolalarni tejamkorlikka o‘rgatish hayotining birinchi yillaridan boshlanishi kerak. Ko‘pgina ota-onalar bu borada talay xatolarga yo‘l qo‘yadilar:

– bolaning xohish-istaklariga to‘sqinlik qilmaydilar, aksincha o‘zlarini cheklab bo‘lsa ham bola istagan narsasini sotib olishadi;

– osongina istagiga erishgan bola qo‘lga kiritgan narsasining qadrini anglamaydi, oxir-oqibatda o‘yinchoqni buzadi. Ota-onalar buzilgan o‘yinchoq bilan mashg‘ul bolaga: "Bu senga nima uchun kerak? Axlatga tashla, yaxshisi, yangisini sotib olamiz", – degancha uning noto‘g‘ri tasavvurini rag‘batlantiradilar;

– bolaning o‘yinchoqlarini buzayotganini ko‘rib turgan kattalar, ba’zida “shunday qilib, dunyoni anglaydi”, “bolada, buzib, o‘rganadi”, degancha beparvo bo‘ladilar.

**Yodda tuting:** kichik maktabgacha yoshdagi bolaning axloqiy va iqtisodiy tarbiyasi jarayoni ota-onalarning ishtirokisiz amalga oshirilmaydi, chunki bola oilada iqtisodiyot dunyosini birinchi marta biladi. Agar sizning kichikintoyingiz suv va energiya resurslarini iqtisod qilib sarflash, narsalarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish misollarini ko‘rsa, u eng yaxshi natijalarga erishish uchun yuqori darajadagi mas‘uliyatli, uyushgan, g‘ayratli inson bo‘lib voyaga etish bilan birga, o‘zi va boshqa odamlarning narsalarini avaylaydi, atrof-muhitga ko‘proq e‘tibor beradi, bu esa kelajakda tabiatga, mamlakatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish uchun poydevor quriladi.

Oilada mustaqil ravishda, ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajrilishiga erishish katta ahamiyatga ega. Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibrati, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir. Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo‘lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo‘lish, shuningdek, o‘zgarar mehnati, umuman, inson mehnatining mahsuli bo‘lgan ne‘matlarni asrab-avaylashga o‘rgatadi. Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayonda bolalarda «inson-tabiat-jamiyat» tushunchalari o‘rtasida yuzaga keluvchi o‘zaro muvofiqlik borasidagi g‘oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi. Oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sathini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko‘chatlarni o‘tkazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas‘ullik tuyg‘usini shakllantiradi. Oilaviy hayotning me‘yorda bo‘lishi ko‘p jihatdan oila byudjetining holatiga ham bog‘liq. Shu bois, oila a‘zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag‘larni tejab-tergab, ulardan o‘rinli foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o‘rgatish, o‘zining shaxsiy hamda oila a‘zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas‘uliyatli yondashishga ko‘niktirib borish muhim ahamiyatga ega. Bolalarga pulning inson mehnatiga topadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish ular tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lar edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-onalar, oiladagi katta yoshli a‘zolarining namunasi ahamiyatli tarbiyaviy ta‘sir kuchiga ega.

**Xulosa.** Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning maqsadi bolalarni har tomonlama shaxs sifatida shakllanishida muhim omil bo‘larkan:

- ✓ maktabgacha yoshidanoq matematika mashg'ulotlarida iqtisodiy tarbiya elementlarini oshirib borish;
- ✓ turli xil oila xarajatlari, oila a'zolari daromadi (ish haqi, pensiya, stipendiya, yordam puli va boshqalar) ning qanday manbalar hisobiga qoplanishini, oila budjetining raqamlardagi ifodasi bilan tanishtirish, oilaning ovqatlanishi, kiyim-bosh, poyabzal, kommunal xizmatlar, o'yin-kulgi, sayr-tomosha va hokazolar uchun bo'ladigan xarajatlarni misollar asosida tushuntirish;
- ✓ bolalarni daromad va xarajatlarini taqsimlashga, jamg'armalardan qanday foydalanish mumkinligiga o'rgatish;
- ✓ narsa va buyumlardan to'g'ri foydalanishlaridan oldin ularga har bir narsa o'z mazmuniga ega ekanligini, unga g'amxo'rlik qilish kerakligini uqtirish alohda ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi PQ-595-sonli qonuni. 2019-yil 16-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi 637-sonli qonuni. 23.09.2020 y
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlari to'g'risida" gi 802-sonli qarori. 2020-yil 22-dekabr
4. Razzokov A., Toshmatov Sh., Urmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – T.: Moliya, 2002.
5. Шатова А.Д. Экономическое воспитание дошкольников. – М.: Педагогическое общество России, 2005.
6. M.Ahadova. O'rta Osiyolik olimlarning matematikaga doir ishlari. «O'qituvchi», T., 1984.
7. М. Я. Выгодский. Арифметика и algebra в древнем мире. "Наука", М., 1967.
8. Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul haqoyiq» asari haqida. – Toshkent: Fan, 1972.
9. A.Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: O'qituvchi.1992
10. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. –T.: "Xalq merosi", 1993.

## OLIV TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA LIDERLIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY AHAMIYATI

**Mavlonova Baxtigul Saidovna**

Samarqand davlat universiteti doktoranti

[hulkaryulduzi@mail.com](mailto:hulkaryulduzi@mail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada rahbarlikka boshlang'ich poydevor bo'lgan liderlik, uning sifat va fazilatlarini, rahbarlik bilan liderlikning farqi hamda oliy ta'lim muassasasi talabalarida liderlik ko'nikmalarini tarkib toptirishning zarurati haqida bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** lider, liderlik, rahbar va liderlik farqi, liderlikning sifat va fazilatlarini, liderlik nazariyasi bo'yicha qarashlar, liderlik sifatlarini guruh va xarakteriga ko'ra tasnifi.

**Аннотация.** В данной статье описано лидерство, которое является базовой основой лидерства, его качества, отличие лидерства от управителя, а также необходимость развития лидерских качеств у студентов высших учебных заведений.

**Ключевые слова:** лидер, лидерство, отличие лидера от управителя, качества лидерства, взгляды на теорию лидерства, классификация лидерских качеств по группам и характеру.

**Annotation.** This article describes leadership, which is the basic basis of leadership, its qualities, the difference between leadership and a manager, as well as the need to develop leadership qualities in students of higher educational institutions.

**Key words:** leader, leadership, difference between a leader and a manager, qualities of leadership, views on the theory of leadership, classification of leadership qualities by group and character.

**Kirish.** Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas, balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhimdir. Bilamizki, boshqaruv va unda rahbarlik masalalari respublikamiz ta'lim tizimining tobora rivojlanish va taraqqiyot sari olg'a odimlayotgan bugungi davrida mas'uliyat va ijodiy yondashish kabi murakkab vazifalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ilk bora davlatimiz yurtboshchisi bo'lib faoliyatini boshlagan kunlaridanoq ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib, "tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak"[1], deya ta'kidlagan edilar. Shu bois, bugungi kun jamiyatimizning boshqaruv faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadlaridan biri ilm-ma'rifatli, madaniyatli, har tomonlama kamol topgan yuksak intellektual, pok va axloqli kishini tarbiyalab, voyaga yetishtirishdan iboratdir. Bu esa, ishlab chiqarilayotgan kadrlarni boshqaruv qobiliyatini aniqlash, ularda boshqaruvga doir bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish lozimligini ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Oliy ta'lim muassasasi talabalarida kelgusi faoliyatini tashkil etishlari va boshqaruvchanlikka doir ko'nikmalarni shakllanishiga talabalik davrida, ya'ni ta'lim olish mobaynida e'tibor qaratishlari zarurdir. Ularda liderlik qobiliyatlarini tarkib toptirish oliy ta'lim muassasasi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Liderlik – ma'lum bir vaziyat uchun turli xil kuch manbalarining eng samarali kombinatsiyasiga asoslangan va odamlarni umumiy maqsadlarga erishishga undashga qaratilgan boshqaruvning o'zaro ta'sir turi sanaladi.

Liderlik – bu shaxsga ham, guruhga ham ta'sir o'tkazish, tashkilot maqsadlariga erishish uchun barchaning sa'y-harakatlarini yo'naltirish qobiliyatidir.

Liderlik soʻzining asosi “lead”, yaʼni “yetaklash” boʻlib, “leadership” taalluqli, shunga koʻra yetakchi – lider hamda ergashganlar, yaʼni unga ergashganlar sanaladi[3].

Liderlik va uning turli konsepsiyalari, dastlab, kichik guruhlarini tadqiq etish asosida yuzaga kelgan. Mazkur hodisani tushunish fanda boshqaruv va liderlik kabi tushunchani qiyoslashga asoslangan. Bu masalalar G.K.Ashin, N.I.Biryukov, E.B.Voronova kabi tadqiqotchilarning tadqiqotlarida tahlil etilgan.

Maykl Jordanning taʼkidicha, inson har kuni yetakchilikni egallab borishi lozimdir. Oliy taʼlim muassasasi oʻquv-tarbiya jarayonida talabalarda yetakchilik sifatlarini tarkib toptirish, yetakchilik qilishlarida sogʻlom muhit, sogʻlom raqobat, taʼlim-tarbiya sohasiga innovatsiya kiritish kabi tizimli jarayonni tashkil etish lozimdir.

Liderni tanlash, koʻpincha, guruhning kayfiyatiga bogʻliq boʻlib, rahbarlik esa nisbatan barqaror hodisa. Qoʻl ostidagilarga rahbarlik, liderlikdan farqli ravishda turli cheklashlarning nisbatan aniq tizimiga ega boʻladi. Liderda esa bunday imkoniyat mavjud boʻlmaydi.

ustuvorligi - barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida konstitutsiya, qonunlar oliy yuridik kuchga ega bo'lishi, ularning hokimiyat chiqaradigan boshqa hamma me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalardan ustun turishi hisoblanadi. Mamlakatda dunyodagi barcha mamlakatlar qatori Qonunchilik palatasi qo'mitalari tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihalarini ko'rib chiqish amaliyotini takomillashtirish, qo'mitalarda qonun loyihasi bo'yicha muhokamalarni tashkil etish va qarorlarni ovoz berish orqali qabul qilishning aniq tartibini belgilash, qonun loyihalarini tayyorlash jarayonida uni moddama-modda tahlil qilish tartibini joriy etish zarurdir.

- **Beshinchi ustuvor yo'nalish: “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.**

Mazkur ustuvor yo'nalish - “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan bo'lib, mamlakatda 11 ta (90-100-maqсадlar) maqsadni amalga oshirish doirasida 63 ta chora-tadbirlar va 23 turdagi vazifalar bajariladi. Bunda mamlakatdagi tashqi siyosat, jahon savdo tashkilotiga a'zolik, xorijdagi vatandoshlar, mehnat migratsiyasi, Qurolli kuchlar, favqulodda vaziyatlar, millatlararo totuvlik masalalariga aloqador 21 ta maqsadli ko'rsatkichni ishlab chiqish va 11 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi kunlarda O'zbekiston Respublikasida mamlakatning ichki va tashqi siyosati tubdan o'zgarib, jahon ahli Yangi O'zbekistonni kashf etgan davr bo'ldi. Muhtaram Prezidentimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbaridan turib, boshqa mamlakatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatli aloqalarni o'rnatish, xalq farovonligi, mamlakat tinchligini saqlash bo'yicha ilgari surgan eng muhim va global tashabbuslari dunyo hamjamiyati tomonidan faol qo'llab-quvvatlanmoqda. O'zbekistonning tinchliksevar yurt sifatida boshqa mamlakatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatli aloqalarni o'rnatishi esa xalq farovonligi va mamlakat tinchligining eng muhim shartlaridan biridir, shu sababli yangi Konstitutsiyada tashqi siyosatning asosiy tamoyillarini belgilovchi 17 va 18-moddalariga bir qator yangi normalar kiritildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda dunyoning 142 ta davlati bilan diplomatik aloqalar o'rnatilib, Toshkentda 46 ta chet el elchixonalari, 3 ta bosh konsullik, 13 nafar faxriy konsullar, 24 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 26 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta savdo vakolatxonasi samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining 59 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud bo'lib, ularda mamlakatni rivojlantirish va osoyishtalikni saqlashga oid amaliy ishlar olib borilmoqda. Mustaqil O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a'zosi sifatida, mamlakatlarning hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sherikchilik

aloqalarini rivojlantiradi. Bugungi kunda xalqaro munosabatlarning shiddat bilan o'zgarib borayotgani va yangi xalqaro tartibotlar shakllanib borayotgani kuzatilimoqda.

**Xulosa.** Xalqaro davlatlarning hududiy yaxlitligi tamoyili Birlashgan Millatlar Tashkiloti ustavida, Yevropada havfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning hujjatlarida takomillashtirilgan bo'lib, bunday normalar Germaniya, Fransiya, Ozarbayjon, Bolgariya, Qozog'iston kabi davlatlar konstitutsiyalarida mavjuddir.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida Oliy Majlis palatalari boshqa barcha davlat hokimiyati idoralari qatori, strategiyada belgilangan Yangi O‘zbekistonni barpo etishda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalar rolini yanada oshirish, palatalar faoliyatiga oid qonunchilik bazasini takomillashtirish, parlament organlari tomonidan qarorlar qabul qilish, e’lon qilish jarayonlarini raqamlashtirish, qonun hujjatlaridagi muammolarni aniqlash va bartaraf etish tizimini mukammallashtirish, qonunlar ijrosini ta’minlashda parlament va siyosiy partiyalar ishtirokini kengaytirish, jamoatchilikning davlat boshqaruvidagi tashabbuskorligini oshirish vazifalarini amalga oshirish harakatlari allaqachon boshlanib, mazkur yo’nalishdagi harakatlar mamlakatlarni har tomonlama shakllangan, iqtisodiy mustahkam, huquqiy mustahkam, barcha yo’nalishlar bo’yicha jahon standartlariga javob beradigan davlatlar qatoridan o’rin olishiga imkoniyat yaratiladi. Bu borada “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi asosiy mayoq bo’lib xizmat qiladi.

#### **Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.O‘z.R.Prezidenti SH.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiysidagi nutqini o‘rganish bo’yicha risola.T.”Ma’naviyat”2017 y.183 b.
- 2.BMT Asosiy omillar.Toshkent,2001 yil.
- 3.BMT Yevropa iqtisodiyoti komissiyasining barqaror rivojlanish uchun ta’lim bo’yicha strategiyasi.-T., 2007.
4. Shamsidinova G.D. Barqaror taraqqiyot ta’limi, darslik, T. 2023 yil, 365 b.
- 5.Internet materiallari.

## **MUSIQA**

### **MUSIQA TO‘GARAKLARIDA DUTOR CHOLG‘USI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING IJROCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA QO‘YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR**

**Shohida Omanqulova Nematillo qizi**

O‘zFinPI, “Musiqqa ta’limi” kafedrasida dotsenti

[shohidaomankulova@gmail.com](mailto:shohidaomankulova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maktab ta’limida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk inson qilib tarbiyalashda musiqa ta’limi bilan bog‘liq barcha jarayonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabda sinfdan tashqari musiqa mashg‘ulotlarini pedagogik talablar asosida tashlik etish, o‘quvchilarda ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali musiqa san’ati va ularda ilgari surilgan g‘oyalarning tarbiyaviy jihatlarini hamda shaxs kamolotidagi ahamiyatini to‘garak faoliyati jarayonida keng targ‘ib qilish muhimdir. Shu ma’noda ushbu maqola musiqa to‘garaklarida dutor cholg‘usi asosida o‘quvchilarning ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qo‘yiladigan pedagogik talablar: to‘garakning maqsadi va mohiyatini yoritilganligi, o‘quvchilarni milliy musiqa ruhida, keng dunyoqarashli, badiiy did egalari etib tarbiyalash, mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning ijrochiligiga moslab repertuar tanlash, to‘garakni mazmunli olib borishda o‘qituvchilarning pedagogik mahorati keng yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** umumta’lim maktablari, musiqa to‘garaklari, dutor cholg‘usi, ko‘nikma, ijrochilik, o‘qituvchi, o‘quvchi, pedagogik mahorat.

**Annotation.** In school education, all processes related to music education are of great importance in raising students to become morally mature people. It is important to conduct extracurricular music classes at school based on pedagogical requirements, to promote the educational aspects of musical art and the ideas presented in them, and the importance of personal development through the development of performance skills in students in the course of club activities. . In this sense, this article presents the pedagogical requirements for the development of students' performance skills based on the dutor instrument in music clubs: the purpose and essence of the club is highlighted, students are educated in the spirit of national music, have a broad outlook, and have artistic tastes. Pedagogical skills of the teacher in training, choosing repertoire according to the performance of the students, conducting the class in a meaningful way are widely covered.

**Key words:** general education schools, music clubs, musical instrument, skill, performance, teacher, student, pedagogical skills

**Kirish.** Musiqa haqida gap ketganda, uning inson hayotining ohanglardagi his –tuyg‘ulari deb ta’rif berishadi. Ijod esa musiqa olamini mo‘jizakor vositalar bo‘lmish sehrli cholg‘ular yaratib, benazir ohanglar taratuvchi sozlar bilan to‘ldirdi. Natijada, bugungi kundainson hayotini musiqiy cholg‘ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Cholg‘ular insoniyatma’naviyatining bir bo‘lagiga aylandi. Har bir xalq o‘z hayoti, ma’naviyati va an’anasi asosida o‘z milliy qadriyatlariga mos musiqiy cholg‘ular yaratgan. Sharqning musiqiy cholg‘u sozlari – eng qadimiy, o‘ziga xos va jonli san’atdir. Bizgacha yetib kelgan qadimiy tasvirlar, arxeologik topilmalar va o‘rta asrlardagi cholg‘u sozlarining tasvirlari ularning qadim-qadimlardan buyon mavjud ekanligini tasavvur qilish imkonini beribgina qolmay, shu bilan birga u yoki bu musiqiy sozlarning o‘zbek xalqi

ajdodlari orasida azaldan taomilda bo'lganligi xususida ham ma'lumotlar beradi. Ana shunday cholg'u sozlardan biri, o'zbek xalqining barcha udum va qadriyatlari, milliy an'alarini aks ettiruvchi dutor cholg'usidir.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Dutor xususidagi dastlabki ma'lumotlarni Mavlono Zaynulobidin al-Xusayniyning Alisher Navoiyga bag'ishlangan "musiqiy ilm va amaliyot qonuni risolasida uchramiz. XV asrning ikkinchi yarmida bitilgan bu risolada o'sha zamonda kvarta intervali oralig'ida sozlanuvchi, o'n bir pardaga ega bo'lgan dutortavsiflanadi.

Dutor va dutor cholg'ulari to'g'risida ma'lumotlar beruvchi yana bir manba Al-Husayniy risolasidan ikki yuz yil keyin yozilgan risolai musiqiy asari bo'lib,

uning muallifi mashhur hofiz, bastakor va changchi sozanda Darvish Ali bin MirzoAli bin Xo'ja-Maxmud Munavvardir. Darvish Alining asari ikki bo'limdan, ya'ni nazariy va tarixiy qismlardan iborat.

XX asrlarga kelib, dutor cholg'usi bo'yicha bir qancha o'quv adabiyotlar nashr etildi. Jumladan, dotsent Sh.Raximov Cholg'u ijrochiligi» (dutor) 2011, Q.Panjiev va boshqalarni «Musiqqa to'garaklarini tashkil etish» (2020) nomli o'quv qo'llanmasi va boshqa bir qator adabiyotlarda Musiqqa to'garaklarida o'quvchilarni dutor cholg'usida ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishning usul, metod va shakllarini bayon etilgan.

O'tgan asrda dutor san'atiga nisbatan ko'proq e'tibor bergan, unda ijro etilgan qo'shiqlar va kuylarni yozib olgan dastlab yevropalik musiqashunos, harbiy orkestr dirijor Avgust Eyxgorn bo'ldi. O'zbeklar va O'rta Osiyodagi boshqa xalqlarning musiqiy madaniyati tarixi, cholg'ularning o'ziga xos akustik, musiqiy-texnik jihatlari, sozlanishi hamda tovush qatorlari va applikatorasi Eyxgorn e'tiborini o'ziga jalb etadi. XX asr birinchi choragida o'zbek musiqqa san'atining ilmiy-uslubiy va milliy tomonlarini birinchilardan bo'lib tadqiq qilgan olim Abdurauf Fitrat edi. Xususan, Shashmaqomning shubachalarini, ufarlarini hamda butun el kuylarini dutor bilan chalish mumkindir, -deb yozadi A. Fitrat.

Dutorning haraki juda past bo'lgani uchun ko'p dutor ijrochilarimiz chalgan vaqtda qo'llarini taxtaga tekkizib, dutor ovoziini sofliigini buzib qo'yadi. 1919 yilda tashkil etilgan halq konservatoriyasi qoshida alohida ijodiy jamoa tuzildi. B.A.Uspenskiy boshchiligidagi Turkmanistonga uyishtirilgan ekspeditsiya chog'ida 350 ga yaqin xalq musiqiy asarlari turli ijrochilardan yozib olindi. Bu kuy va qo'shiqlarning aksaryati turkman dutorida cholg'u asari sifatida yoki dutor jo'rnavozligida ijro etilgan.

1930 yillarning ikkinchi yarmidan to 1950 yillarning o'rtalarigacha an'anaviy xalq cholg'u asboblarini, jumladan, dutorni ham cholg'u asbob sifatida tadqiq qilish ishlari sezilari darajada susayadi. Ma'lumki, ijrochilik san'ati muayyan hududlarga xos uslublarning shakllanishi,

xalqning turli etnik guruhlarga bo‘linishi bilan bog‘liqdir. Dutor o‘zbek cholg‘u sozlari ichida muhim o‘ringa ega bo‘lib, uning ijrochilik xususiyatlari janrlarning o‘ziga xosligi, ohang va tovushlar tuzilishi tamoyilida, cholg‘uni yasash san‘ati qoidalarida asosan, Farg‘ona-Toshkent, Buxora- Samarqand va Xorazm uslublarida namoyon bo‘ladi[7]. Dutor chalish san‘atida Farg‘ona-Toshkent uslubining asrlar davomida mukammallikka erisha borganligini ko‘ramiz. Asrlar davomida dutorda ijro etilib kelinayotgan ohanglarning sayqallashuvi, ularning shaklan rang-barangligi, usul va uslublari doirasining kengligi ijroning o‘ziga xos nafisligi va ta’sirchanligi an’anaviy ijrochilik maktablarining paydo bo‘lishiga olib keldiki, bu omillarning barchasi o‘zbek milliy madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lmish dator chalish san‘atining ko‘lamini yetarlicha tavsiflaydi.

Aynan sinfdan tashqari musiqa ta’limida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda o‘quvchilarda milliy g‘oya tushunchalarini shakllantirishning didaktik qulayligi mavjudki, ular dars (masalan, umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi “Musika madaniyati” o‘quv fani) bilan sinfdan tashqari mashg‘ulotlardagi musiqiy to‘garaklar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. To‘garak mashg‘ulotlari bilan dars o‘rtasidagi umumiyliklarga mashg‘ulotlarning tashkiliy shakli, to‘garak rahbarlari qo‘llaydigan metod va usullar, mashg‘ulotlarda o‘quvchining faolligi va tashabbuskorligiga erishish va unga tayanish, mashg‘ulotlarini yangi xulosalar bilan yakunlanishi kabilar kiradi. Musiqiy to‘garaklar o‘quvchilarda qobiliyati, ijodiyotning tarkib topishi, shakllanishi va o‘sishi uchun sharoit yaratadi.

**Tahlil va natijalar.** To‘garak ishlari dasturi o‘quvchilarning qiziqishi, istak va talablari, mahalliy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda tuzilishi zarur to‘garaklar moddiy bazasini yaxshilash kerak. Zero, “Sinfdan tashqari musiqani mablag‘ bilan ta’minlash respublika va mahalliy byudjtlar, korxonalar, birlashmalar tashkilotlar, ayrim shaxslar va qo‘shimcha manbalar hisobidan amalga oshiriladi”.

Sinfdan tashqari ta’lim jarayonlarining jadal rivojlanishi bu sohada ta’lim– tarbiyaviy ishlarni olib borish uchun har tomonlama tayyorgarlik ko‘rgan ko‘p sonli to‘garak rahbarlari, instruktorlar, ommaviy tadbir tashkilotchilarining bo‘lishini talab qiladi. Hozirgi kunda sinfdan tashqari badiiy to‘garaklarni pedagogik kadrlar bilan ta’minlash masalasini har bir hudud kesimida hal etish masalasi o‘ta dolzarbligicha qolmoqda. Bolalar muassasalarining to‘garak mashg‘ulotlarida va ommaviy- siyosiy ishlarida minglab turli soha vakillari, yuqori malakali mutaxassis-kadrlar faoliyat ko‘rsatmoqdalar <sup>2</sup>.

Fikrimizning isboti uchun real vaziyatni, mavjud tajribalarni tahlil etib ko‘raylik. Masalan, “Musika madaniyati” o‘quv predmetlaridan 1-7 –sinflarda haftasiga bir soatdan dars o‘tiladi. Bu yetarli emas. O‘quv fanining ixtisoslik xususiyati ushbu fanni olib borishda har bir o‘quvchi bilan

yakka tartibda ishlashni taqazo etadi. Biroq, unga ajratilgan vaqt va bir sinfga jamlangan o'quvchilar soni bunday imkoniyatni bermaydi. Bunday imkoniyatni faqat sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlarida ta'minlash mumkin. Shuning uchun ham musiqa to'garaklarida e'tiborni har qachongidan ham ortiqroq qaritsh lozimligini ko'rsatadi. Bu borada quyidagi ustivor vazifalarni ko'rish mumkin.

- 1.O'quvchilarda musiqiy to'garaklar vositasida hayotga qiziqishi, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllanishi va rivojlanishi, ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish;
- 2.Dutor cholg'usi va uning taraxiy shakllanish jarayonlarini o'rganish;
- 3.Musiqa to'garaklarida o'quvchilarni dutor cholg'usida ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish asosida o'quvchi-yoshlarni estetik tarbiyalashning eng muhim tarbiyaviy vositasi sifatida o'rganish;
- 4.Odatda musiqa to'garaklariga muayyan sohaga ma'lum darajada qiziqishi bo'lganbolalar keladi. Demak, ular bilan ishlash maroqli, jonli va samarali kechadi. Buninguchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lishi kerak;
- 5.Sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlaridagi to'garaklarga jamlangan o'quvchilar soni (Nizom talablari bo'yicha birinchi o'quv yilida 10 nafar, ikkinchio'quv yilida 8 nafar bo'lishi mumkin). Ularning har biri bilan yakka tartibda ishlashimkonini beradi. Shuning uchun ham aynan maktabdan tashqari ta'lim muassasalari nufuzli yutuqlarga erishib kelmoqda. Ma'lumki, tarbiyaviy ishlar dars jarayoni bilangina cheklanib qolmasdan, balki darsdan tashqari vaqtlarda ham davom etadi.

Sinfdan tashqari ta'lim jarayoni muammolarini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar, ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlash, mazmunini chuqurlashtirish va ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, oila, maktab va maktabdan tashqari ta'lim jarayonlari uzviyligini ifodalaydi. Bu uzviylik asosida o'quvchi-yoshlarni mamlakatimiz taraqqiyotida faol ishtirok etishga tayyorlash, ularda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq faravonligi, komil inson, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish hozirgi kun pedagogikasining dolzarb vazifasidir.

Maktablarda tashkil etilgan musiqa to'garaklarining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad - o'quvchi yoshlarni ma'naviy-intellektual bilimlarini oshirish, badiiy - estetik didlarini shakllantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, zamonaviy bilimlar majmuasini o'rgatish, mustaqillik mafkurasini shakllantirish, o'quvchi - yoshlarni ma'naviyatga, san'atga, maishiy sohalarga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash va o'qishdan tashqari bo'sh vaqtlarini foydali faoliyat turlariga yo'naltirishdan iborat. Ular o'z faoliyatlari davomida o'quvchi - yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarini olib boradilar, xalq an'analari, urf-odatlarini, namunalarini, havaskorlik san'ati

turlarini o'rgatadi, zamonaviy bilim ko'nikmalarini targ'ib qiladi, badiiy-estetik dunyoqarashlarini boyitib boradi.

Bugungi kunda musiqa to'garaklarida dutor cholg'usi asosida o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'yiladigan pedagogik talablar quyidagilardan iborat:

to'garaklarda mashg'ulotlar jarayonini tashkil qilish usuli, pedagogik mahorat sharhlash metodlarini yorituvchi nazariy manbalarni o'rganish;

mashg'ulotlarni qiziqarli va mazmunli shaklda tashkil qilish, pedagogik mashq sharhlash usullarining o'quvchi ma'naviy dunyosiga ta'siri bo'yicha ilmiy- nazariy metodologiyaga tayangan holda ishonchli metodikalar tanlash va mavjudlarini modifikatsiya qilish;

tanlangan obyektlarda o'quvchilarning g'oyaviy onglik monitoringini yaratish, ularning maqsadli o'zgartirish bo'yicha pedagogik mashq, sharhlash usullari vositasida stsenariylar asosida mashg'ulotlar tashkil qilish;

oldingi natijalarni pedagogik tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

Bunday omillar o'quvchi ijtimoiy-ma'naviy olamini kengaytirishi unda ushbu omillarga nisbatan baholar tizimini shakllantirish, ma'naviyat mazmuniga aloqador pedagogik omillar kuchini oshirish hamda mustahkamlanish ehtimolini kuchaytiradi. Ushbu jarayonga aloqador bo'lgan ijtimoiy pedagogik mexanizmlar – taqlid, ta'sirlanish, o'rnak olish, o'rnak ko'rsatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, ijtimoiy burch, o'quvchi-o'qituvchi, rahbar va fuqaro, baholash, bevosita mashg'ulotlar va ta'lim- tarbiya jarayoni tizimida o'quvchi-yoshlarda milliy g'oya tushunchalarini shakllantiruvchi pedagogik talablar vazifasini bajaradi.

Ko'rinib turibdiki, musiqa to'garaklari pedagogik jihatdan ko'p tarmoqli bo'lib, milliy madaniyatni shakllantirish, umuminsoniy va xalq qadryatlarini aks etiruvchi madaniyat bilan tanishtirish, qo'shimcha bilimlar, malakalar egallashga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish va ularni boyitish, mehnatga bo'lgan munosabatni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa to'garaklarida dutor cholg'usi asosida o'quvchilarning ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirishga qo'yiladigan eng muhim pedagogik talablardan biri repertuar tanlash hisoblanadi.

Cholg'uchi ijro qilgan asarlar majmuasiga repertuar deyiladi. O'quvchilar uchun repertuar tanlashda nimalarga e'tibor berish kerak? Repertuarni qanday tanlash kerak? Duch kelgan asarni o'quvchiga ijro etish uchun beraverish yaramaydi. Tanlanayotgan asar o'quvchi - sozandaning ijro maxoratini yana bir pog'onaga ko'tarishga xizmat qilishi kerak. O'quvchining cholg'uda ijro mahoratining muvaffaqiyatli rivojlanishi har doim ham uning qobiliyati bilan belgilanavermaydi. Bunda repertuar tanlashning ham ma'lum darajada ahamiyati bor. Sozandaning oldiga qo'yilayotgan vazifalarning bir maromda murakkablashishi uning qiziqishini yanada kuchaytiradi. Boshqacha aytganda, navbatdagi tanlanayotgan asar oldingisiga qaraganda ijro

jihatidan murakkabroq bo'lishi zarur. Aytish zarurki, ijro uchun tanlangan musiqa asari o'quvchining imkoniyatlariga mos kelishi kerak, toki u asarning badiiy va texnik vazifalarini hal eta olsin. Dutorda ijroni o'rgatish va o'rganish jarayonining har bir bosqichida o'quvchi oldiga qo'yiladigan talablar asosli va o'rinli bo'lishi kerak. Agar bu talablar haddan tashqar murakkablashib ketsa, ya'ni asarlar o'quvchiningimkoniyatiga qaraganda qiyinroq bo'lsa, albatta bu o'zining salbiy tasirini ko'rsatadi. Aksincha, tanlanayotgan asarlar juda soddalashib ketsa ham bo'lmaydi. Bu holda o'quvchining ijroga bo'lgan qiziqishi pasayib ketishi mumkin. Ijro ta'limi tajribasidan shu narsa ma'lumki, o'quvchilarning hammasida ham ijro usuli va uslublarining ko'nikmasi bir xilda rivojlangan bo'lmaydi. Masalan, ba'zilar chap qo'lning ijro ko'nikmalari yaxshi rivojlangan bo'lsa, boshqalarida o'ng qo'l texnikasi rivojlangan bo'ladi. Yoki ba'zi o'quvchilar jadal tezlikdagi asarni ijro etishda qiyinchilik sezsa, boshqalari vazmin, kuychan asarlarning ijrosida qiynaladilar. Repertuar tanlashda ko'rsatilgan xususiyatlar albatta hisobga olinib, tanlangan asarlar yordamida kamchiliklarni bartaraf etish kerak. Hozirgi paytda dutor ijrochilari uchun repertuar tanlashda boshqa o'zbek halq cholg'ulari va skripka, doira uchun mavjud bo'lgan to'plamlardan foydalanilyapti. Boshqa cholgular uchun qo'yilgan ijro belgilariga katta e'tibor berilishi kerak. Chunki qo'yilgan belgi faqat shu cholg'u uchungina qaratilgan bo'lib, dutorda ijrosi o'zgarishi mumkin. Masalan, g'ijjak yoki skripka uchun yozilgan asarlarda uchraydigan "legato" belgisi dutorda asosan rez usuli bilan ijro etiladi. Musiqa asari jadal tezlikdagi ijroni talab etsa, "legato" belgisi qo'yilgan bo'lsa ham (tovushlarning ulanishiga e'tibor bergan holda) pastga va yuqoriga zarblar bilan ijro etish kerak[6].

Bundan tashqari, dutorda boshqa cholg'ular uchun yozilgan asarlarni ijro etishda mavjud bo'lgan applikator hamma vaqt to'g'ri kelavermaydi. SHuning uchun qulay applikatorani tanlashda o'qituvchining to'g'ri ko'rsatmalari katta ahamiyatga egadir. Dutor ijrochisi (barcha cholg'ular singari) o'z repertuariga turli davrga mansub bo'lgan musiqa asarlarini kiritishi maqsadga muvofiq. Repertuar tanlashning bu prinsipini qo'llash rang - barang musiqa materiallari bilan yaqindan tanishishda va o'quvchining dunyoqarashini boyitishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Dutor ijrochisining taxminiy repertuar rejasini keltiramiz;

1. O'zbek xalq kuylari.
2. O'zbek kompozitorlarining asarlari.
3. Qardosh halqlar kompozitorlarining asarlari.
4. Yevropa klassik kompozitorlarining asarlari.

Shuningdek, dutor ijrochisining o'quv repertuariga ikki uchta turli xarakterdagi etyudlar,

gammalar va mashqlar kiritiladi. Musiqa asarining badiiy va texnik ko'rsatkichlari dutor holg'usining ijro imkoniyatlariga mos tushishi repertuar tanlashda hal qiluvchi omillar sirasiga kiradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda musiqa to'garaklarida dutor cholg'usi orqali o'quvchilarning ijrochilik malakalarini rivojlantirishda to'garak rahbaridan pedagogik mahorat, kasbiy kompetentlikni talab etadi. Dutor ijrochiligi malakalarini rivojlantirishda o'qituvchi ijrochilik kompetensiyalarini mukammal egallaganligi bilan birga pedagogik talablarga ham javob berishi lozim. Musiqa o'qituvchi uchun faqat sozanda bo'lishning o'zi yetarli bo'lmay, undan pedagogik fikrlash, o'quvchining ichki dunyosiga ko'ra bilish, uning individual xususiyatlarini hisobga olish kabi sifatlarga ega bo'lish ham talab etiladi. Cholg'u ijrochiligidan ta'lim beradigan o'qituvchi umumiy pedagogika va psixologiya sohalaridan ham xabardor bo'lishi kerak. O'quvchi o'z o'qituvchisini haqqoniy va talabchan, kundalik hayot muommolarini to'g'ri hal qilishga o'rgatuvchi shaxs sifatida tasavvur etadi. O'quvchilar o'qituvchidagi har bir noaniq harakatlarni o'z vaqtida ilg'ab oladilar. Shu bilan birga ayrim o'quvchilar paydo bo'lgan muammoni asosan bir tarafdin, voqeaning emotsional tarafiga asoslangan holda hal etmoqchi bo'ladi. O'z o'quvchisining tabiatini yaxshi o'rganib, tushungan o'qituvchi bunday paytda o'quvchiga muayyan holatdan to'g'ri xulosa chiqarib olishda yordam berishi kerak. O'qituvchi o'z fikrini doimo haqiqiy fikrga asoslangan holda ishonirish yo'li bilan tushuntirishi lozim. O'zaro ishonch va yaxshi munosabatning paydo bo'lishida o'qituvchining xulqi, muomala madaniyati katta ahamiyatga ega. O'quvchilar o'zlari yoqtirgan o'qituvchilarga taqlid qilishlari yaxshi ma'lum. Agar o'qituvchining so'zi bilan amaldagi ishlari orasida to'la mutanosiblik, bo'lsa, o'quvchilarning shu o'qituvchiga bo'lgan hurmati yanada ortadi. O'qituvchiga nisbatan oddiy va samimiy munosabatda bo'lish o'qituvchilarning asosiy vazifasidir.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yilistiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
- 2.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent "O'zbekiston" – 2017 y.
- 3.Mirziyoev Sh.M. O'zbek maqom san'atini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2017 yil.17 noyabr.
- 4.Azizzadjayeva N. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogikmaxorat"(o'quv qo'llanma) T.

2006.

5. Soipova, D. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Musiqa. (2019).

6. B. Rahimjonov "Dutorchilar ansambli" T. 2002-y 39-bet

7. Dutor darsligi Gulchehra Muxamedova Toshkent 2011-yil 5-10 bet.

## MUSIQA TO'GARAKLARIDA CHOLG'U IJROCHILIGI ORQALI O'QUVCHILARNING ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH.

**Samatova Dilnoza Salaidinovna**

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti "Musiqa ta'limi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

[dilnozasamatova@gmail.com](mailto:dilnozasamatova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada musiqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish, sinfdan tashqari tarbiyaviy va ta'limiy ishlarning mazmuni, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish va ularning ish faoliyatini turli xil faoliyat asosida pedagogik jihatdan tashkil etish mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga o'quvchilarni musiqa to'garaklari mashg'ulotlari orqali estetik tarbiyalashning shakl va metodlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** cholg'u ijrochiligi, estetik tafakkur, sinfdan tashqari ishlar, musiqa to'garaklari, shakl, metod, tarbiyaviy ishlar, to'garak rejasi, o'quvchilar, to'garak rahbari, vazifalari.

**Annotation.** In the article, the development of aesthetic thinking of students through playing instruments in music clubs, the content of educational and educational work outside the classroom, meaningful spending of free time of students, and pedagogical organization of their work based on various activities the content is revealed. At the same time, the forms and methods of aesthetic education of students through music clubs are highlighted.

**Key words:** musical instrument performance, aesthetic thinking, extracurricular activities, music clubs, form, method, educational activities, club plan, students, club leader, tasks.

**Kirish.** Sinfdan tashqari ishlar mazmuni - umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni musiqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali estetik tafakkurini rivojlantirish, komil inson sifatida shakllanishiga va ularni mustaqil hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratib beradi. Sinfdan tashqari ishlarga o'quvchilar bilan birga olib boriladigan va ularga ta'lim-tarbiya berishga va estetik tarbiyalashga qaratilgan turli yo'nalishdagi mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bu mashg'ulotlar pedagogik faoliyat yuritayotgan jamoa, sinf rahbari, ma'naviyat boshliqlari hamda, musiqa to'garagi rahbari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtirib boriladi. Maktabda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda musiqa to'garagi mashg'ulotlari katta yordam beradi[3]. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllariga ommaviy ishlar, tadbirlar, tanlovlar, davra suhbatlari, ko'rgazmalar, kitob taqdimotlari, tabiat qo'yniga sayohat, ochiq eshiklar, muzeylarga sayohat, tarixiy obidalarga ekskursiyaga chiqishlar, to'garak mashg'ulotlari, mustaqil ishlar (o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va h.k. bilan mustaqil shug'ullanishi) ni kiritish mumkin[1].

Musiqqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish birinchidan o'quvchining individual qobiliyatlarini har tomonlama ochib berishga, o'quvchilarni o'zini-o'zi namoyon etishga, o'zlariga ishonchni paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Ikkinchidan, ularning insoniy fazilatlarini va shaxsiy tajribasini, rang-barang faoliyatini va bilim, ko'nikmalarini boyitib boradi. Uchinchidan, o'quvchilarda xilma-xil faoliyat turlariga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishini oshirishga yordam beradi. O'quvchilarda mehnat qilishga qiziqishi shakllanib, ular o'z faoliyatlarini o'zlari mustaqil ravishda tashkil etishga o'rganishadi. To'rtinchidan, o'quvchilar o'zlarining individual xususiyatlarini namoyish etishga va boshqalar bilan hamkorlik qilishga, o'z o'rtoqlari haqida qayg'urishga o'rganadilar. Shu bilan birga sinfdan tashqari ishlarning har bir turi ijodiy, bilimga qaratilgan, sport, mehnat, o'yin harakatlarida bo'lib, o'quvchilarni muayyan yo'nalishidagi o'zaro hamkorlik tajribasini boyitadi. Musiqqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish bir tomondan o'quv jarayonini rivojlantirishga ishlasa, boshqa tomondan o'quvchilarning tarbiyaviy tomonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar va Metodologiya.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-112 Qaroriga ko'ra 2022/2023 o'quv yilidan boshlab "ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi"<sup>14</sup> belgilab qo'yildi. Unga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qiyotgan o'quvchilar mazkur qarorning 1-ilovasida keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasini ijrochilik ko'nikmasini egallashlari keltirilib o'tilgan.

Bunga ko'ra musiqqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari ishlarning shakli va metodlariga to'xtalib o'tamiz.

I. Individual sinfdan tashqari ishlarning shakllari. Individual sinfdan tashqari tarbiyaviy ishning umumiy maqsadi – shaxsning to'laqonli rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish o'quvchida ijobiy "men" konsepsiyasini shakllantirish hamda uning shaxsidagi xilma-xil tomonlarni, individual imkoniyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Individual ishning mohiyati o'quvchilarni umumlashtirish, unda o'z- o'zini takomillashtirish, o'z-o'zini tarbiyalash va estetik tarbiyalash ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Individual ishning samaradorligi oldiga qo'yilgan maqsadga muvofiq ish shaklini aniq tanlashgagina emas, balki o'quvchini ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilishga ham bog'liq. O'quvchi bilan olib boriladigan individual ish pedagogdan kuzatuvchanlikni, nazoratni, ehtiyotkorlikni, sermulohazalikni talab etadi[3]. Uning samaradorligida pedagog bilan o'quvchi o'rtasida aloqa o'rnatilishi asosiy shartlardandir. Quyidagi shartlarga rioya qilingandagina bularga erishish mumkin:

1. O'quvchining tuyg'ulari, kechinmalari, istaklarini to'la qabul qilish. Bundan tashqari, yosh xususiyatlariga g'ayriixtiyoriylik, shaxsiy tajribaning yetishmasligi, irodaning kuchsizligi, his-tuyg'ularning aql-idrokdan ustun kelishiga ko'ra bolaning kechinmalari alohida keskinlik kasb etadi va uning kelgusi taqdiriga muhim ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchining o'quvchini tushunishi va qabul qilishini ko'rsatishi juda muhimdir. Bu o'qituvchi o'quvchining xatti-harakati va ishlarini ma'qullaydi degan gap emas.

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son

2. Tanlash erkinligi. O'qituvchi har qanday yo'llar bilan muayyan natijaga erishishga intilmasligi kerak. O'qituvchi hech qachon o'quvchini majbur qilmasligi kerak. Har qanday tazyiq istisno qilinadi. O'qituvchi shuni yodda tutishi kerakki, o'quvchi shaxsiy qaror qabul qilish uchun to'la haqlidir. Pedagogning vazifasi - o'quvchini o'qituvchi taklif qilgan qarorni qabul qilishga majburlash emas, balki to'g'ri tanlash uchun barcha sharoitlar yaratishdir.

3. O'quvchining ichki ruhiyatini tushunish o'qituvchidan o'quvchi yuboradigan noverbal axborotni o'qiy bilishni talab etadi. Mazkur shartlarga rioya qilmaslik pedagog va bolaning muomalasida psixologik to'siqlar paydo bo'lishiga olib keladi.

II. Sinfdan tashqari ommaviy ishlarning shakllari. Sinfdan tashqari ommaviy ish shakllari pedagogga har bir o'quvchiga jamoa orqali ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Bunday ishlar o'quvchilarni boshqalarni tushunish, jamoa bo'lib ishlashda birgalikda harakat qilishga, tengdoshlari va kattalar bilan hamkorlik qilishga o'rgatadi. Umumiy maqsadga erishish uchun har bir ishtirokchi o'zining hissasini qo'shishi lozim. Hamma bajarayotgan ishning muvaffaqiyati har bir ishtirokchining harakatiga bog'liq.

To'garak ishlarini tashkil etishda to'garak rahbari o'ziga ish rejasini tuzib olishi zarur. To'garak mashg'ulotlari o'quvchilar yoshiga qarab turli guruhlardan iborat bo'ladi. Maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilaridan va yuqori sinf o'quvchilaridan har xil to'garaklar tuzish mumkin. Bundan tashqari har bir sinfning o'quvchilaridan tuzilgan alohida to'garaklar, musiqa san'atiga bo'lgan qiziqishiga va qobiliyatiga qarab ham musiqa to'garaklari tashkil etilishi mumkin. To'garak jamoasi o'rtacha 10—16 kishidan iborat bo'ladi. Bu o'z navbatida qaysi to'garak turini tanlashga bog'liq. 10-16 dan ortiq kishilik to'garak jamoasini boshqarish uchun rahbar ma'lum darjada mahoratli va tajribali bo'lishi talab qilinadi.

Inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamolotini ta'minlashda san'atning, jumladan, musiqaning ahamiyati katta. Zero san'at asarlari vositasida kishining badiiy dunyo kengayib ma'naviyati shakillanadi. Ma'naviyatni shakillantirish esa, har bir davrning muhim vazifasi bo'lib, uni hal etish nihoyatda dolzarb. San'at vositasida musiqa madaniyati, estetik tarbiyalashda, bola shaxsining ma'naviyatini shakllantirishni izchil amalga oshirishda umumta'lim maktablarida tashkil etilgan musiqa to'garaklarining ayniqsa roli katta. Iste'dod tufayli respublika maktablarida musiqa ta'lim tarbiyasining yangi, Konstitutsiyasi qabul qilindi[5]. Musiqa dasturlari ishlab chiqildi. Musiqa darslarini milliy musiqa merosimiz ustivorligida amalga oshirish yuzasidan uslubiy qo'llanma tavsiyanomalar nashriyotlarida chop etilmoqda.

Dars-musiqa tarbiya tizimida asosiy omil hisoblanadi. Biroq musiqa tarbiyasi tizimida dars jarayonlarini to'ldiruvchi va boyituvchi yana bir omil mavjud bo'lib, u sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimidir. Tarbiyaga oid masalaga yondashilganday eng avvalo uning ahamiyati va maqsadi. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ahamiyati: birinchidan-o'quvchilarning badiiy ehtiyojini qondirish bo'lsa, ikkinchidan sinfda olingan bilim va malakalarni boyitishni kengaytirish, boyitish va amaliy faoliyatga qo'llashdan iborat. Iqtidorli o'quvchilarni musiqiy rivojlantirish uchun, zaruriy shart sharoitlarni yaratib borishdan iboratdir. Sinfdan tashqari musiqa mashg'ulotlarining samaradorligiga erishish orqaligina o'quvchilar ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyati tarbiyalash maqsadini amalga oshirish ancha samarali bo'ladi.

Musiqa to'garagi rahbari faoliyatini kuzatish tahlil etish natijalari ularni ixtisoslikning mazkur yo'nalishi sohasida maxsus tayyorgarlikga to'liq ega bo'lishi kerakligidan dalolat beradi. Bu ayniqsa, to'garak rahbarining sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimiga kiradigan tadbirlarning sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi tizimiga kiradigan tadbirlarning ommaviy va

to'garak ko'rinishlarini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarida namayon bo'ladi. Demak sinfdan tashqari tarbiyaning ommaviy hamda to'garak shakllari mavjud. Ommaviy tadbirlar o'z mohiyatiga ko'ra ko'proq o'quvchilarni jalb qilishni toqazo etadi. Ammo, ulardan qandaydir alohida qobiliyati maxsus musiqiy bilim va malakalar talab qilinmaydi. Bu tadbirlarga qo'shiq bayramlari musiqa haftaligi, san'at bayramlari, musiqiy ijodiy uchrashuvlar ko'rik tanlovlar va boshqalar kiradi. Bu tadbirlar musiqiy tarbiya vazifasini bajarib o'quvchilarning badiiy qiziqishlarini rivojlanishiga ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga va o'quvchilarni estetik tarbiyalashga samarali yordam beradi.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining yana bir shakli-musiqiy to'garaklar bo'lib u an'anaviy xarakterga ega. Uning tarkibiga xor, musiqa asboblari chalishni o'rganish, Vakalcholg'u dastasi, cholg'uchilari (dutorchilar, rubobchilar, doirachilar) dastalari kabi to'garaklar kiradi[2]. Musiqa tarbiyasining bu shakli ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. To'garaklarning asosi musiqa darslaridir. Chunki musiqa to'garaklariga layoqatli va musiqa darslariga to'la ko'nikmagan o'quvchilar jalb qilinadi. Dars har bir bolaning layoqati va qiziqishi hisobiga olinib uning xohishi bilan u yoki bu musiqa tugragiga jalb qilinadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, mashhur san'atkorlar, iste'dodli san'atkorlar, ajoyib xonandalar ana shunday musiqiy to'garaklardan birida tarbiyalanib kamol topganlar. To'garak faoliyatini faollashtiradigan narsa maktab sahnasidir. Unda to'garakchilar sahnada ijro etish orqali qobiliyati, tomoshabinlarning esa, ijrolarni tinglab va kuzatib musiqiy-estetik didlari rivojlanadilar.

To'garak ishlari ham maxsus dasturlari va kalendar tematik reja asosida olib boriladi. Maktabdan tashqari musiqiy tarbiya muassasalaridan qatnashadigan bolalar ham o'qituvchilar nazoratidan bo'lib, maktab musiqa hayotiga ularning faol qatnashishini ta'minlash lozim. Ommaviy tadbirlardan erishilgan yutuqlar diplom yoki shahodatnomalar maktabning umumiy majlislarida ota-onalar ishtirokida e'lon qilinadi. Faol qatnashgan to'garak a'zolari rag'batlantiriladi. Pirovardida hisobot konserti beriladi. Umuman olganda to'garak faoliyati maktab hayoti bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Dars singari xalq ta'limi tizimi tomonidan har bir to'garak turining o'quv dasturi chiqariladi. To'garak rahbari musiqa asarini dasturdan tanlab oladi. E'lon qilingan yangi asarlardan yana qo'shimcha tanlab olinadi va to'garak a'zolari bilan birgalikda repertuarlar rejasi va uni o'rganish belgilanadi. Shunday qilib, sinfdan va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya tizimlari o'quvchi-yoshlarni musiqiy madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Bu tizimlar muhim pedagogik yo'nalishlar bo'lib, uni takomillashtirish musiqa ta'limning dolzarb muammolaridandir.

Musiqa to'garagi rahbarining qilishi lozim bo'lgan ishlar talaygina. Ular Birinchidan, umumta'lim maktablarida darsdan tashqari musiqa to'garaklarida rahbar musiqa san'atining keng namunalariidan foydalanishda ularni bir nechta mezonlar asosida qo'llashi maqsadga muvofiqdir.

1. Musiqa to'garagi turlari bo'yicha tashkil etilgan musiqa to'garaklarining a'zolarining iqtidorini aniqlash, musiqa asarlari repertuarini tanlash va o'quvchilarning qiziqishini va o'zlashtirishlarini hisobga olish;

2. Musiqa asarlaridan repertuar tanlashda o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini, qiziqishini, ijrochilik imkoniyatlarini inobatga olish;

3. Repertuarlardan tanlangan asarlarni o'quvchilarning dunyoqarashi, tafakkurini, natijaviyligi bilan birga estetik tarbiyaviy ta'sirchanligiga ega bo'lish;

4. To'garak a'zolarida o'qishga ijodkorlikka, mehnatga, ijodiy izlanish va mustaqil ishlashga va ijtimoiy foydali ishlarga rag'bat uyg'otish;

5. Musiqa asarlarini o'rganish orqali to'garak mashg'ulotlarida musiqa ta'limining boshqa tarkibiy qismlari (Musiqa savodi, musiqa nazariyasi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi) ni o'zlashtirish uchun ahamiyatliligiga e'tibor qaratish.

Ikkinchidan, musiqa asarlaridan ta'lim-tarbiya maqsadlarida va estetik tarbiyalashda foydalanish sinfda darsda o'tilgan mavzularni mustahkamlashga xizmat qilishiga e'tibor berish;

Uchinchidan, o'zbek xalq musiqa ijodiyotiga murojaat qilganda ularning qaysi mahalliy musiqa uslubiga xosligi, janri, ijrodagi musiqiy cholg'ularning ishtiroki, raqs jo'rliigi kabi xususiyatlarga e'tibor berish[4].

To'rtinchidan, umumta'lim maktablari musiqa to'garagi rahbalari har bir mashg'ulotga puxta tayyorgarlik ko'rishlari, musiqa ta'limi va musiqa ijodiyotining nazariy, amaliy bilimlari bilan boyitib borishlari, o'z ustida ishlab bilim, ko'nikma va malakalarini oshirib borishi lozim.

**Muhokama va natijalar.** Musiqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivjollantirishning ahamiyati. Butun bir ta'lim tizimidagi pedagogik jarayonning maqsad va vazifalariga o'ziga xos xarakter beradi va ularni amalga oshirish uchun uzviy xizmat qiladi. Masalan, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar faoliyatida ta'lim berish birinchi darajali ahamiyat kasb etmaydi[3]. Sinfdan tashqari ishning ta'lim berish vazifasi ilmiy bilimlar sistemasini o'quv ko'nikma va malakalarini shakllantirishdangina iborat emas, balki o'quvchilarni estetik tarbiyalash va shu bilan birga muayyan xulq-atvor malakalariga jamoaviy hayotiga muayyan ko'nikmalariga o'rgatishdan ham iborat. Sinfdan tashqari ishda uning rivjollantiruvchi vazifasi katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning vazifasi o'quvchilarning individual qobiliyatini rivjollantirishdan ham iborat.

Musiqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivjollantirish individual ishda ham, ommaviy ishlarda ham foydalanilishi mumkin. Bular quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy vazifalarni o'rganish. Bu bosqich o'quvchilarning va sinf jamoasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga qaratiladi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad pedagogik reallikni obyektiv baholash, undagi ijobiy jihatlari (o'quvchidagi, jamoadagi eng yaxshi tomonlar)ni hamda nimalarni tuzatish, shakllantirish va eng muhim vazifalarni aniqlashdan iborat. O'rganish ishlari pedagogik tadqiqotlarda ma'lum bo'lgan metodlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, kuzatish yordamida pedagog har bir bola va umuman jamoa to'g'risida axborot to'playdi. Suhbat axborot to'plovchi metoddir. Bunda suhbat faqat o'quvchi va sinf bilan emas, balki ota-onalar, sinfda ishlovchi boshqa o'qituvchilar bilan ham o'tkaziladi. Individual ishda bolaning faoliyati mahsulotlari: rasmlar, mayda-chuyda buyumlar, she'r, hikoya va hokazolar katta ahamiyatga ega. Jamoani o'rganishda sotsiometriya metodi axborot berish jihatidan ustun turadi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishni modellashtirish shundan iboratki, pedagog o'z xayolida muayyan shakl obrazini yaratadi. Bunda sinfdan tashqari ishning maqsadi, umumiy vazifalari mo'ljallanish sifatida foydalanilishi kerak. Umumiy maqsad - kirishimlilik sifatlarini tarbiyalash bo'lsin. Aniq maqsad — o'z-o'ziga baho berishni oshirish, xavotirlanish holatini yo'qotish, ya'ni ijobiy "Men" konsepsiyasini shakllantirish. Masalan 1- sinf o'quvchilari xayrixoh, yoqimtoy, lekin bilimga intiluvchan emas. Sinfdan tashqari ishning umumiy maqsadi - bilishga bo'lgan qiziqishni rivjollantirish, asosiy vazifa - rivjollantirish, aniq maqsad - o'quvchilarning ong-bilim doirasini kengaytirish, bilish faolligini shakllantirish. Sinfdan tashqari ishning maqsadi,

vazifalari hamda sinf va o'quvchilarni o'rganish natijalariga muvofiq ravishda uning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari tanlanadi. Mazkur bosqich tarbiyaviy vazifalar, ularning mazmuni, shakllariga tuzatishlar kiritish va keyingi sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirish uchun juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda musiqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish o'quvchilarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni musiqiy ruhda tarbiyalash, musiqiy bilimni, dunyoqarashini, musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning urf-odat va an'alaridan mazmunli foydalanish, milliy qadriyatlarga asoslangan tashkiliy pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga qo'llashdan iboratdir[6].

Umumta'lim maktablarining musiqa to'garaklarida cholg'u ijrochiligi orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantirish faoliyatini yo'lga qo'yishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish tavsiya etiladi:

-cholg'u ijrochiligi faoliyatini yo'lga qo'yish bilan bog'liq tashkiliy ishlar bajarilishini ta'minlash;

-musiqa to'garaklari a'zolari ro'yxati, mashg'ulot bo'ladigan kunlar jadvali shakllantiriladi;

-musiqa to'garaklarining o'quv-me'yoriy hujjatlarini va moddiy-texnik ta'minotini yaratish;

-musiqa to'garaklarini samarali tashkil etish, mazmunini boyitish, musiqa to'garagi rahbari ijodiy izlanishlar olib borish;

-to'garak ishtirokchilarini turli tadbirlar, tanlovlar, festival va ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini ta'minlash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent.: O'zbekiston. 2021. –464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son Qarori
3. Qudratov I. Odilov A. «Cholg'u asboblarida ijrochilik ko'nikma va malakalarni shakllantirish», Uslubiy qo'llanma., SamDU., 2015 yil.
4. Sharipov SH.S. Kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilar To'garak ishlarini tashkil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. Monografiya. –Toshkent: «FAN», 2005. 130 b
5. Madrimov B.X. «O'zbek musiqa tarixi», Toshkent., «Barkamol fayz media», 2018 yil.
6. <http://www.istedod.uz> – “Iste'dod” jamg'armasi sayti.
7. <http://www.edunet.uz> – maktablar, o'quvchi va o'qituvchilar sayti.

## **TALABALARNI MUSIQA VOSITASIDA MA'NAVIY –AXLOQIY TARBIYALASHGA PEDAGOGIK YONDASHUV.**

**Boliyev Uchqun Ismatovich**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

[uchqunboliev@gmail.com](mailto:uchqunboliev@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada oliy o'quv yurtida talabalarni musiqa vositasida ma'naviy – axloqiy tarbiyalashning mavjud holati haqida keng yoritilgan. Bundan tashqari talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhitning ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Insonni rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya, shaxs faolligi har birining alohida o'rni, vazifasi borligini maqolada batafsil keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, talaba, musiqa vositasida, ma'naviy –axloqiy tarbiyalash, muhit, irsiyat, muhit, tarbiya, shaxs faolligi, insoniy fazilatlar, talaba ijtimoiylashuvi.

**Annotation.** The article describes in detail the current state of spiritual and moral education of students in the higher education institution through music. In addition, the importance of the environment in the spiritual and moral education of students was discussed. It is mentioned in detail in the article that heredity, environment, upbringing, personal activity each have a special role and function in the development of a person.

**Key words:** Higher education, student, through music, spiritual and moral education, environment, heredity, environment, upbringing, personal activity, human qualities, student socialization.

**Kirish.** Shaxs tushunchasi insonga xos. Inson sut emizuvchi hayvonlarning eng mukammal rivojlangan sinfiga xosdir. Bunda go'yoki inson biologik zot sifatida namoyon bo'ladi. Biologik zot sifatida inson qator xususiyatlarga: o'z organizmining tuzilishi (tik yurish, harakat organlarining mavjudligi, bosh miya va uning rivojlanganligi, ko'zi, sochining rangi, qon guruhi, ota-onasiga o'xshashligi va farqi, oliy nerv faoliyati) va ongi yuqori rivojlangan fikrlash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ammo biologik xususiyatlari insonni to'la xarakterlay olmaydi. Uning mohiyati inson ekanligi, insonda esa, ijtimoiy mohiyat belgilovchi hisoblanadi.

Pedagog, psixolog va faylasuflarni hanuzgacha muhitning inson shaxsiga ta'siri qiziqtirib kelishiga qaramay, ular yagona bir fikrga kelganlari yo'q. Ularning fikrlarida umumiylikdan ko'ra qarama-qarshilik ko'proq namoyon bo'ladi. Modomiki, tarbiya obyekt shaxs (talaba) ekan, eng avvalo, shaxs tushunchasini, so'ng uning shakllanishi va unda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rnini aniqlash o'rinlidir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).** Insonning mohiyati shaxsligida yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lib, o'ziga xos psixik xususiyatlari (mijoz, xarakter, qobiliyat, iroda, ongining rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj, qiziqish) hamda ijtimoiy vazifalari (borliqqa, o'ziga, kishilarga, jamiyatga, mehnatga munosabati, xulq-atvori, ijtimoiy faoliyati) bilan ajralib turadi. Inson dunyoga biologik zot sifatida keladi. O'zining odamlar o'rtasida, jamiyatda (ijtimoiy) muhitda hayoti davomida individual uzoq rivojlanishi

jarayonida insoniy xislatlarni egallab, shaxs bo'lib shakllanadi. Demak, insonning shaxsga aylanishi uzoq davom etadigan rivojlanish davrining mahsulidir[4].

Rivojlanish tabiat va jamiyatdagi hamma jarayonlarga xos umumiy xususiyatdir. Ammo insondagi rivojlanish o'ziga xos namoyon bo'ladi. Insonga nisbatan ko'pincha «shakllanish» tushunchasi qo'llaniladi. Shakllanishda insonda hayoti davomida paydo bo'ladigan sifatlarni tushunish lozim. «Rivojlanish» (kamolot) «shakllanish»ga nisbatan keng tushuncha bo'lib, insonning umri va faoliyati davomida unda paydo bo'lib rivojlanadigan ruhiy, axloqiy jismoniy o'zgarishlar, uning ijtimoiylashuvi uchun zarur insoniy xislatlar va tajribasini o'z ichiga oladi.

Demak, insonda ikki xil mohiyat: biologik va ijtimoiy mavjudotlik o'zaro bog'liq holda mavjud. Shundan kelib chiqib, shaxs shakllanishida biologik (irsiyat), ijtimoiy omillar (muhit) va tarbiya, shaxs faolligining o'zaro munosabati asrlar davomida faylasuflar, psixologlar, pedagoglarni qiziqtirib kelayotgan masaladir.

Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak shaxs shakllanishiga 4 ta omil ta'sir qiladi yoki unda belgilovchi hisoblanadi:

Irsiyat, muhit, tarbiya, shaxs faolligi.

Irsiyat yuqorida bayon qilingan biologik xususiyatlarni hamda bolaning ota-onaga o'xshashligi va farqini hamda shunga o'xshash qator irsiy axborotlarni o'zida mujassamlashtirib, inson organizmining ichki rivojlanish qonuniyatlarini biologik jihatdan tartibga soladi. Irsiyatning qator belgilarini bevosita ko'zga tashlanishi o'tmishda Aristotel, Platon kabi qadimgi grek olimlarini va XX asrda bixeviorizm oqimi tarafdorlari, E.Torndayk hamda AQSH pragmatik falsafasi va hozirgi zamon pedagogikasining asoschisi D.Dyui, A.Kombslarni shaxs shakllanishida irsiyat belgilovchi, deb o'z ta'lim-tarbiya nazariyalarini shu asosda qurdilar. Shaxs shakllanishida nuqul irsiyatning roli (biologik xususiyatlar)ni tan olib, boshqa omillarni inkor qilish pedagogikada o'ziga xos biologizatorlik oqimini keltirib chiqardi. Biologizatorlar insonni faqat «gen to'plami»dan iborat, avloddan-avlodga o'tuvchi xususiyatlar bo'lib, uning butun sifatlarini va kelajagini belgilaydi, deb qaraydilar. Holbuki ijtimoiy tajriba va fanning keyingi yutuqlari ijtimoiy taraqqiyot jarayonida nafaqat insonning ijtimoiy mohiyati, balki biologik xususiyatlari ham o'zgarib, inson zotining biologik evolyutsiyasi to'xtamaganligini ko'rsatmoqda.

Muhit tushunchasi kishilar yashab, faoliyat ko'rsatadigan davr-siyosiy tuzum-ijtimoiy voqelik sifatida kishilarning ishlab chiqarish, iqtisodiy-siyosiy, axloqiy, ruxiy, mafkuraviy munosabatlarini belgilaydiki, bir so'z bilan ularni ijtimoiy munosabatlar deb ataymiz.

Agar biologik xususiyalar insonga ta'sir qiluvchi ichki tabiiy hayot sharoiti bo'lsa, ijtimoiy voqelikda unga ta'sir qiluvchi kompleks tashqi uni o'rab turgan ijtimoiy sharoit,

uning jamiyatdagi hayot sharoiti, ijtimoiy munosabatlari va unda shaxsning bajaradigan insoniy majburiyatlarini o'z ichiga oladi. Modomiki, inson shaxs sifatida emas, individ sifatida dunyoga kelar ekan, uning insoniy (ijtimoiy) xislatlari ijtimoiy hayot va uning asosida jamiyatda kishilarning mehnat faoliyatida ular o'rtasida amal qiluvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi belgilovchi rol o'ynaydi. Chunonchi, kishilarning insoniy sifatleri, ulardagi ijtimoiy mohiyat ular yashayotgan davr va tuzumning mahsulidir.

Yuqoridagilar bilan birga muhit tushunchasiga inson tug'ilgan oila va unda shakllangan oilaviy munosabatlar tizimi ham muhim ta'sir kuchiga ega. Bunda shakllangan oilaviy munosabatlar kishilarning dastlabki insoniy xislatlarni egallashida muhimligini alohida ta'kidlash lozim.

**Muhokama va natijalar.** Shaxs shakllanishida keltirilgan omillarning birligini qator misollarda ko'rish mumkin. Chunonchi, kishilarning tabiiy yashash sharoitidagi va turmushi-hayot tarzidagi o'zgarishlar ularning shaxsiy sifatlarining o'zgarishi, o'zaro munosabatlarining o'zgarishiga olib keladi.

Talaba faolligi shunda namoyon bo'ladiki, oliy o'quv yurtida talabalar o'qish, ijtimoiy ishlarga ishtirok etish jarayonida tengqurlari va o'qituvchilar bilan o'ziga xos pedagogik munosabatlar shakllanadi. Talabaning shaxsiy sifatleri va kasbiy malakalarini yuksak rivojlanishida munosabatlar tizimida faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Talaba faolligi shaxsining kamoloti uchun boshqa omillar tizimida o'ziga xos xususiyatga ega. Faollik talabadan tanlagan sohasida kuchli, ta'sirchan faoliyat ko'rsatishni taqozo qiladi. Faollik insonda o'z sohasini, o'zini o'rab olgan muhitni o'qish va ijtimoiy ishda faol ishtirok etishida namoyon bo'ladi. Faollik shaxsga xos xislat bo'lib, kishilar, atrof muhit, kasb egallashdagi harakatlari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Talaba faolligida impulsiv (yetarli anglanmagan) va anglangan holatlar bo'lishi mumkin. Boshda faollik o'zini anglash va o'z ehtiyojini qondirish uchun atrof muhitdagi narsa, predmetlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Talaba o'zini anglashi va o'zini kasbining egallashidagi mas'uliyatini tushunishi bilan faollik anglangan yo'nalish oladi.

Oliy o'quv yurti talabalarining shaxsiy faolligi to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, kuzatishlar uni qator omillarga bog'liqligini ko'rsatadi. Talaba shaxsining shakllanishida bu omillar yaxlit tizim sifatida, o'zaro bog'liqlikda ta'sir ko'rsatadi. Ammo bunda ularning ta'siri bir-biriga mutlaq teng bo'lmay, o'zgaruvchan xarakterga ega. Ijtimoiy taraqqiyot xarakteriga qarab ularning o'rni va ta'sir darajasi o'zgaruvchan bo'ladi.

Tajriba ko'rsatadiki, talabaning ko'pgina sifatleri jamiyat hayot tarzi ta'sirida shakllanadi. Kishilardagi mehr-muruvvat, mehr-shafqat, o'zaro g'amxo'rlik, vatanparvarlik,

xalqparvarlik, mehribonlik, aynan turmush tarzi, jamiyatdagi munosabatlarning hosilasidir. Ammo insondagi takrorlanmas individual xususiyatlar oila va mikromuhit ta'sirida shakllanadi.

Shu bilan birga talabaning mikromuhitga nisbatan mustaqilligini ta'kidlash lozim. Bu mustaqillik uning hayotiy tajribasi, mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyati, o'zini anglashi, qadriyatlarni qadrlashining natijasidir. talabaning mustaqilligi qayd qilinganidek, uning mikromuhitdagi faol hayotiy pozitsiyasiga ham bog'liq.

Talabaning mikromuhit bilan o'zaro munosabatidan kelib chiqib tarbiyaviy ishlar mazmuni va uning yo'nalishini belgilash mumkin. Bunda quyidagilardan kelib chiqmoq kerak:

- talaba va mikromuhit xususiyatlarini inobatga olish;
- talaba va mikromuhitning o'zaro ta'sirini shunday yo'naltirish kerakki, talabaga ijobiy ta'sir etuvchi omillarni kuchaytirish, salbiylarini zararsizlantirish yoki ta'sirini kamaytirish;
- talabaning mikromuhitda ijtimoiy tajribasi va faolligini muntazam oshirish asosida jamiyat ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatish.

Mikromuhitning talabaga ta'siri uni idrok qilish darajasiga, umumiy madaniyati va psixofiziologik xususiyatlariga bog'lik. Mikromuhitning talabaga ta'sirining kuchli va ta'sirchanligi individning, uning xarakterining mustahkamligi, hayot tajribasiga, o'zini anglash darajasi, qadriyatlarini qadrlashi bilan belgilanadi. Shu bilan birga talabaning sifatleri mikromuhit talabiga mos kelishi ham muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, mikromuhit xarakteri va tipi kishiga har xil ta'sir qiladi.

O'quv yurtlarida mikromuhit guruh hisoblanadi. Guruh o'quv yurtining tarkibiy qismi bo'lib, uning muhitida talabalar o'zaro va guruh rahbari bilan ma'lum munosabatlar tizimida bo'ladilar. Bu munosabatlar ularning o'quv faoliyati bo'lib, shartli ravishda ishlab-chiqarish munosabatlarini tashkil etadi. Bunda har bir talaba o'z o'rniga ega bo'lib, bilim saviyasi, ijtimoiy ishlarga ishtiroki darajasi va guruhdagi bajaradigan roli jihatidan ma'lum mavqega ega bo'ladi. Shu bilan birga guruhda ijtimoiy-siyosiy, rasmiy va norasmiy vazifalari orqali ham ma'lum munosabatlar tizimida bo'ladi. Bundan tashqari moddiy ahvoli-davlat granti yoki shartnoma asosida o'qishi ham o'zaro munosabatlarda ma'lum ta'sir o'tkazishi mumkin. Shularning hammasi asosida guruhda shaxslararo munosabatlar o'rnatilib, guruh a'zolarining individual-psixologik xususiyatlari va umumiy madaniy darajasi bilan belgilanadi.

Talaba rivojlanishining zaruriy sharti uning olamga qiziqishining kengligidir. Bu ayniqsa qiziqishlar markazlashgan holda asosiy, markaziy biron-bir masalaga yo'nalganligida yaqqol namoyon bo'ladi. Ammo yosh o'tishi bilan talaba qiziqishlari markazlashib, kasbiy qiziqish belgilovchi bo'lib qoladi. Kasbiy qiziqish belgilovchi bo'lib, talabaning ma'lum faoliyatga yo'nalganligini belgilab, kasbga doir qiziqishlar bilan bog'liq bo'lib qoladi. Ma'lum kasbga

qiziqish muhim aloqalar asosini tashkil etib, o'zini va kasbini takomillashtirish ichki shart-sharoitiga aylanib, o'z sohasiga (faoliyatiga) muhabbatga aylanadi[5].

«Talaba ijtimoiylashuvi», «talaba shaxsining ma'naviy va ma'rifiy tarbiyasi» tushunchalari o'zaro bir-biriga yaqin bo'lib, uning shakllanishida Guruhning ma'lum davrlarida talabaga uning xulq-atvori, ahloqi uchun ijtimoiy mohiyatli sifatlarni egallashini va shu asosda o'zining guruh, atrof muhit bilan o'zaro munosabatlarini tartibga solishni anglamoq darkor. Talabaning ijtimoiylashuvi yoki ma'naviy-ma'rifiy kamoloti uning guruhdagi birinchi kunlaridan boshlanib, shu davr mobaynida susayib yoki kuchayib davom etishi hamda hayotining oxirigacha mazmunan to'lishib, unda ijobiy yoki hayot tarzi asosida salbiy sifatlar belgilovchi bo'lishi mumkin.

«Talaba ijtimoiylashuvi» va ma'naviy - ma'rifiy kamolotida obyektiv omillar: ijtimoiy tuzum, yashayotgan jamiyati, muhit va ta'lim-tarbiyani tashkil qila olish (davlat, ijtimoiy, yuridik tashkilotlar, ta'lim muassasalari)-subyektiv omil muhim rol o'ynaydi. Talabaning ijtimoiylashuvi va ma'naviy-ma'rifiy kamolotining tezlashuvi darajasi guruh rahbarining ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog'liq bo'ladi. Talaba guruhning ijtimoiy-iqtisodiy talablari va mafkuraviy axloqiy normalarini egallab olishi shu munosabatlar xarakteri bilan belgilanadi. Shunday qilib, talaba ijtimoiylashuvi va ma'naviy-ma'rifiy kamoloti uning jamiyat siyosiy-huquqiy va xulq-atvor normalarini uzluksiz, ketma-ket ijodiy o'zlashtirib olishi hamda o'zining hayotida ularga amal qilish jarayonidir.

Yuqoridagilar bilan birga «talabaning rivojlanishi», «talaba kamoloti» tushunchalari ham mavjud bo'lib, ular talaba ongida va xulq-atvorida birin-ketin, muntazam va ketma-ket bo'ladigan o'zgarishlarda o'z ifodasini topadi.

Shu bilan birga ma'naviy-axloqiy tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida talabaga mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatib, guruh uchun zaruriy xulq va axloq normalarini singdirish vositasi hamdir. Talabaning insoniy xislatlari guruhning butun ijtimoiy-ma'naviy hayot tarzi ta'siri ostida shakllanadi. Talabada umuminsoniy va milliy qadriyatlarni shakllantirish davlat tashkilotlari, ijtimoiy, guruh va yoshlar tashkiloti yoki davlat va nodavlat tashkilotlarining maqsadga qaratilgan, ta'sirchan olib boradigan ma'naviy-ma'rifiy ishlari asosida amalga oshiriladi.[7]

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati yana shundaki, uning maqsad va vazifalari har bir jarayonda guruh oldida turgan aniq ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy va axloqiy talablar bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, guruh talaba sifatlari xususiyati va yo'nalishini belgilab, ma'naviy-axloqiy tarbiya oldiga ularni ijtimoiy buyurtma sifatida qo'yadi.

Buning boisi shundaki, guruhdagi ijtimoiy munosabatlarning asosini ma'naviyat tashkil etadi. O'z navbatida ma'naviy rivojlanish va munosabatlar talaba ishtirokisiz amalga oshmaydi.

Bunda eng muhimi ma'naviyat talaba faoliyati orqali amal qilib, uning mehnatining samarasi hisoblanadi. Shuning uchun guruh ma'naviy rivojlanishini ma'naviy-axloqiy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Talaba aql-zakovati, ma'naviy dunyosi ma'naviy-axloqiy tarbiya mahsuli sifatida ijtimoiy-ma'naviy mohiyat kasb etib, guruh rivojining katalizatori rolini o'ynaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya maqsadi pedagoglar tomonidan ikki faoliyat shaklida amalga oshiriladi:

1) ta'lim shaklida, pedagog bilan talabaning ketma-ket o'zaro bog'liq harakatlari oqibatida talabaning ongli va chuqur bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi. Bu yaxlitlikda uchta elementni farqlash lozim: ta'lim mazmuni, ya'ni talaba va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati va ular faoliyatining metodlari va tashkiliy shakllari, ular talabada (jamoada) ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. Agar bu o'zgarishlar avvaldan loyihalaniib, belgilangan bo'lsa ularni ta'lim natijasi sifatida qabul qilish mumkin;

2) talablarni ta'limdan boshqa faoliyat turlariga jalb qilib, ta'lim jarayonida uncha amalga oshirib bo'lmaydigan (qiyin) sifatlarni o'stirish.

**Xulosa.** Ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, mehnat tarbiyasini to'liq amalga oshirib bo'lmaydi. Talabalarda ilmiy dunyoqarashni jamoaviychilik, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish uchun ularni kengroq faoliyatga jalb qilish talab qilinadi. Tarbiyaviy ish uchun yetarli sharoit yaratish (guruhni tarkib toptirish), o'qish va undan keyingi talabalar vaqtini to'g'ri tashkil qilish, hamda moddiy baza asosida ta'sirli tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish lozim.

Darsdan tashqari olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy ishlarda o'qituvchi va talabaning o'zaro birgalikdagi faoliyati «tor ma'noda»gi tarbiya hisoblanadi. «Tarbiya keng ma'noda»[6] olib borilishi uchun ularni har ikkala (ta'lim va darsdan tashqari tarbiyaviy ish) shakliga ijtimoiy yo'nalish berish lozim bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan o'qituvchilar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, qator salbiy holatlarni ko'ramiz. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik hollarda professor o'qituvchilar o'quv jarayonida ta'lim-tarbiya vazifalarini yaxlitlikda amalga oshirishiga intilmaydilar yoki ta'limning tarbiyalovchi imkoniyatlaridan to'la foydalana olmaydilar. Buning sababini izlash shuni ko'rsatdiki, aksariyat professor-o'qituvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi, ta'limning tarbiyaviy va talaba shaxsini rivojlantirish maqsadlarini mohiyati-mazmunini tushunmaydilar. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlari paytida aniq tarbiyaviy maqsadlarni qo'ya olmay, ta'limiy ya'ni o'quv materialini talab darajasida talabalar o'zlashtirishiga asosiy e'tibor beradilar. O'qituvchilar ta'lim mazmuni, shakli va o'qitish metodlarini tanlashda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yo'naltirish, darsda ma'lum munosabatlarni shakllantirish asosida bilimning

tarbiyaviy potensialini ocha olmaydilar. Eng muhimi o'rganilayotgan bilimlarni kundalik hayot, mustaqil Vatanimiz hayotidagi qaynoq ishlar bilan bog'lamaydilar.

Yuqorida ta'kidlanganidek, inson ruhiy va ma'naviy olamining rivojlanishi tizimli xarakterga ega. Shuning uchun talaba bilimlarini ishonch-e'tiqodga aylanishi uchun uni hamma faoliyat turlariga jalb qilish kerak. Ta'limni tarbiyalovchi xarakter kasb etishi uchun unda talabalarning turli faoliyat turlari bilish, idrok-fahmlash, tafakkur-anglash, axloqiy tushunchalarni mohiyatini tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish lozim.

Shunday qilib, ijtimoiy muhit va ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, muhitning o'zgarishi tarbiyaga ta'sir ko'rsatsa, o'z navbatida tarbiya muhitni va unda ijtimoiy mavjudot sifatida yashayotgan insonni o'zgartiradi. Talabalar muhit va ma'naviy-axloqiy tarbiya mahsuli sifatida, qolaversa ularning har ikkalasining iste'molchisi va yaratuvchisi hisoblanadilar. Shuning uchun bo'lajak mutaxassislarining shaxsiy va kasbiy shakllanishida oliy o'quv yurtidagi muhit va ma'naviy-axloqiy jarayonni tashkil qilish darajasi muhim omil hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. T.-2020 y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF–60-son Farmoni <https://lex.uz/pdfs/5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Norova Sh.U. O'quvchilar shaxsining rivojlanish bosqichlari –/"Kasb-hunar" ta'limi jurnali 2005yil 2 son 6-7 bet
5. Norova.Sh.U.Tarbiya samaradorligini oshirishda talabalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish. –/"Xalq ta'limi" jurnali. 2005 yil, 6-son.91-95 betlar.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild. Miriy-parxish. Tahrir hay'ati: A.Abduvohitov, A.Azizxo'jayev, M.Aminov, T.Daminov va b. – T.: "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 704 b.
7. Umarov B. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda guruh rahbarlari faoliyati.- /"Xalq ta'limi" jurnali, 2003 yil, 6-son, 59-63 betlar.

**TALABALARNING O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI ASOSIDA IJROCHILIK  
MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH.**

**Burxonova Gulrux Umurzakovna**

O'zFinPI, "Musiqqa ta'limi" kafedrasida assistenti

[gulruxburxonova4@gmail.com](mailto:gulruxburxonova4@gmail.com)

**Annotatsiya.** Musiqa san'ati insonning hayotini badiiy boyliklar bilan go'zallashtiradi, kishilarning turmush tarzida, mehnat faoliyatida, jamoatchilik ishlari va dam olishda ijobiy ta'sir etadigan muhitni yaratadi. Musiqa insonga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uni ijodga, san'atkorlikka undaydi, unda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Har bir kishini san'atga dav'at etmay to'rib, shaxsni har tomonlama kamol toptirish vazifasini bajarish mumkin emas. U atrofimizdagi voqealarning hamma boyligini yoritadi. Insonning qalbini goh g'amginlik va ta'sirchanlik xissi bilan, goh bexad quvonch va shodlik tuyg'usi bilan to'lqinlantiradi. Musiqani tinglay bilish va tushunish estetik madaniyatning muhim belgilardan biridir va busiz mukammal tarbiya bo'lmaydi.

**Kalit so'zlar:** O'zbek xalq cholg'u sozlari, musiqa, madaniyat, san'at, kuy, qo'shiq, cholg'u, cholg'u ijrochiligi, pedagogika, estetika, nota savodi, ritm, ijrochi, sozanda, musiqa asbobi, musiqiy asar;

**Annotation.** The art of music beautifies a person's life with artistic riches, creates an environment that positively affects the lifestyle of people, labor activity, Public Affairs and Recreation. Music positively affects a person, motivating him to creativity, artistry, in which he develops creative abilities. It is impossible to fulfill the task of comprehensively maturing an individual by turning everyone into art. He illuminates all the wealth of the realities around us. The soul of a person is overwhelmed by a sense of sadness and impressiveness, and goh bekhad by a sense of joy and joy. Being able to listen and understand music is one of the important signs of aesthetic culture, and without it there will be no perfect upbringing.

**Key words:** Uzbek folk instruments, music, culture, art, singing, singing, instrumental, Instrumental Performance, pedagogy, aesthetics, note basket, Rythm, performer, soloist, musical instrument, musical work;

**Kirish.** Ma'lumki, shaxsning hissiy va aqliy kamol topshirishda, ijtimoiy faolligida musiqa alohida ahamiyat kasb etadi. Yosh mutaxassisning shakllanishida eng muhim va asosiy jihatlardan biri esa – bu uning ta'lim olish jarayonida kasbiy ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirishidir. Bu asnoda davlat va jamiyat bilan bir qatorda o'qituvchi-pedagog ham katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev: "Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi. Va men ishonaman, ular dunyoni ma'naviy tanazzuldan qutqarishga qodir bo'lgan, o'zaro ahillik va birdamlikni

ulug‘lovchi avlod bo‘lib maydonga chiqadi. Shu ma’noda musiqa – hech narsa bilan o‘lchab, solishtirib bo‘lmaydigan beqiyos ta’sir kuchiga ega san’at, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz” degan edi<sup>15</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yilning o‘zida musiqa san’ati va ta’limi bilan bog‘liq 3 ta qaror qabul qilishi olamshumul hamda tarixiy voqea bo‘lganligini xalqimiz ko‘tarinki ruhda e’tirof etmoqda. Mamlakatimizda ta’lim tizimini rivojlantirish, yoshlarga jahon andozalari darajasida ta’lim berish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish, zamonaviy texnologiyalarni chuqur egallashiga ko‘mak berish hamda ilm-fan sohasidagi izlanishlarini qo‘llab-quvatlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Yurtimiz Istiqlolga erishganidan so‘ng, eng avvalo, ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, yosh avlodni milliy ma’naviyatimizning nodir namunalari asosida yetuk mutaxassislar sifatida tarbiyalash pirovard maqsad qilib olindi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** O‘zbek xalq cholg‘u sozlari uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda dastlabki musiqa cholg‘ulari eramizdan avvalgi XIII ming yillikda dastlab dunyoga kelgan, deb tahmin qilinadi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg‘ular paydo bo‘lgan. Chunki, eng qadimgi mehnat qo‘shiqdori ishning ritmik tuzilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Ijrochilik qarsak chalib ritmni ta’kidlash, shovqinli cholg‘ular ta’sirini kuchaytirdilar. Keyinroq xalq ustalari tomonidan qamish yoki bambuk poyasidan surnay, hushtaklar, shiqildoqlar, chiltorlar va kifaralar yaraldi.

Vaqt o‘tib bu cholg‘ular yanada takomillashib naylar yuzaga keldi. So‘ngra torli – mizrobli va torli – kamonchali musiqa cholg‘ulari paydo bo‘ldi. Ular saroy ayonlarining marosimlarida, harbiy yurishlarida foydalanildi. Qadimgi Sharq madaniyati quchog‘ida o‘zbek xalq cholg‘ulari shakllandi”<sup>16</sup>. Ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida o‘ziga xos xususiyatlarini tovush tusini saqlab qoldi. O‘ziga xos tuzilishi tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak, qobuzlar an’anaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.

Asrimizning 30-40 – yillarda uyushtirilgan arxeologik ekspeditsiyalar natijasida O‘rta Osiyo madaniyatini, shu jumladan xalq cholg‘ularini o‘rganishda qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lindi. Topilgan madaniy yodgorliklar: nay, rubobsimon cholg‘ular, hozirgi doiraga o‘xshash do‘mbira va shu singari cholg‘ularni chalayotgan mashshoqlar tasvirlangan. Bular Afrosiyob, Tuproqqal’a Ayratam kabi shaharlardan topilgan sopol idishlardagi mashshoq haykalchalardir.

<sup>15</sup> Sh.Mirziyoyev “Sharq taronalari” o‘n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqidan. Samarqand 2019.

<sup>16</sup> Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘u asboblari tarixi Samarqand 2020 y

Ular turli xil musiqa asboblari: tanbur, rubobsimon cholgʻu, qonun, rud, shemane (musiqor), chagʻona, chiltor, nay, burgʻu, surnay, karnay, doirasimon cholgʻular mashq qilishlari tasvirlangan.

Xalq cholgʻulari Oʻrta Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Sharq olimlarining nazariy qarashlari mavjud ijrochilik sanʼati tajribasi asosida shakllangan boʻlib, ular oʻz risolalarida musiqa jamiyatda tutgan oʻrni va ahamiyati haqida atroflicha maʼlumot berganlar.

Farobiyning “Katta musiqa kitobi”, Ibn Sinoning “Davolash kitobi” qomusidagi “Musika haqida risola”, Al Xorazmiyning “Bilimlar kitobi”, Safauddin Urmaviyning “Oliy janoblik haqida kitob” yoki “Sharafiya kitobi”, Jomiyning “Musika haqida risola” kitoblarida musiqa ijrochiligi haqida muhim maʼlumotlar bayon etilgan. Abu Nasr Muhammad Farobiyning mashhur asari “Musika haqida katta kitob” ulkan ahamiyatga ega. Oʻrta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqa ijrosiligi: ohangni inson ovozi va cholgʻular vositasida qayta tiklashga ajratadi. Farobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholgʻularining jamiyat hayotidagi rolini oʻrganishga ahamiyat beradi.

**Muhokama va natijalar.** “Oʻzbek xalq cholgʻulari rang-barang boʻlib, ular ijrochilik imkoniyatlari va funksiyalari, tuzulishlari bilan farq qilinadi.

Tirnama, noxunli, torli urma, kamonli orkestrlardan iborat torli asboblarning guruhi juda boy boʻlib ularga dutor, doʻmbira, tanbur, afgʻon rubobi, qashqar rubobi, chang, gʻijjak, sato kabilar kiradi.

Damli cholgʻular guruhiga nay, karnay, qoʻshnay, bulamon, surnay kabilar kiradi. Zarbli cholgʻular guruhiga esa doira, nogʻora kabilar misol boʻladi.

Ijrochilik malakalarini shakllantirishda avvalo oʻquvchilarni ushbu cholgʻular bilan tanishtirish va ularda qaysi cholgʻuni ijro etishga boʻlgan ishtiyoqi kuchli ekanligini hisobga olgan holda ijro cholgʻu asbobini mukammal ijro etishni oʻrgatib borish zarur.

Dutor mayin ovozga ega boʻlib, noxunli kosaxonasi oʻyma yoki qovurgʻali, unga yopishtirilgan nisbatan uzun va ingichka dastasiga yupqa qopqoq yopishtirilgan kosaxonasiga oʻrnashgan uzun dastasiga esa qoʻshpay yoki ipak torlaridan ikki oʻraqilib qilib bogʻlangan pardalar mavjud. Odatda pardalari 13 ta boʻlib ular ikki oktavadan oshiqroq diapazonli toʻla xromatik boʻlmagan tovush qatorini hosil qiladi. Dutorning ikkita ipak tori kvarta, kvinta yoki unison (oktava)ga orkestrlanadi. Dutor asosiy ijro usuli tirnamadir. Ayni vaqtda esa dutor

shtrixlarning boyligi, o'ng qo'l va barmoqlarning ishlatilishi ham keng rivojlanmoqda. Dutor asarlari qo'shuvchi faktura bilan xarakterlanadi"<sup>17</sup>.

Afg'on rubobi (Buxoro rubobi deb ham yuritiladi) o'ziga xos shaklga ega bo'lib, chertib chalinadigan noxunli cholg'u asbobidir. Usti teri bilan qoplangan, katta va chuqur o'yma qismining toraytirilgan yon tomonlaridan yuqori qismiga yupqa qopqoq yelimlangandir. Odatda kosa qismi bilan bir butun yo'niladigan yo'g'on dastasida ichakdan atigi 4 parda bog'langan bo'lib, qolganlarining yog'och qopqog'i ustiga cho'p qalamchalar yopishtiriladi. Rubob odatda 5 ta chalinadigan asosiy pay tor (shu jumladan unison orkestrlanadigan 1-2, 3-4 qo'sh toqlar) hamda yon quloq (go'shak) larga tortildigan 10-11 ta aks sado beruvchi sim torlarga ega bo'lib, asosiy kuyan torlar o'zaro kvartaga orkestrlansa, aks sado beruvchi similar pog'onama-pog'ona ko'tarilib boruvchi sekundalarni tashkil etadi. Diapazoni ikki oktava doirasida bo'lganiga qaramay afg'on rubobi deyarli professional xalq orkestrandalari, yakkanavoz orkestr hamda, ansambl tarkibida O'zbekistonning asosan Buxoro shahrida ishlatiladi.

Qashqar rubobi yarim doira shaklidagi o'yma kosaxonasining usti teri bilan qoplangan bo'lib, uning yo'g'on va uzun dasta o'rnatiladigan qismi yon tomonlaridan chiqib turadigan ikkita yog'och shoxchalari ushbu cholg'uning xarakterli belgisi sifatida ko'zga tashlanadi. Qashqar rubobi torlarining soni 5 ta: uchtasi ipakdan (yoki paydan), ikkitasi simdan (hozirgi paytda hammasi har xil yo'g'onlikdagi simdan) tortiladi. Ular kvarta, kvintaga orkestrlanadi. Rubob dastasiga uch oktava hajmidagi xromatik tovush qator hosil qiladigan 19-23 ingichka pay parda bog'langan (hozir esa deyarli hammasining dastasi ust qismiga metal qalamchalar yopishtirilgan) bo'ladi. Rubob oddiy mediator (noxunak) bilan afg'on rubobidek ijro etiladi.

Chang – torli urma cholg'u asbobi bo'lib, trapetsiyasimon yog'och qismining ustiga yupqa yog'och qopqoq (deka) yelimlangan. Uning 40 ta tori qopqoq ustiga tortilgan. Ularning asosini 14 tor tashkil qilib, yo'g'on pastki tor – bittalik, qolgan 13 ta yuqoridagisining har biri uchtadandir. Bu torlar o'z navbatida ikki gruppaga bo'linadi. Birinchi gruppaga o'ng tomondagi eshkakka tayanib, ikkiga bo'linmagani uchun bittadan tovush, ikkinchisi esa o'rta eshkak ustidan o'tib ikkiga bo'linganligi sababli ikkitadan tovush beradi. Umuman ular ikki oktava doirasidagi diatonik tovushqatorni hosil qiladi. Chang ikkita yog'och tayoqcha vositasida urib chalinadi.

G'ijjak – odatda o'rik cho'pidan yumaloq o'yilgan kosaxonasi teri bilan qoplangan bo'lib, uzun dastasida pardalar bo'lmaydi. G'ijjak kamoni to'g'ri yoki salgina egilgan yoysimon sop bo'lib, unga ot qili o'rami ma'lum biritkichlar vositasida ulangandir. G'ijjakda torlar soni 3

<sup>17</sup> <https://arxiv.uz/uz/documents/musiqacholg-u-ijrochilik>

yoki 4 ta bo‘ladi. Olti – yetti torli, aniqrog‘i uch tori ikkitadan juft tortilgan g‘ijjak turlari ham uchraydi. Ilk namunalari ikki torli bo‘lgan. Torlar kvartaga orkestrlanadi. Hozirgi vaqtda kvartakventaga orkestrlanadigan to‘rt torli g‘ijjak ko‘proq qo‘llanilmoqda. Diapazoni uch oktavaga yaqin.

Zarbli urma cholg‘u asboblari sharq xalqlarida keng tarqalgan musiqa asboblari hisoblanadi. Ular o‘zbek xalqi musiqa amaliyotida muhim o‘rin tutadi. Yurtimizda musiqa hayotida juda muhim o‘rin tutadigan urma cholg‘ular doira va nog‘oradir. Musiqa amaliyotida har bir cholg‘u asbobi va ulardan iborat ansambllarning funksiyasi ham har xildir. Masalan torli asboblardan, asosan “kamer” sharoitda ishlatgan. Hozirda faqat orkestrandalar emas balki hofizlar, baxshilar ham keng ijro etib kelmoqda.

O‘zbekistonda g‘oyat boy an’anaga ega bo‘lgan ansambl ijrochiligi u yoki bu orkestrlar birikmasi o‘z tasviriy ifoda imkoniyatlari tembri, akustik ansambllar ikki qisimga bo‘linadi:

1. Ancha keskin hamda juda baland sadoli musiqa asboblaridan tuzilgan ansambllar.

2. Nisbatan yumshoq sadoli cholg‘u asboblaridan tuzilgan ansambllardir.

Sunray, karnay, nog‘oradan iborat qadimda keng qo‘llanilgan birinchi guruh ansambllari hozirgi kungacha keng ishlatilmoqda. Ular asosan ochiq havoda, xalq an’anaviy bayramlarida, ko‘cha tomoshalarida, to‘y – marosimlarda ijro etiladi.

Qolgan deyarli barcha o‘zbek musiqa asboblari ikkinchi guruh ansamblini tashkil qiladi. Bu cholg‘u ansambllari faqat katta bayramlar, maxsus tantanali kechalardagina ishtirok etganlar. Ko‘pincha bu guruhga tegishli ansambllar eyarli ixcham tarkibda qatnashadi. Masalan, tanbur va doira an’anaviy ansambl sifatida maqomlarning ashula bo‘limlari hamda rivojlangan ashulalar ijrosi jarayonida ishlatilgan. Xorazmda bulamon, dutor va g‘ijjakdan iborat an’anaviy ansambl esa doston ijrochilariga jo‘r bo‘lgan.

Cholg‘u sozini aniq tovush manbayiga, masalan, kamertonga yoki to‘g‘ri sozlangan fortepiano tovushiga sozlash tavsiya etiladi. Ansamblda esa cholg‘ular odatda nay yoki chang cholg‘usiga sozlanadi. Dars boshlanishidan yoki biror-bir konsertga chiqishdan oldin ansambldagi cholg‘u sozlarini har birini toza qilib sozlash tufayli butun ansambl unison sozining sofligiga erishiladi.

Cholg‘u sozlarini dastlabki mashg‘ulotlarda musiqa rahbarining o‘zi sozlab beradi va sekin-asta shogirdlarini ham o‘z sozlarini mustaqil sozlashga o‘rgatib boradi. Ma’lumki o‘zbek xalq cholg‘ularining deyarli barchasi (puflab chalinadigan sozlardan tashqari) teri parda bilan qoplangan yoki yog‘och qopqoqli bo‘lib, simlar harrak orqali o‘tkaziladi. Shuning uchun ham cholg‘ulami sozlash jarayonida torlar tagiga qo‘yilgan harrakning to‘g‘ri joylashishiga alohida

e'tibor berish zarur. Soz awal ochiq torda hosil qilinib keyin oktava pardasi bosilib uning aniq sozlanganligiga ishonch hosil qilinadi. Agar tovush sof oktavada eshitilsa, bu harrak to'g'ri joylashganligidan dalolat beradi. Barcha sozlar aniq sozlanishiga erishilgandagina ansamblning umumiy sozini ham tiniq unison eshilitishiga erishiladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda musiqa o'qituvchisi nafaqat o'z predmetini, balki falsafa, estetika, psixologiya, pedagogikani yaxshi bilishi va o'z ish faoliyati davomida qo'llay olishi shart. Musiqaning ta'sirchanligini, uning mohiyatini to'liqligicha bolalar ongiga yetkazish pedagogikaning eng qiyin muammolaridan biridir.

1. Talabaga biron - bir asarni o'qituvchining o'zi ijro etib berib, birgalikda tahlil qilish va o'quvchilarga badiiy tomonlarini tushuntirib, mazmunini aniqroq ochib berish ya'ni o'quvchining dunyoqarashiga, his-tuyg'ulariga moslab asardagi musiqiy jummalarni obrazli qiyoslab berish.

2. Magnit tasmlardagi kuy va qo'shiqlarni talabalar bilan tinglab, uni muhokama va tahlil qilish yoki bir asarni cholg'udagi 2-3 xil ijrolarini solishtirib ularning farqlarini, kamchiliklarini va afzalliklarini tushuntirib berish.

3. Iloji boricha o'quv rejasidan tashqari o'zbek xalq kuylaridan biron-bir asarni hamma talabalar bilan notasiz og'zaki an'anada o'rganish va chalish.

4. O'quv muassasasi doirasida va undan tashqaridagi konsertlarda chiqish va konsertlarni tinglash. Konsertdan keyin alnatta o'qituvchi konsert ijrochiligini tahlilqilib berishi va undagi yaxshi ijrolarni o'quvchilarga ko'rsatib berishi o'zining yaxshi natijasini beradi. Lekin shunga qaramay tajribali o'qituvchi va mohir orkestrandalarning ta'kidlashlaricha talabaga tushuntirilayotgan musiqani o'qituvchining o'zi qanday tushuntirgan bo'lsa shunday ijro etib ko'rsatib berishi asarni ijrosini tez o'zlashtirib olishida eng asosiy omil hisoblanadi. Aynan ana shu jarayon orqali o'qituvchiga bo'lgan cheksiz hurmat, kasbiga bo'lgan qiziqish va intilish paydo bo'ladi.

5. Faqatgina o'zbek xalq cholg'u asarlarini tahlil qilmasdan boshqa cholg'ulardagi ijrolarni konserta yoki magnit yozuvlarda eshitish va ularni tahlil qilish. Xuddi shu ijrodagi asarni o'zbek xalq cholg'u asboblari ijrosida eshitish va ulardagi badiiy ifodalilik imkoniyatlarini, vositalarini va shtrixlarini taqqoslab ko'rish va tahlil qilish.

Talabalarni ijro malakasini oshirishda shtrixlar alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi shtrix muayyan mukammallikni belgilovchi omil hisoblanadi. Biz shtrixlar bobida har bir shtrix muayyan asarda har xil xarakterga ega ekanligi haqida aytib o'tgan edik. Yevropa klassik musiqalarini o'zbek xalq cholg'u sozlarida ijro etganda avvalo ijrochi asar va asar muallifi,

yaratilgan davri, asarning janri va yo‘nalishini tushunib yetgandagina asarning badiiy xarakterini ochib bera oladi.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11

2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O‘zbekiston” – 2017 y.

3. Soipova, D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. Musiqa. (2019).

4. Tashmatova A. Musiqiy cholg‘ular muzeyi katalogi. T., 2006

5. Odilov A. O‘zbek xalq cholg‘u asboblari tarixi Samarqand 2020 y

6. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Barcha tomlari T., 2000 y.

7. <https://arxiv.uz/uz/documents/musiqa/cholg-u-ijrochiligi>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI**  
**A X B O R O T N O M A S I**

**2025, № 2**

**Muharrir: M.Kalonov**  
**Musahhih: D.Jabborova**  
**Texnik muharrir: I.Mahmudov**

**Manzil:** Navoiy sh., Ibn Sino ko‘chasi, 45-uy.  
Navoiy davlat universiteti, Bosh bino.  
Tel.: (8436) 522-19-30, Faks: 225-19-30; web-sayt: [nspi.uz](http://nspi.uz)  
e-mail: [@nspi.uz](mailto:@nspi.uz) yoki [isfan2006@mail.ru](mailto:isfan2006@mail.ru)

Nashrga ruxsat berildi.  
Times New Roman garniturasi.  
Nashr hisob tabog‘i – 7,25.

© Navoiy davlat universiteti, 2025\*